

**F.U.QODIROVA, M.A.UMARALIYEVA,
SH.Z.MATUPAYEVA, M.D.OMONOVA**

MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI



**USTOZLAR ARDOQLANGAN YURTDA
FAROVONLIK BARQAROR**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

F.U.Qodirova, M.A.Umaraliyeva, Sh.Z.Matupayeva, M.D.Omonova

MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI
O'QUV QO'LLANMA

-14/00/15-

Chirchiq – 2023

«Yangi chirchiq book»

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI**

UO'K 37.0
KBK74.0
Q-53

F.U.Qodirova, M.A.Umaraliyeva, Sh.Z.Matupayeva, M.D.Omonova /
Maxsus pedagogika asoslari / O'quv qo'llanma – Chirchiq «Yangi chirchiq
book», 2023. - 228 bet

Taqrizchilar:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), v.b dotsent **G.S.Abdullayeva**

QDPI "Maxsus pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) **M.S.Maxmudova**

ISBN 978-9910-9951-1-8

© F.U.Qodirova va b., 2023
© «Yangi chirchiq book», 2023

MUNDARIJA

KIRISH

1-mavzu.	Maxsus pedagogikaning maqsad va vazifalari. Alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar toifalari.	5
2-mavzu.	Maxsus pedagogikaning bo'limlari.	19
3-mavzu.	Maxsus pedagogikaning tamoyil va metodlari.	49
4-mavzu.	O'zbekistonda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim turlari.	70
5-mavzu.	Surdopedagogika. Surdopedagogikaga oid milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar.	82
6-mavzu.	Oligofrenopedagogika. Oligofrenopedagogika oid milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar.	99
7-mavzu.	Tiflopedagogika. Tiflopedagogikaga oid milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar.	112
8-mavzu.	Logopediya. Logopediyaga oid milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar.	131
9-mavzu.	Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi.	145
10-mavzu.	Ruhii rivojlanishi sustlashgan bolalar ta'lim-tarbiyasi.	160
11-mavzu.	Maxsus ta'lim muassasalarida korreksion dars va mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari.	169
12-mavzu.	Defektolog (surdopedagog, oligofrenopedagog, tiflopedagog, logoped) shaxsi va unga qo'yiluvchi talablar.	181
13-mavzu.	Inklyuziv va maxsus ta'limda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri.	192

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarorlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan e'tibor yanada kuchaytirilgan bo'lib, ulardagi nuqsonlarni erta aniqlash hamda ta'lim-tarbiyasi uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish belgilab qo'yilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma maxsus pedagogika fanining umumiy masalalari, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, fan metodlari, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi, rivojlanishdagi nuqsonlarning sabablari, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi, milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar, inklyuziv va klasterli ta'lim masalalari yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun mo'ljallangan.

I-MAVZU: MAXSUS PEDAGOGIKANING MAQSAD VA VAZIFALARI. ALOHIDA TA'LIMGA MUHTOJ BO'LGAN BOLALAR

TOIFALARI

REJA:


1. Faning mohiyati: maxsus pedagogika fanining predmeti, obyekti va vazifalari
2. Maxsus pedagogikaning rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar
3. Alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar toifalari

Tayanch so'zlar: Maxsus pedagogika, ta'lim, tarbiya, maqsad, vazifalar, obyekt, predmet, vositalar, defektologiya, korreksion pedagogika, nogironlik, imkoniyati cheklanganlik, ta'limda alohida ehtiyoj, anomaliya, aqli zaiflik, karlik, zaif eshituvchilik.

1. Faning mohiyati: maxsus pedagogika fanining predmeti, obyekti va vazifalari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sessiyasida qabul qilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan „Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi (<https://tergov.uz/>)

uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka) hamda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrda „Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida“gi O'RQ-641-son qonuniga ko'ra jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan shaxslarni shaxsiyatiga tegmaslik maqsadida, hozirgi kunda O'zbekistonda defektologiya yoki korreksion pedagogika o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra *maxsus pedagogika* deb yuritilmoqda.



Har qanday fanning o'z predmeti, maqsadi, vazifalari bo'lgani kabi maxsus pedagogikaning ham o'z predmeti, maqsadi va vazifalari mavjud. Maxsus pedagogika fanining mavzu bahsi, predmeti jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardir. Maxsus pedagogika fanining vazifasi – nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, turlari, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, shular asosida ular uchun differensial (segregatsion) yoki integratsiyalashgan, inklyuziv sharoitda ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi, ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi) rehabilitatsiyasi, ijtimoiylashuvi bilan shug'ullanishdir.

Maxsus pedagogika fanining maqsadi


- rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiyasi va rehabilitatsiyasini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixo-fiziologik kamchiliklarni iloji boricha ertaroq aniqlab, bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish;
- rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish.

Maxsus pedagogikaning obyekti

- rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va kattalardir. Rivojlanishida muammolari bo'lgan shaxslarni "nogironligi bo'lgan, alohida ta'limda ehtiyoji bor, imkoniyati cheklangan" kabi nomlar bilan atash mumkin.

Maxsus pedagogikaning predmeti

- rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi hamda ijtimoiy rehabilitatsiyasi muammolariga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borish.




2. Maxsus pedagogikaning rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar

O'zbekistonda maxsus pedagogikaning rivojlanishi asosan 1920-1924-yillarga to'g'ri kelishini alohida ta'kidlash mumkin. Chunki bundan ilgari imkoniyati cheklangan bolalarga maxsus – alohida ta'lim berilganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Aksincha, barcha ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, O'rta Osiyo mutafakkirlari, allomalarining asarlarida nuqsoni yoki kamchiligi bo'lgan bolalarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga teng munosabatda bo'lish alohida ta'kidlangan. G'arb mamlakatlarida bo'lgani kabi yurtimiz tarixida nogiron bolalarga nisbatan g'ayriinsoniy munosabatlar bo'lganligi tarixiy manbalarda ham qayd etilmagan. Aksincha, tariximizda ko'pgina nogiron allomalar, olimu-fuzalolar, buyuk sarkardalar o'tganining guvohimiz. Sobiq sovet tuzumi davrida respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarni alohida ro'yxatga olish, ularni turlarga bo'lish va har bir tur uchun alohida ta'lim mazmunini yaratish bo'yicha keng ko'lamda ish olib borildi. Bu davrda „Defektologiya“ fani va uning tarkibidagi surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya fanlari rivojlanib, shu yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlashga asos solindi. Maxsus ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha maxsus maktablar va maktab-internatlar ochildi. Maxsus ta'limning rivojlanish yo'liga nazar solsak, 1919-yil 10-dekabrda ko'r, kar, aqli zaif, ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularning salomatligini muofaza etishga oid qaror qabul qilingan. Bu qaror O'zbekistonda ham maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarining tashkil etilishiga asos bo'ldi. 1920-yilning iyunida Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) xalq maorifi komissariyati bolalar o'rtasidagi nuqsonlikka qarshi kurash masalalariga


bag'ishlangan, I Butun Rossiya syezdini chaqirdi. Syezdda bolalar orasida uchraydigan nuqsonlarga qarshi kurash, maxsus mutaxassislar tayyorlash masalalari yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Jonkuyar pedagog L.I. Novoselovanning tashabbusi bilan 1920-yilda Toshkentda 18 ta o'quvchisi bo'lgan ko'r va karlar guruhi ochildi. Bu muassasa keyinchalik nuqsonli bolalar maktabiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasida ilk maxsus ta'lim muassasalarining tashkil topishi



Shuning bilan bir qatorda ayrim umumiy maktablar qoshida aqli zaif bolalar uchun sinflar tashkil qilindi.

1933-yilda 66-sonli yordamchi maktabda birlashgan mustaqil ta'lim-tarbiya maskani yuzaga keldi. 1929-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyevning sa'y-harakatlari bilan Toshkentda ko'zi ojiz bolalar maktabi ochildi.



Yo'losh Oxunboboyev
(1885-1943)
Davlat va jamoat arbobi.

Dastlab bu maskanda maktab yoshidan o'tgan 20 kishi ta'lim oldi. So'ngra bu maktabga maktabgacha yoshdagi bolalar qabul qilindi. 1931-yildan boshlab bu maktabda maktabgacha tarbiya guruhi ishlay boshladi, bu bolalar orasidagi nuqsonlilikni bartaraf etish, ta'lim-tarbiya berish ishlari olib borildi. 1930/1931 o'quv yilida ta'limi o'zbek tilida olib boriladigan ko'r bolalar I-sinfning ochilishi muhim siyosiy ahamiyat kasb etgan voqea bo'ldi. 1930-yillarning oxirlariga kelib, Qo'qon va Buxoroda ham xuddi shunday maktablar ochildi. 1931-yilda nuqsonli bolalarni majburiy ta'limga jalb etish haqida qaror qabul qilindi.

Agar 1960/1961 o'quv yilida O'zbekistonda 20 ta maxsus muassasalar bo'lgan bo'lsa, 1973/1974 o'quv yilida bunday ta'lim dargohlari 43 taga yetdi, tarbiyalanuvchilar soni esa 9000 dan ortib ketdi. 1991/1992 o'quv yilida 77 ta maxsus muassasalar faoliyat ko'rsatdi.

Markazlashtirilgan holda har bir yo'nalish bo'yicha tabaqashtirilgan maxsus o'quv rejalar va dasturlar yaratildi. Moskva shahrida maxsus „Defektologiya“ ilmiy tadqiqot instituti ochilib, unda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi, psixologiyasi laboratoriyalari ochilib, tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot natijalari butun „Ittifoq“ bo'ylab qo'llanilishi uchun tavsiya etilgan. Shu tarzda O'zbekistonda maxsus ta'lim va Defektologiya fanining rivojlanishiga asos solindi. Lekin aksariyat nogiron bolalar rus tilida o'qitilishga majbur edi. Chunki o'zbek tilida maxsus darslik, dasturlar hali yaratilmagan edi. Faqat aqli zaif bolalar umumta'lim maktablarining pasaytirilgan, soddalashtirilgan dasturlari asosida

o'zbek tilida o'qitilar edi. 1930-yillarga kelib Brayl alifbosining o'zbek alifbosiga moslashtirilgan shakli ishlab chiqildi va shu asosida o'zbek tilida Brayl alifbosi asosida o'qitishga asos solindi.

Defektologiyaning fan sifatida rivojlanishi 1967-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining „Pedagogika va psixologiya“ fakulteti qoshida „Oligofrenopedagogika“ bo'limi tashkil etilishidan boshlandi va 1975-yillarda Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tekshirish institutida psixologiya bo'limi qoshida defektologiya bo'limi faoliyat boshladi. Faqat bu ikki oliygohda ham ta'lim va tadqiqotlar, ilmiy tadqiqotlar, „Markaz“ning rejasiga asosida va faqat rus tilida olib borildi. Chunki shu davrgacha o'zbek defektolog mutaxassislari yo'q edi. Nihoyat 1968-yilda bir guruh o'zbek yoshlari Moskva, Leningrad defektologiya institutlarida tahsil olib kelib, ilk o'zbek guruhlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar.



S.I.Latipov



A.I.Sagatov



L.R.Momina

O'zbekiston defektologlaridan G'.B.Shoumarov, K.X.Mamedov, V.S.Rahmanovlar o'zbek defektologlarini tayyorlashda faol ishtirok etdilar.

1973-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim fakulteti qoshida yana bitta yo'nalish, „Surdopedagogika“ bo'limi ochildi va 1983-yilgacha faqat rus tili mutaxassislari tayyorlandi. Shu davr mobaynida maxsus yo'nalishda malaka oshirish ham rivojlana boshladi. Bu davrda

(sobiq Ushinskiy nomidagi) hozirgi A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish markaziy institutida maxsus maktablar bo'limi faoliyat olib bordi va unga uzoq muddat davomida N.A.Paletskeya rahbarlik qilib, maxsus ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining malakasini oshirishni rivojlantirib keldi.

1978-yillarga kelib deyarli barcha viloyatlarda maxsus ta'lim muassasalari ochilib, ular soni 50 dan oshdi va Maorif vazirligi qoshida maxsus maktab, maktab-internatlar bo'yicha Respublika metodika kabineti tashkil etildi. Bu Respublika metodika kabinetiga Respublikaning yetuk mutaxassislaridan S.H.Latipov, R.S.Shomahmudova, U.Y.Fayzievalar jalb etildi. 1975-yilda ilk bor o'zbek tilida maxsus maktablar uchun dasturlar yaratildi va O'zbekiston Respublikasi Maorif vazirligi (hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi) tomonidan tasdiqlandi. 1983-yili 8 ta yo'nalish bo'yicha o'zbek tilida o'quv rejalar tuzildi va ular asosida dasturlar yaratilib chop etildi.

Shu yillar davomida o'zbek tilida talabalar uchun G.B.Shoumarov, F.M.Po'latovalar tomonidan „Oligofrenopedagogika“, G.B.Shoumarov va K.X.Mamedovlar tomonidan „Aqli zaif bolalar psixologiyasi“, „Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola psixologiyasi“ o'quv qo'llanmalari yaratildi. Shu bilan bir qatorda maxsus darsliklar yaratish bo'yicha ilk mualliflar guruhi tuzilib, o'zbek tilida darsliklar yaratilishiga asos solindi. Mualliflar guruhiga Respublika maxsus maktab, maktab-internatlar metodika kabinetining mudiri S.H.Latipov va U.Y.Fayzievalar rahbarlik qildilar. Maxsus dasturlar, darsliklarni nashrga tavsiya etuvchi ilmiy metodik kengashining defektologiya yo'nalishi bo'yicha bo'limi tashkil etildi va unga o'zbek defektolog olimi G.B.Shoumarov tayinlandi. Mazkur ilmiy metodik kengashda 10 dan ziyod darslik qo'lyozmalari muhokama va ekspertizadan o'tkazilib nashrga tavsiya etildi. Lekin maxsus darsliklar va dasturlarni joylarda mahalliy tillarda chop etilishiga qarshi bo'lgan „Markaz“, SSSR Maorif ministrligi tomonidan darsliklarni chop etilishiga ruxsat berilmadi. Bu darsliklar faqat mustaqillikdan keyingina nashr etildi.

1984-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida O'rta Osiyoda yagona, mustaqil „Defektologiya“ fakulteti ochildi va unda „Defektologiyaning klinik asoslari va surdopedagogika“, „Oligofrenopedagogika va logopediya“ kafedralari faoliyat olib borib, o'zbek mutaxassislarini tayyorlay boshladi. Bu fakultetda kadrlar tayyorlash bo'yicha S.S.Aytmetova, R.M.Qorieva, M.G.Mirzakarimova, O.S.Maymor, G.B.Shoumarov, A.I.Sagatov, V.S.Rahmanovalar katta hissa qo'shdilar. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida „Defektologiyaning klinik asoslari va surdopedagogika“ kafedrasiga rahbarlik qilgan U.Y.Fayzieva qisqa muddat ichida o'zbek tilida surdopedagogika yo'nalishida mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun o'quv rejalar, dasturlar, ma'ruza matnlarini tayyorlashga asos soldi.

1990-yildan boshlab defektologiya fakultetiga L.R.Mo'minova boshchilik qildi va bu davrdan boshlab fakultetda asosiy e'tibor oligofrenopedagogika va logopediya yo'nalishiga qaratilib, surdopedagog mutaxassislar tayyorlanishi keskin cheklab qo'yildi. 1998-yilga kelib bitiruvchilar nisbati oligofrenopedagogik va logopediya yo'nalishi bo'yicha 75 nafar, surdopedagogika yo'nalishi bo'yicha 15 nafarni tashkil qildi (bu nisbat 1990-yillarda 50 nafarga 50 %ni tashkil etgan edi). Natijada kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida mutaxassislar tanqisligi keskin ko'tarilib, ta'lim sifati keskin darajada tushib ketishiga olib keldi.

Mustaqillik davrigacha maxsus ta'limning rivojlanishi asosan Markazga bog'langan bo'lganligi sababli defektologiya sohasining rivojlanib ketishi qiyin kechdi.

Mustaqillik yillaridan so'ng maxsus pedagogikaning barcha tarmoqlari rivojlanishi uchun keng sharoitlar va imkoniyatlar ochildi. Bu imkoniyatlardan foydalanib, O'zbekistonlik olim va mutaxassislar tomonidan maxsus ta'lim muassasalari uchun o'zbek va rus tillarida darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratish va ularni chop etish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda 89 ta alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

3. Alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar toifalari

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlab ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni his etadi.

Tevarak atrofdagi borliqni bilish — sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi.


Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi — buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlana boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati — bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.


Bolaning xoh ona qorida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.



Maxsus pedagogika fanida ta'limda alohida ehtiyojli bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi. Ular quyidagilardir:

- 1) eshitishida muammolari bo'lgan (kar va zaif eshituvchi) bolalar;
- 2) ko'rishida muammosi bo'lgan (ko'r va zaif ko'ruvchi) bolalar;
- 3) aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar;
- 4) og'ir nutqiy muammolari bo'lgan bolalar;
- 5) tayanch harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar;
- 6) Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ;
- 7) murakkab (kompleks) nuqsonli (ko'r-kar-soqov) bolalar;

Maxsus pedagogika bolalardagi nogironlik toifalariga ko'ra 4 ta mustaqil yo'nalishda izlanishlar olib boradi



Alohida taʼlimga muhtoj boʻlgan bolalar sogʻlom tengdoshlari orasida inklyuziv taʼlimda yoki maxsus taʼlim-tarbiya muassasalarida taʼlim-tarbiya olishlari kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli taʼsir etgan nuqsonlarga uni anomal yoki alohida taʼlimga muhtoj boʻlgan bola deb hisoblashga asos boʻlishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulogʻi eshitsa-yu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga taʼsir etmaydigan, u umumiy maktabda sogʻlom tengdoshlari qatori oʻzlashtiradigan boʻlsa, u anomal bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda maʼlum sabablarga koʻra paydo boʻlgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga taʼsir etmasa, bu bolani anomal deb hisoblash mumkin emas.

Anomaliya

yunonchadan tarjima qilinganda meʼyordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, notoʻgʻri rivojlanish tushunchasini anglatadi.

Alohida taʼlimga muhtoj boʻlgan bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan ogʻir, keskin oʻzgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga taʼlim berish uchun maxsus sharoit yaratilishi kerak, yaʼni ular maxsus maktabgacha taʼlim tashkilotlari va maktablarda yoki meʼyorda rivojlangan tengdoshlari orasida xamma qatori kerak boʻlsa, maxsus dastur va darsliklar asosida oʻqitilishi va tarbiyalanishi zarur.

Har qanday rivojlanishdagi muammolar markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional oʻzgarishlarga aloqador boʻlishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil muammolar noqulay muhit, notoʻgʻri tarbiya, taʼlim natijasida ham paydo bulishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, oʻqituvchining bolaga notoʻgʻri munosabati va boshqa koʻpgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy taʼsir kursatib, uning dastur materiallarini yaxshi oʻzlashtira olmasligiga, ulgurmovchi oʻquvchilar orasiga qoʻshilib qolishiga sabab buladi. Shunday boʻlsada, biz bunday bolani anomal bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday boʻlmasin biror organik yoki funksional patologik oʻzgarishlarga bogʻliq boʻlmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan boʻladi.

Oʻqituvchi va tarbiyachilar bunday bolalami anomal bolalardan farqlay olishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga koʻra har qanday anomal rivojlanish tugʻma yoki orttirilgan boʻlishi mumkin.

Tugʻma anomaliyalar koʻp jihatdan xomilador onaning sogʻligʻi va yashash sharoitiga bogʻliq. Ona qornidagi xomilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar taʼsir etishi mumkin. Onaning xomiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan ogʻrishi, oʻzboshimchalik bilan

turli dori darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi, bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi [mumkin.

Tug'ma anomaliyalar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siri ga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktoring mos kelmasligi va boshqalar).

Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Orttirilgan anomaliyalar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakuum-ekstraktor yoki ombur solinishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalar soni nisbatan kamaydi. Biroq, bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar, irsiy omillar hamda intoksikatsiya, organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Maxsus pedagogika qanday fan?
2. Maxsus pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsadi nima?
3. Maxsus pedagogikaning vazifalarini sanab o'ting.
4. Maxsus pedagogika bo'limlarini ta'riflab bering.
5. Maxsus pedagogika (defektologiya) fanining rivojlanish tarixi haqida nimalar bilasiz?
6. Respublikamizda maxsus pedagogikaganing rivojiga hissa qo'shgan olim va olimlardan kimlarni bilasiz?

2-MAVZU. MAXSUS PEDAGOGIKANING BO'LIMLARI

REJA:

1. Maxsus pedagogikaning kategoriyalari
2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari
3. Maxsus pedagogikaning bo'limlari va rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari

Tayanch so'zlar: *Maxsus (korreksion) pedagogika, kategoriya, individual, o'quvchi, defektologiya, rivojlanish, jismoniy, psixik.*

Kirish

Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan maxsus pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Maxsus (yoki korreksion, defektologiya) pedagogika — rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida maxsus pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi.

Pedagogik lug'atda „korreksiya“ tushunchasi lotincha „correctio“ – tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda „korreksion (maxsus) pedagogika“ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i va imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Maxsus pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Maxsus pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.


Diagnostika – korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Maxsus pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

Maxsus pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni

shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.



1. Maxsus pedagogikaning kategoriyalari

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofda uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini talab qiladi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

- **Korreksiya** (lotincha tuzatish) — bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

- **Korreksion-tarbiyaviy** ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarda sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini

samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari rivojlantiriladi. Nuqsonlarni bartaraf etish uchun anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar)ni tashkil etish zarur bo'ladi.

- **Kompensatsiya** (lotincha „compensatio“ — o'rni to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariga tayanadi.

- Ijtimoiy **reabilitatsiya** (lotincha „rehabilitatio“ — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu maxsus pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

- Ijtimoiy **adaptatsiya** (lotincha „adaptatio“ — moslashish) — anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga

ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

- **Oilaviy tarbiya** – reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktab hamkorligidagi harakatlar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari

Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:


Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat – bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi – bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha

shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.




3. Maxsus pedagogikaning bo'limlari va rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari

Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada ortib bormoqda.


Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jismoniy yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo

bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rnini to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi. Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas.


M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarni quyidagi guruhlariga ajratadilar:



O.N.Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlariga ajratishni taklif qiladi:



V.S.Rahmanova rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni quyidagi guruhlariga ajratishni taklif qiladi:



Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rnini to'ldirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlar esa davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab qiladi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Bola rivojlanishdagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari

Rivojlanishida nuqson bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qaroriga (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>) muvofiq psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PTPK) shug'ullanadi. Bu borada mutaxassislarning quyidagi tamoyillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

- Insonparvarlik tamoyili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

- Bolalarni kompleks o'rganish tamoyili – bolaga tashxis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tayanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili bolaning idrok etish, emosional-irodaviy sifatleri va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

- Bolani dinamik o'rganish tamoyiliga binoan, tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning ta'limdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning „yaqin rivojlanish zonasi“ – bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

- Sifatii-miqdoriy yondashuv tamoyili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijaningina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lining ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishdagi qat'iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

- Ma'lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'z qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

- Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'ra differentsiyalashtirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar takti asosida (Brayl tizimi bo'yicha, zaif ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi <https://www.yoair.com/uz/blog/anthropology-tracing-the-history-and-development-of-braille/>)).

- Yosh tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqson bo'lgan bolalarni


tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qaroriga (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>) muvofiq PTPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar:

pedagog	psixolog	shifokor	psixiatr
nevropatolog	otolaringolog	oftalmologlar	ortoped
oligofrenopedagog	surdopedagog	tiflopedagog	logoped

PTPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish
Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi
sabablari

Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi – oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi.

Oligofreniya

yunoncha
 olygos – kam va
 phren – aql

Oligofreniya termini XIX asrda
 mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin
 tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug‘ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo‘lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug‘ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og‘rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onaning giyohvand moddalarni is‘temol qilishi ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ularni quyidagi 2 guruhga ajratish mumkin:

- Ona qornidaligi miyasi shikastlangan bolalar.
- Tug‘ilishi paytida yoki tug‘ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 1994-yilda aqli zaiflikning quyidagi to‘rt darajasini e‘tirof etgan: yengil, o‘rta, og‘ir va chuqur darajalar.

Yengil darajadagi aqli zaiflik o‘quvchilar maktabni bitirish davrida o‘zlarining psixometrik va klinik namoyon bo‘lishi bilan normal rivojlanayotgan o‘quvchilardan biroz farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo‘lmaydigan hodisa sifatida e‘tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo‘lmaydi degan ma‘noni anglatmaydi. Aksar tadqiqotlarda

maxsus (korreksion) ta‘lim muassasalarida metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar

Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning olidini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o‘z vaqtida o‘tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog‘liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus muassasalarda tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlardagi inklyuziv guruhlariga qabul qilinishlari mumkin. Ularda ta‘lim ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi kabi maxsus dastur bo‘yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar ixtisoslashtirilgan (maxsus, korreksion) maktablarda o‘qitiladilar, bu yerda o‘qitish davlat ta‘lim talablari asosida maxsus dastur bo‘yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o‘rta ta‘lim fanlari (ona tili, o‘qish, matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, rasm, musiqa) bilan birga maxsus korreksion fanlar (logopediya, IMHY, ritmika, DJT) ham o‘qitiladi. Ixtisoslashtirilgan (maxsus, korreksion) maktablarda mehnat ta‘limi muhim o‘rin egallaydi. Mehnat ta‘limi IV sinfdan professional xususiyatga ega bo‘lib, bolalar o‘zlari bajara oladigan kasbni o‘zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, o‘zlariga va atrofdagilarga to‘g‘ri baho berishga o‘rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabiga jalb etilish holati ko'zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o'qitish va tarbiyalash mas'uliyatini ota-onalar o'qituvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfda o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi yetganicha, darsning borishiga xalaqit bermay sinf faoliyatida ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu holat keyinchalik o'quv darslarini butkul tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ota-onalarining bevosita ishtiroklarini talab etadi.

Ruhiy rivojlanishi sust bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari

Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya disfunktsiyalari ekanligini ko'rsatadi. Ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

Ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan maktabga borayotgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular maktabda o'qishga to'la tayyor emaslar, ularda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o'zlashtirish uchun layoqati yetarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o'qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o'rgana olmaydilar. Ishlarni tashkillashda qiyinchilikni his qiladilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga

nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'lib, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O'yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

Ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga she'r yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Aksar hollarda ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi, shu bois ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va darslarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limga muhtojlar. Ularga alohida e'tibor ko'rsatish talab etiladi.


Ta'lim muassasalarida ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalar bilan logopediya va rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatish korreksion mashg'ulotlari olib boriladi.

Ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar

O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor ruhiy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda ruhiy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning (VMning 12.10.2021-yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarorining 5-ilovasi (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>) asosida ota-onalari yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.


Ikkinchi bosqichda ta'lim (V-IX sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa – bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashuvni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish ishlari bilan birga amalga oshirilishi lozim. O'quv materiallari hamda ta'lim metodi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Nutqida muammolari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish.

Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari



logopediya
shug'ullanadi

logopediya - yunoncha
logos – so'z, nutq va
peydeo – tarbiyalash
ma'nosini anglatadi.

nutqiy nuqsonlarni o'rganish,
oldini olish maxsus
pedagogikaning muhim sohasi


Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevrologik (psixik funksiyalarining buzilishi (aqli

zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning markaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar (infektsiya, jarohatlar, intoksikatsiya), turli akusherlik patologiyalari (bel torligi, tug'ilishning cho'zilib ketishi yoki tez sodir bo'lishi, yo'ldoshga o'ralib qolishi, bolaning noto'g'ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko'rsatilmaligi, chala tug'ilish kabi holatlar sabab bo'ladi.

Nutq buzilishi turlari



Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi:

- tibbiy-psixologik nutqiy buzilish
- psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko'riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

- og'zaki nutqning buzilishi;
- yozma nutqning buzilishi.

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

- fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorf)ning buzilishi

- nutq ifodalanishi fonatsion tuzilishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;

Psixologik-pedagogik klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- Muomala vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiy rivojlanmaganligi)
- Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar.

Maktab o'quvchilarida nutq buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish

Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari

Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, korreksion o'qitish va tarbiya masalasi bilan logopediya shug'ullanadi. „Logopediya“ termini yunonchada „to'g'ri nutqni tarbiyalash“ ma'nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar – fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o'rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funksional yoki organik chetlanishlar ko'zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg'imchoqda ko'p vaqt tebranish bolalarga yomon ta'sir ko'rsatadi, boshlari og'riydi, ko'ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta'sirlanishlari, jahllari chiqish bilan ajralib

turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar, ularning kayfiyatlari tez o'zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo'ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o'tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo'shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:

Logopedik shoxobcha tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar:

O'quvchilar bilan logopedik shoxobchada korreksion ishlar butun o'quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o'ta jiddiy bo'lsa o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o'quvchi bilan davolash-sog'lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo'lib, bu yerda nutqida buzilishi bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatiladi.

O'gir nutq buzilishi bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan talim muassasalarida logopediya va ritmika korreksion mashg'ulotlari olib boriladi.

Eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish

Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar.

Eshitish – borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi

yoki tovush analizatori (tovush ta'sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddatli bo'ladi. Masalan, o'rta quloqning tashkil topishi, shamollash, oltingugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulog'ining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo'lmasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy tibbiyot ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zararlanish akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: **nasliy, tug'ma va kelib chiqqan** tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'irishi (qizamiq, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli (1500 dan kam) tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotilishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.


Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi darsda bildirilayotgan fikrlarni bola yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta qatarga o'tkazishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi bola uning gaplarini to'g'ri tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki zaif eshitadigan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

O'qituvchidan sinfga qabul qilingan kar yoki zaif eshitadigan bolaning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Ko'rishda muammolari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish

Ko'rish qobiliyatining buzilish turlari, ularning sabab va oqibatlari

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi.



Tiflopedagogika – korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish – analizator yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni to'playdi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qornida rivojlanayotganda ko'rish organlari

patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklarga chalinishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari – to'r pardasi, shox parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoentsifalit), organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (qizamiq, gripp, skarlatina), shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (bosh yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Ko'r tug'ilganlar	Erta ko'r bo'lib qolganlar	Uch yoshidan keyin ko'r bo'lib qolganlar
----------------------	-------------------------------	---

Zaif ko'ruvchi bola ommaviy maktablarda ta'lim olganda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar – predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasini egallab olish, o'qilganlarning mazmunini tushunishga xalaqit beradi. Oddiy maktabda zaif ko'ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda zaif ko'radigan bolalar tez charchaydilar, bu ulardagi ish unumdorligini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa – zaif

ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PTPK ga yuborishdan iborat. Zaif ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash

Ko'rishda muammolari bo'lgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

Anomal refraktsiyali bolalar tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda bo'lishiga ehtiyoj sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigiyenik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishda muammosi bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va yetarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkazilishi kerak. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga o'tkazilishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa – oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiyali bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar bilan uyg'unlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiyali bola 10-15 daqiqa davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha daqiqa uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'i bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rishda muammosi bo'lgan – ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

O'z sinflarida ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga differensial yondashuv muvofiq munosabatda bo'lishlari zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rishda muammosi bo'lgan bolaning ish o'rni esa qo'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakatining mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi lozim.

Sinfdagi ko'r yoki zaif ko'ruvchi bola bo'lgan taqdirda o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish.

Tayanch-harakat apparatidagi buzulishlarning turlari va yuzaga kelish sabablari

Tayanch-harakat apparatidagi turli buzulishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funksiyalarining buzilishi **tug'ma yoki orttirilgan** bo'lishi mumkin.

Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

- asab tizimining kasallanishi (bolalar tserebral paralichi (BTSP), poliomielit);
- tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiqdigi; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa nuqsonlari; umurtqa pog'onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo'l barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogiroz (tug'ma mayiblik);
- orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliatrit; skelet

kasalliklari (tuberkulyoz, suyaklardagi shishlar, osteomielit), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo'lgan bolalarda asosiy buzilish *harakatlanishdagi nuqson* hisoblanadi. Bunday nuqsonlarga ega bolalarning 89 % ini *serebral paralichli bolalar* tashkil etadi. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiy buzilishlar bilan birga namoyon bo'ladi. Shu bois bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korreksiyaga ham muhtoj bo'ladilar.

Harakatlanish buzilishlari o'rta darajada bo'lgan bolalar yurishni o'rganib olsalarda, biroq, son bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining yengil shaklida bolalar uyda va ko'chada mustaqil, qo'rqmay yura oladilar, o'zlariga to'la xizmat ko'rsatadilar.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Maxsus pedagogikaning vazifasi nimadan iborat?
2. „Korreksiya“, „korreksion pedagogik faoliyat“ tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Rivojlanishi va xulqida chetlanishlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan qaysi fan shug'ullanadi?
4. Anomal o'quvchilar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
5. „Rivojlanishdagi chetlanishlar“ tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
6. Aqli zaif bolalar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?

3-MAVZU: MAXSUS PEDAGOGIKANING TAMOYILLARI, METODLARI

REJA:

1. Maxsus pedagogikaning tamoyillari
2. Maxsus pedagogikaning metodlari

Tayanch tushunchalar: metod, vosita, kuzatish, tajriba, natija, tahlil, eksperiment, bolalar faoliyat mahsulotlarini o'rganish, hujjatlarni o'rganish, so'rov, pedagogik tajriba, mnemo va rasmi test.

1.Maxsus pedagogikaning tamoyillari


Ta'lim tamoyillari haqida tushuncha

Hozirgi kunda O'zbekistonda didaktika sohasi avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolgan holda yangiliklar bilan boyitilib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda didaktikaga tarbiyadan alohida holda qaral maydi. U yoshlarni tarbiyalashdagi umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Yoshlarga ta'lim berish jarayoni jamiyat taraqqiyoti, fan- texnika taraqqiyoti, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o'zgarishi didaktika tamoyillari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o'zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo'ladi. Barcha fanlarni o'rganishda didaktik tamoyillar muhim o'rin tutadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha "didaktikos" "o'rgatuvchi", "didasko" esa – "o'rganuvchi" manosi bildiradi) ta'limning nazariy jixatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan.

Didaktik tamoyillar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktik tamoyillarga o'qitish va o'qish jarayonida qoidalar sifatida rioya qilinishi

zarur. Ular bir-biriga bog'lanib ketadi,-quyidagi tamoyillar o'qitish va o'qish jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha qoidalar bo'lib, ular uzoq vaqt davomidagi tajribaga asoslangan.



Ta'lim tamoyillari deb,

umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

XV-XVI asrlardagi mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishningmas, balki ahloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Forobiy “Namunali ta'lim” haqidagi risolasida o'quvchilar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni eng yaxshi yo'sinda bayon qilish masalasiga alohida to'xtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan ularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi o'ringa qo'yishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olg'a surishdan iboratdir.

Ibn Sino asarlarida ham didaktikaning tamoyillariga, xususan ko'rsatmali o'qitishga qiziqish bilan qarang.

Ibn Sino dastlabki o'quv mashg'ulotlarida buyumning tashqi xossasini o'rgansa, o'sha buyumni va tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblagan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili aql kuchini rivojlantirishdir.

Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr bo'yi Arastuning kitoblarini o'qisa ham, ularda ifodalangan fanlarning birortasini ham o'zlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsa-da, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan bo'ladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va o'zlashtira olmaydi. Kindiy ana shu fikrlarni bayon qilar ekan, o'qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini nazarda tutgan. Pedagog olimlarning yuqoridagi fikr-mulohazalarini xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, ta'lim tamoyillari (qoidalari) yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o'qitishning xarakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalaridir. So'ngi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta'lim tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- 1.Ta'limning ilmiylik tamoyili.
- 2.Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili.
- 3.Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri.
- 4.Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili.
- 5.Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili.
- 6.Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili.
- 7.Ta'lim jarayonida har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish tamoyili.
- 8.Ta'limda ilmiy bilim va ko'nikma, malakalarni puxta, mustahkam o'zlashtirish tamoyili.
- 9.Ta'limning o'quvchiga mos bo'lish tamoyili.

10. Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili.

Maxsus pedagogikaning tamoyillari

Muayyan maxsus pedagogik tamoyillar o'quv jarayonini qurishning umumiy didaktik tamoyillari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ushbu bog'liqlik va o'zaro bog'liqliksiz bolalarni maxsus o'qitish muammolarini samarali hal qilish, fan usullari, o'qitish usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas.

Ilmiylik tamoyili – o'quvchilarning haqiqiy ilmiy bilimlarni egallashini ta'minlash, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan eng muhim didaktik tamoyillardan biri.

- O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim.
- O'qituvchining taxminiga yoki subyektiv fikriga asoslangan material qo'llanilmasligi kerak.
- Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlaridan foydalanish kerak.
- Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi.
- Buning uchun o'qituvchi o'z ilmiy savyasini izchil ravishda oshirib borishi lozim.

Ilmiylik tamoyili obyektiv tinchlikning tanishishi va inson ongining uning to'g'ri aks ettirish qobiliyati to'g'risidagi nazariyga asoslangan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari oldida o'quvchilarni tarixiy taraqqiyotda ko'rsatish, ilmiy metodologiya bilan tanishish, barqaror ehtiyojni ishlab chiqish va ilmiy bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi bor.

Tizimlilik va izchillik tamoyili. Ta'limda tizimlilik va izchillik – o'quv materialini bayon etish o'rganilayotgan ilmning ichki mantig'iga mos bo'lishi va shu bilan birga o'quvchilarning yosh va yakka tartibdagi psixologik xususiyatlariga javob berishi kerak bo'lgan eng muhim didaktik tamoyillardan biri.

Ta'lim tizimining ahamiyatini ta'kidlab, K.D.Ushinskiy: "Faqat, ma'nodan kelib chiqadigan aqlli tizim bizga bilimlarimiz ustidan to'liq hokimiyat beradi", - deb yozadi. Ta'limda tizimli bo'lish o'quvchilarning ilmiy bilim, malaka va ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda egallashini talab etadi. Bunda muhim didaktik qoidalar e'tiborga olinadi – ma'lumotdan noma'lum shaxsga, oddiydan murakkabgacha o'qitish.

Tizimlilik va izchillik tamoyili tizimlilik kabi muhim fikr kasb etishi bilan yaqin bog'liq. I.P. Pavlov yozganidek, fikr tizimligining asosi bolalar tomonidan o'zlashtiriladigan, buyumlar va holatlar o'rtasidagi haqiqiy aloqalarni aks ettiradi.

Shu munosabat bilan o'qituvchidan bilimlarni bayon etish, o'rganilgan materialni takrorlash, mustahkamlash, tekshirishning qat'iy tizimli va izchilligi talab etiladi. O'quvchilardan esa – o'quv jarayonida tizimli ish ko'nikmalarini ishlab chiqish.

Ta'limning tizimliliigi va izchilligi tamoyilini to'g'ri amalga oshirish bilimlarni teng to'plash va chuqurlashtirishni, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlaydi.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liq tamoyili. Nazariyaning ta'lim olishda amaliyot bilan bog'liqligi – nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va ko'nikmalar bilan oqilona birlashtirishni, umumiy ta'limni mehnat tayyorlash va jamoatchilik faoliyati bilan birlashtirishni talab etuvchi didaktik tamoyil.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi o'qishda keng qo'llaniladi, garchi amaliyotning ahamiyati va o'rni ilmiy bilish jarayonida uning ahamiyati va o'rnidan farq qiladi. Ta'lim olishda amaliyot asosan bolalarning nazariyani tushuntirishini chuqurlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarning haqiqiyiligini mustahkamlash, qo'llash va tekshirish uchun xizmat qiladi. Ta'limda nazariyaning

amaliyot bilan bog'liqligi o'quv fanlarining mazmuni bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarga hayotdagi o'rinini ko'rsatish zarurligi tug'ilgan barcha hollarda qo'llaniladi. Ta'lim mazmuniga qarab, nazariyaning amaliyot bilan bog'liq turli shakllaridan foydalaniladi: ekskursiyalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnati.

Onglilik tamoyili. Onglilik tamoyili – o'quvchilarning bilim va malakalarni taniq o'rganishi va qo'llashini, ularning o'rganish zarurligi va o'rganilayotgan materialning ahamiyatini tushuntirishini ta'minlaydi.

Mazkur tamoyil o'quvchilarning faolligi, tashabbusi va mustaqilligi bilan to'g'ri bog'liq. Onglilik tamoyilining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning ta'lim foydasini tushunishi; o'quv materialini aniq qabul qilish; ta'limda shaxsiy tajriba va kuzatuvlardan foydalanish. Hech qanday maqsadni amalga oshirishdan oldin, bolada bo'lib o'tadigan harakatlarning asosiy vazifalari va ularning natijalarini fikrlash zarur. Bilimlarni ongli o'zlashtirish haqiqiy materialni to'g'ri tushuntirishdan boshlanadi, bu esa bolalarda fikr faoliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi, ular yordamida ilmiy tushunchalar shakllantiriladi, holatlarni tahlil qilishdan kelib chiqadigan qonunliklar tanishunlanadi. Onglilik tamoyiliga katta darajada faol qarash boshqa didaktik tamoyillarni amalga oshirish, ayniqsa, ta'lim olib borishda qulay bo'lishi va nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi bilan bog'liq.

Ko'rgazmalilik tamoyili – o'quvchilar tomonidan bevosita qabul qilingan aniq namunalar asosida quriladigan didaktik tamoyil.

Ko'rgazmalilik tamoyilini birinchi marotaba Y.A.Komenskiy nazariy jihatdan asoslagan. U birinchi marotaba "oltin qoida" ni shakllantirgan bo'lib, unda "ko'rish uchun ko'rinadigan – ko'rish, eshitish, ehtiyoj bilan tutiladigan – ehtiyoj, ehtiyoj bilan ehtiyojni ta'minlash zarur". Ta'limda ko'rgazmalilik o'quvchilarda atrof dunyodagi buyumlar va holatlarni qabul qilish natijasida fikr, tushunchalar shakllanib, fikr va so'zlar rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ko'rgazmalilikdan foydalanish darajasi ta'limning turli bosqichlarida turlichadir. Sensor tajribani boyitish, fikrlarni aniqlashtirish va ko'rinishli fikrlashni rivojlantirish amalga oshirilayotgan boshlang'ich sinflarda undan eng to'liq foydalaniladi. O'rta va yuqori sinflarda ko'rsatkichli logik fikrlashning yuqori darajasini talab etadigan nazariy bilimlar bilan birlashadi.

Quyidagi ko'rinish turlari: tabiiy (buyumlar, obyektlar, predmet, hodisalar), tasviri (rasmlar, chizmalar, sxemalar, grafikalar, diagrammalar va boshqalar), hajmiy (geometrik figuralar va jismlar, mulyajlar), shartli va ramziy (xaritalar, globus va boshqalar), modellar va maxsus asblar (tok va kuchlanish miqdorini o'lchash va boshqalar).

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishda ko'rgazmalilik tamoyilini to'g'ri qo'llash muhim ahamiyatga ega. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishda ko'rgazmalilik ularning ta'lim imkoniyatlari va estetik tarbiyasini rivojlantirishning o'ziga xos vositasi bo'lib, atrof dunyo haqida yangi bilim va fikrlarni shakllantirish manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Soddalik tamoyili. Ta'limning soddalik tamoyili ta'lim jarayonining shunday qurilishini ko'zda tutuvchi didaktik tamoyil bo'lib, unda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari hisobga olinadi. Ushbu tamoyilga muvofiq pedagogik asoslangan dasturlar, darslik, o'qitish usullari ishlab chiqilmoqda. Eslatib o'tish joizki, berilgan materiallar soddadan murkkabga, og'ir ma'lumotdan yengil ma'lumotga o'tishi lozim. Ta'limning soddaligi yosh, ta'lim imkoniyatlarining rivojlantirish darajasi, bolalarning emotsional-erk sohasi va salomatligi bilan bir qator omillar bilan belgilanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda nuqsonlarning klinik shakllari, etiologiya va patogenez, ta'lim faoliyatining xususiyatlari, bolalarning kompensator imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Maktab o'quvchilari oladigan vazifalar ularning imkoniyatlaridan murakkab bo'lmisligi kerak.

Qat'iy bo'lmagan vazifalar natijalarning kamayishiga olib keladi, bolalarning rivojlanishini kechiktiradi, mustaqilligini kamaytiradi, ishonchsizlikni rivojlantiradi, ta'limga nisbatsiz qarashni uyg'otadi. Mashg'ulotlarning hajmi va murakkab bo'lishi bolalarning umumiy somatik holatining keskin kamayishiga va yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchiga bo'lgan talablarning kamaytirilishi o'z-o'zini ishonch bilan ta'minlash orqali mashg'ulotlarga qiziqishni shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muvaffaqiyatga ixtisoslashmaslik, uni tizimli mehnatda tashkiliy ravishda o'tkazish zarur.

Bilim, malaka va ko'nikmalarning mustahkamligi tamoyili. Bilim, malaka va ko'nikmalarning mustahkamligi – o'quv materialini o'zlashtirishning asosligini, uni o'quvchilar xotirasida barqaror mustahkamlashni, erkin o'rnatish va amaliyotda qo'llashni bildiradigan didaktik tamoyil.

Bilim shunchalik mustahkam, o'quvchilarning faoliyati bilan qancha bog'liq bo'lsa, sensor tajriba, ko'rgazmali namunalar va yaqqol misollar zaxirasi qanchalik boy va turli bo'lsa, holatlar o'rtasida yanada aloqalar o'rnatiladi.

Mustahkam bilimlarning asosi – ularning tizimligi va izchilligidir. Bu yoki bu ilmiy asoslangan tizimga birlashtirilmagan bilimlar o'quvchilar tomonidan katta mehnatga ega bo'lmaydi.

Pedagogikada mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular jarayonida mexanik o'qish elementlari logik esga olishga bo'ysunadi. Faqat ma'lumotli material o'qishga tatbiq etiladi, deb hisoblanadi. Faol takrorlashni tashkil etish katta ahamiyatga ega, bunda o'quvchilar mustaqillik ko'rsatishi, adabiyot, hayot va shaxsiy tajribadan olingan bilim va faktlardan foydalanishi muhim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablari uchun amaliy mashg'ulotlar va fan-amaliy faoliyatda o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda bu sensor soha, nutq, fikr va xotira rivojlantirish orqali erishiladi.

Individual va differensial yondashuv tamoyili. Ta'lim olishda yakka tartibdagi, differensial yondashuv – mamlakatimiz pedagogikasi tamoyilidir, unga muvofiq bolalar jamoasi bilan o'quv ishlarida uning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir bolaga pedagogik ta'sir ko'rsatiladi.

Zamonaviy pedagogika har bir o'quvchini muvaffaqiyatli o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlash uchun o'quvchilarning jamoaviy o'quv ishlarini alohida o'quvchilarga individual tartibdagi yondashuv bilan birlashtirish zarurligidan kelib chiqadi. Shu munosabat bilan o'qituvchining vazifasi bilim, malaka va ko'nikmalarni o'qitish maqsadida bolalar jamoasi (sinf, guruhi) tashkil etishdan iborat. Shu bilan birga, o'qituvchi har bir o'quvchining individual tartibdagi xususiyatlarini bilishi, ularning har biriga yondashuv topishi kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojlari tamoyili har bir bolani har tomonlama o'rganish, muvaffaqiyatning sabablari, xususiyati va og'irlikini, uni yaratish vaqtini, psixik va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini, inobatga oladi.

O'quvchilarni har tomonlama o'rganish – har bir bolaga to'g'ri pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosidir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda olib boriladigan korreksion mashg'ulotlar (davolavchi jismoniy tarbiya, logopediya, predmet tasavvuri va ko'ruv idrokini rivojlantirish) individual va kichik guruhda olib boriladi.

Korreksion-kompensatsion tamoyili. Ushbu tamoyil o'quvchining sog'lom kuchlariga tayanishni, rivojlanishning yetishmasligi tabiatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq (ya'ni tabiatga mos) saqlanib qolgan analizatorlar, tana funksiyalari va tizimlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini qurishni o'z ichiga oladi. Psixik va jismoniy rivojlanishning nuqsonlarini korreksiyalash qaratilgan ish (masalan, nutqdagi kamchiliklarni, ixtiyoriy harakatlarni, fazoda mo'ljal olish), kompensatsiyalsh jarayoni uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning ta'limi va rivojlanishi shu tariqa uning o'ziga xos tabiiy imkoniyatlariga muvofiq va ularning asosida quriladi. Fiziologiyadan

yo'qolgan funksiyani (analizator, organ yoki tana tizimi) boshqa saqlanganlarni qayta qurish orqali ma'lum kompensatsiya qilish imkoniyati ma'lum. Shuning uchun Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani shakllantirish jarayoni saqlanib qolgan funksiyalarga asoslangan holda quriladi. Ko'pincha bu umumiy qabul qilingan me'yorlar nuqtai nazaridan g'ayrioddiy almashtirish (yoki kompensatsiya), ammo inson tanasining kompensatsion imkoniyatlari shunchalik katta va xilma-xilki, maxsus pedagogikada kompensatsion yondashuvlarning kuchli arsenal mavjud bo'lib, u odamga umidsiz ko'rinadigan vaziyatlarda pedagogik yordam ko'rsatishga imkon beradi. Ko'zi ojiz bolalarning barmoq uchlari bilan o'qishni o'rganishlari, eshitishida nuqsoni bo'lganlar ma'ruzaachining lablari orqali ularga murojaat qilgan nutqni tushunish va imo-ishora tilida to'liq muloqot qilishi, qo'llari bilan harakat qilish qobiliyatini yo'qotgan bolalar yozish, tikish va to'qish, tananing boshqa qismlarining funksiyalaridan foydalangan holda amalga oshirishidir.

Pedagogik optimizm tamoyili. Bu tamoyil, bir tomondan, ko'rishida nuqsoni bo'lgan insonlarning salohiyati haqidagi zamonaviy ilmiy va amaliy bilimlar darajasiga bog'liq, boshqa tomondan (E.P.Sineva, S.V.Fedorenko) ushbu toifadagi shaxslarni abilitatsiya va rehabilitatsiya qilishning zamonaviy pedagogik imkoniyatlari haqidagi g'oyalardir. Ushbu tamoyil zamonaviy dunyoqarashga asoslanadi, u har bir insonning, ularning xususiyatlari va cheklangan hayotiy imkoniyatlaridan qat'i nazar, ta'lim jarayoniga qo'shilish huquqini tan oladi.

Erta pedagogik yordam tamoyil. Zamonaviy maxsus pedagogika bolaning rivojlanishidagi og'ishlarni iloji boricha tezroq aniqlash va tashxislashni va bu jarayonga maxsus pedagog (defektolog)larning erda aralashuvini ta'minlash uchun muvaffaqiyatli korreksion va pedagogik yordamning asosiy shartlaridan birini ko'rib chiqadi. Zamonaviy maxsus pedagogika bolaning rivojlanishidagi birlamchi buzilishni aniqlash va maqsadli tuzatish va pedagogik yordamning boshlanishi o'rtasidagi tafovutni maksimal darajada kamaytirishni nazarda tutadi. Erta aralashuv miya va psixikaning shakllanishi haqidagi ilmiy kashfiyotlarga


asoslangan. Ma'lum bo'lishicha, yangi tug'ilgan bolada boshqa odamlar bilan muloqot qilishning murakkab dasturlari, shuningdek, atrof-muhitni kuzatish va tadqiq qilish dasturlari mavjud.

Ta'limning ijtimoiy-moslashish tamoyili. Rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalash, kompensatsiyalash maxsus pedagog (defektolog) tomonidan o'z-o'zidan maqsad sifatida emas, balki nogiron kishiga ijtimoiy hayotda maksimal mustaqillik va mustaqillikni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi, chunki rivojlanishdagi og'ishlar birinchi navbatda bolaning ijtimoiy munosabatlarini buzilishidir. E.P.Sineva, S.V.Fedorenkolarning nazariyasiga ko'ra maxsus pedagogikaning ijtimoiy moslashuvchan yo'nalishi "ijtimoiy yo'qotish" ni yengish yoki sezilarli darajada kamaytirishga, insonni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy muhitda ijtimoiy kompetensiya va hayotga psixologik tayyorgarlikning turli tuzilmalarini shakllantirishga, rivojlanishning yetishmasligi va imkoniyatlarning cheklanishi ijtimoiy joyni topishga yordam beradi. Mustaqil ijtimoiy va moliyaviy jihatdan munosib turmush tarzini olib borishga imkon beradigan kompensatsiya. Maxsus ta'limning ijtimoiy-moslashish o'quvchining ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan xulq-atvor va hayotiy faoliyat normalarini o'zlashtirish uchun uzoq muddatli va murakkab tuzatish, pedagogik va psixologik ish tizimini ta'minlaydigan tuzatish va o'quv jarayonining standartlari, shakllari va vositalarining mazmuni bilan ta'minlanadi. Ijtimoiy hayot, shuningdek, boshlang'ich gigienik va murakkab ijtimoiy - axloqiy, axloqiy, falsafiy va shunga o'xshash narsalar bilan tugaydigan tegishli ko'nikma va odatlarni rivojlantirish.

2.Maxsus pedagogikaning metodlari: suhbat, kuzatish, tajriba, faoliyat va hujjatlarni o'rganish

Bugungi kunda aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e'tibor berilyapti.

Maxsus pedagogika o'z faoliyatini quyidagi metodlar orqali amalga oshiradi:



Kuzatish metodi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvini o'rganishda bilvosita va bevosita kuzatish qo'llaniladi. Bilvosita kuzatish pedagog tomonidan maqsad qilib olingan bo'lsa, asosan, bolaning oilasi bilan yo'lda yurishi, atrofdegilarga munosabati orqali amalga oshiriladi. Biroq amaliyotda bevosita kuzatib o'rganish ko'proq qo'llaniladi. Pedagog yoki tekshiruvchi psixolog bolalarning turli xil faoliyatlarini tabiiy sharoitda tizimli tarzda kuzatadi. Bunda bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlariga doir xarakterli vaziyatlar qayd qilib boriladi. Har qanday kuzatishning aniq maqsadi bo'lishi kerak.

Boshqacharoq qilib aytganda, pedagog bolalarning xulq-atvori yoki xatti-harakatlariga doir nimalarni kuzatmoqchi ekanini oldindan aniqlab olishi kerak. Masalan, bolalar diqqatining barqarorligini yoki tafakkur jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan analiz qila olish qobiliyatlarini kuzatishni oldindan bilib, kerakli yo'naltirishlarga tayyor turish lozim. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, kuzatish tabiiy sharoitda olib borilar ekan, alohida yordamga muhtoj bolalar o'zlarining kuzatilayotganliklarini bilishi yoki mutlaqo bilmasliklari ham mumkin. Kuzatish bolalarga yaqin bo'lgan, ya'ni pedagog, tashkilot psixologi yordamida bo'lgani ma'qul. Agar kuzatishni bolalar ko'zi oldida begona odam o'tkazsa, bolalarning xatti-harakatidagi tabiiylik buziladi. Ularning xulq-atvorlari va xatti-harakatlarini begona kishi kuzatishiga to'g'ri kelsa, yashirin kuzatish metodlaridan foydalanish lozim. Bunda kuzatuvchi bolalarga ko'rinmaydigan joydan turib kuzatadi.


Bolalar maxsus pedagogikasida kuzatish metodidan foydalanilganda, bolalarning turli o'yin faoliyatlari, didaktik mashg'ulotlari va qurish-yasash hamda ijodiy mashg'ulotlarida xilma-xil psixik jarayonlarining namoyon bo'lishi va qancha davom etishi kabi jarayonlarni qayd qilish mumkin. Bundan turli yoshdagi bolalarni bir-biriga taqqoslab, ulardagi psixik jarayonlarning taraqqiyoti o'rganiladi.

Kuzatish metodi – uzluksiz va bu faoliyatni tanlab vaqti-vaqti bilan o'rganilganda ularning barcha fe'l-atvorlari va xatti-harakatlari kundalik faoliyatlari davomida umumiy holda o'rganiladi. Uzluksiz kuzatish bir necha kun

yoki bir necha oy davom etgandan so'ng to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, bolaga psixologik tavsifnoma berish mumkin bo'ladi. Vaqti-vaqti bilan tanlab kuzatilganda, bolaning barcha xulq-atvori va xarakterlari emas, balki faqat ma'lum harakatlari, ya'ni diqqati yoki xotirasi, nutqi bilan bog'liq bo'lgan tomonlari o'rganiladi.

Maxsus pedagogikada bolalar faoliyatini kuzatishning alohida turi – bolalar taraqqiyotini tizimli tarzda kundalik rejalar, ular asosida maxsus topshiriqlar tuzib o'rganishdan iborat. Bolalar psixik taraqqiyotini o'rganishda qo'llaniladigan kuzatish metodi tashqaridan qaraganda juda osondek tuyulsa-da, pedagogdan ma'lum vaqt va kabsiy motivatsiya va kompetentsiya talab qilingan murakkab metoddir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvini o'rganishda qo'llaniluvchi metodlardan yana biri **eksperimentdir**. Eksperiment metodi kuzatish metodiga nisbatan faol va tarkibli metod hisoblanadi.



Bunda eksperimentator o'rganayotgan psixik jarayonlarni bolalarda bir necha marta yuzaga keltirib o'rganadi. Biz umumiy korreksion pedagogikadan bilamizki, eksperiment metodi 2 xil bo'ladi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment.

Bolalar maxsus pedagogikasida eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi oila, mahalla va ta'lim tashkilotida kechadigan hayot tarzi bilan bog'liqligi sababli bolani o'rganishning ilk qadami bu oilasi bilan **suhbatdir**.

Alohida yordamga muhtoj bolaning onasi bilan suhbat asosan quyidagi savollar asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Bolada ushbu nuqsonning paydo bo'lishiga oid savollar:

- Homiladorlikning kechishi, homiladorlik davrida onaning boshidan kechirgan kasalliklari, og'ir kechgan toksikozlar, intoksikatsiyalar, mexanik jarohatlar, zararli ishlab chiqarishda mehnat faoliyati va hokazolar;
- Tug'ruq jarayoni qanday kechgani, tug'ruq vaqtidagi turli patologik holatlarning mavjudligi;
- Chaqaloqlik davrida bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlar kuzatilganmi, ota-onaning boshqa bolalari yoki tanigan-bilgani bola hayotiga nisbatan qiyosiy fikrlari;
- Bolaning boshini qachon ushlagani va emaklash payti, o'yinchoqlarga qarashi, ularni bilishi, yaqinlarini tanishi, o'tirishi, tik turishi, necha oylikdan yurgani yoki yurishga harakat qilgani, ilk so'zlari va muloqotga kirishish harakatlarining namoyon bo'lishi.

2. Bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishishiga oid savollar:

- Bola atrofdagilar bilan qanday munosabatga kirishadi, tez yoki sekin yoki umuman gaplashmaydimi?
- Xohishini qanday bildiradi? Injiqlik qilmaydimi?
- So'ragan narsasi tayyor bo'lmasa, qanday holatga tushadi, jahlini namoyon qiladimi yoki sabr bilan kutadimi?
- U-bu narsalarni so'rash uchun harakat qiladimi? Qiziqadimi?

3. Bolaning bolalar bilan o'ynashiga oid savollar:

- Birga o'ynashga qiziqadimi? Yo yolg'iz o'ynaydimi?

- b) O'yin vositalari va qoidalarini anglab yetadimi?
- s) O'yinchoqlarni joyiga qo'yadimi? Ularning qismlarini biladimi?
- d) O'yinning boshi va oxirini biladimi yoki stixiyali o'ynaydimi?

4. Maishiy hayot va salomatlikka oid savollar:

- a) Uy yumushlarini tushunadimi?
- b) Oshxona jihozlaridan foydalanadimi? Mustaqil ovqatlanadimi?
- s) Kiyimlarini kiya oladimi, joyiga qo'yadimi, farqlaydimi?
- d) Hojatxonadan mustaqil foydalanadimi?

Suhbat - suhbat metodidan maxsus korreksion pedagogika va pedagogikada pedagog va oilalar hamkorligida keng qo'llaniladi. Chunki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda tez o'zgaruvchan psixologik holat sababli pedagoglarning erishgan ta'limiy yutuqlari qisqa muddatda o'z natijasini yo'qotishi mumkin. Shunday paytlarda pedagoglarning ota-onalar bilan olib borgan suhbatlari asosida bola yutuqlarining portretini yaratish talab etiladi. Ushbu portret bolaning umumiy rivojlanishida tayanch mezon sifatida qo'llaniladi, keyingi rivojlanish uchun reja tuzishga asos bo'ladi. Bu metodni kichik maktabgacha yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan deyarli qo'llab bo'lmaydi, chunki bu yoshdagi bolalarda hayot tajribasi juda oz, nutqi hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli kichik yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar kattalarning bergan savollariga o'ylamay-netmay javob qaytaraveradilar. So'rash metodidan foydalanilganda odatda juda soddashlangan o'yinchoqlar, rasmlar, ayiqchalar, binolar maketlari, daraxtlar va hakazolardan foydalanish talab etiladi.

Amaliyotda ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning "nimani biladi?, nimalarni farqlaydi?, qanday harakatlarni bajaradi?" degan savollar asosida tekshirishga ustuvorlik beriladi. Aslida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola uchun muhim omil uning ijtimoiy moslashuvidir. Shuning uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tekshirishning optimal natijalarini baholash mezonlari sifatida aynan hayotiy ko'nikmalarning shakllanganligini kiritish lozim.

Maktabgacha yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani kuzatish vaqtida psixolog bolaning psixik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini tavsiflaydigan ba'zi bir tomonlarni, masalan, yangi sharoitga, notanish odamlarga bo'lgan reaksiyasini, aloqaga kirishish xususiyatlarini, aloqa qilishda verbal vositalardan foydalanishi, atrofga bo'lgan qiziqishining namoyon bo'lishi, onaning bolaga bo'lgan munosabati, hissiy o'zaro ta'sir xarakteri, qo'zg'aluvchanligi, tez charchashligi va hokazolarni e'tiborga oladi.

Bolaning psixik rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, psixikadagi buzilishlarning darajasi va o'ziga xos tomonlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash ham maqsadga muvofiqdir. Bu metod ko'p hollarda yangilikni tatbiq etishda yoki bir bolaga nisbatan qo'llaniluvchi yondashuvning samaradorligini o'rganishda ta'limiy eksperiment ko'rinishida o'tkaziladi. Ta'limiy eksperiment metodini bolaning aqliy, nutqiy, jismoniy-fiziologik rivojlanishidagi dinamik o'zgarishni aniqlash maqsadida qo'llash mumkin. Mazkur metod tuzilishiga ko'ra bir qancha qismli va qo'shimcha vositalarga ega bo'lishni nazarda tutadi. Tekshirish jarayonida quyidagi yordam turlaridan foydalaniladi: ko'rayotgan yoki pedagog tomonidan bajarilayotgan harakatni taqlid asosida bajarish, harakatni taqlid asosida takrorlayotganda hissiyotini sezdirish, nutqiy buyruqlarni tushunib bajarishga o'rgatiladi.

Ta'limiy eksperiment orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ijtimoiy moslashuvini o'rganish ya'ni bolaning noadekvat harakatlardan adekvat harakatlarga o'tishi uning saqlangan potentsial (ichki) imkoniyatlari mavjudligidan darak beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda hayotiy ko'nikma va malakalarni tarkib toptiruvchi eksperiment ham amaliyotda keng qo'llanishga tavsiya etiladi. Uning mohiyati shundan iboratki, bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda u yoki bu psixologik xususiyat maqsadli shakllantiriladi, buning uchun takroriy yondashuvlar, xotira mashqlari, o'yinli yo'riqnomalardan foydalaniladi. Masalan, kichik maktabgacha yoshidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar

ayni bir vaqtning o'zida butunni va uning qismlarini to'la idrok qilolmaydilar. Ular o'z diqqatlarini bir butun narsaning o'ziga yoki uning qaysidir (odatda rangli) bo'laklariga qaratadilar. Ular bir butun narsaning ayrim qismlardan tarkib topganligini tasavvur qila olmaydilar. Tarkib toptiruvchi eksperiment alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni bir butun narsa va uning qismlarini bir paytda idrok qilishga tayyorlaydi. Bunday eksperiment o'tkazishda turli geometrik shakllar va ularning bo'laklaridan foydalanish mumkin (doira, kvadrat, kub, oval va b).

Tarkib toptiruvchi eksperiment metodini pedagogik eksperiment metodidan farqlash kerak. Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali turli yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni u yoki bu narsalarni to'g'ri idrok qila olishga o'rgatilsa, pedagogik eksperiment orqali esa biror ta'lim-tarbiya metodining samaradorligi aniqlanadi. Masalan, biror tadqiqotchi bolalarga son-sanoqni o'rgatishning qandaydir metodini ishlab chiqqan bo'lsa, uni pedagogik eksperiment orqali sinab ko'radi.

Bola faoliyatlarining natijasini o'rganish metodi. Ushbu metod alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi darajasini o'rganishda samarali metodlardan hisoblanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga rasmlar taqdim etiladi. Shtrixli rasmlar beriladi. Ularda meva va sabzavotlar rasmi aks etgan bo'ladi.

Topshiriq: chiziqlarni mos ranglarda ulang.

Agar bolalar mevaga mos rang tanlamasdan boshqa rangni tanlab chiziqlarni ulashga kirishsa, namuna rasm beriladi. "Qara, sabzi qanday rangda bo'lsa, shu rangni ol va chiziqlarni ula" topshirig'i beriladi. Shu tarzda topshiriqlar murakkablashtiriladi.

Masalan, ayiqning boshini top va mos rangga bo'ya. Bola tana a'zolarini bilsa, ayiq boshini topadi, agar bilmasa, pedagog birgalikda ishlaydi. Shu tartibda bolada bosh tushunchasi shakllanadi. Bosh so'zini hayotda uchratganda tushunishga erishiladi.

Har bir bolaning bajargan ishlarini tahlil qilish ham ular haqida psixologik portret yaratish imkonini beradi.

Faoliyat natijasini o'rganish metodi haqida gap borar ekan, shuni aytish kerakki, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'lsalar, bolalar o'z faoliyatlarida deyarli ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaydilar. Bog'cha yoshidan bolalarning faoliyatlari – o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biror narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bolalar odatda, katta kishilarning topshiriq va takliflari bilan ma'lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim hollardagina bolalarning o'zlari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma'lum natijaga ega bo'ladi. Ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar faoliyatining mahsuloti ular chizgan rasmlarga, loy yoki plastilindan yasalgan narsaga qarab o'rganiladi. Ko'pincha bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va ongida yuzaga kelayotgan turli tasavvurlar hamda atrofdagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Ana shu jihatdan bolalarning chizgan rasmlaridan faoliyat mahsulotini o'rganish sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha kichik yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning chizgan rasmlarini tahlil qilish orqali ularning ayni paytdagi ehtiyojlarini, mayl-istaklari, qiziqishlari, qobiliyat va layoqatlarini o'rganish mumkin.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'rganishda so'nggi yillarda qo'llana boshlagan metodlardan biri test metodidir. Test so'zi inglizcha so'z bo'lib, u – o'lash degan ma'noni bildiradi. Test metodi orqali aqli zaif bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari va ayrim psixik jarayonlarning (tafakkur, xayol, xotira kabi) qanchalik rivojlanganligi yoki ortda qolyotganligi aniqlab, taqqoslanadi. Test metodi yordamida bolalarning o'z yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganliklarini ham aniqlash mumkin. Masalan,

test metodida – bolalarga topshiriladigan vazifalari bir necha variantda bo‘lib, ular kuchlari yetgan variantdagi vazifalarni bajaradilar. Har bir bajariladigan vazifa uchun rag‘batlantiriladi. Vazifalardan qanchasi bajarilganligi va to‘plagan rag‘batlantirishlariga qarab, bolalarning o‘rtacha taraqqiyoti belgilab beriladi.

Maxsus ta‘lim tashkilotida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nisbatan qanday testlardan foydalanish mumkin? Bunday testlar xilma-xil bo‘lishi mumkin. Agar test vazifalari bolalarning o‘yin faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, bolalar bunday vazifalarni bajonidil bajarishga kirishadilar. Masalan, biror butun narsaning mayda bo‘laklarga ajratib tashlangan qismlarini birlashtirish, katta va kichik narsalarni farqlash, applikatsiyalar yasay olish, turli vazifalarni topa bilishi uchun testlardan foydalanish mumkin.

Sizga amaliyotda foydalanish uchun testlar variantini tavsiya qilamiz:

“Rasmi test”, “Mnemotest” kabilardir.

“Mnemotest”lar bolalarga berilgan savol yoki topshiriqni eslatuvchi qo‘shimcha belgi yoki rasmdan foydalanish hisoblanadi. Masalan, bolaga “ovqatlanishdan oldin nima qilish kerak?” savoli berilsa va bola javob berishga qiynalsa, 1-urinish uchun suv rasmi, 2-urinish uchun kran yonida sovun rasmi, 3-urinish uchun qo‘l yuvayotgan odam rasmi taqdim etiladi. Shunda ham bola kerakli reaksiyani ko‘rsatmasa, unda uning qo‘lidan ushlab kerakli rasmga olib kelinadi va harakat ham bajariladi. Aqli zaif bolalar bilish faoliyati turg‘un buzilganligi bois, ularga doim biron narsani o‘rgatishda shablonli tayanch yondashuvlar talab etiladi.

Shuning uchun **“Rasmi test”** orqali bolalarning hayotiy ko‘nikma va malakalarini aniqlashga erishish mumkin.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaga 3 xil rasm beriladi. Keyin savol beriladi.

Masalan, qara Olim kuchli chunki u

Lolani onasi va o‘rtoqlari yaxshi ko‘radi, chunki u ...

Shu kabi syujetli va predmetli rasmlardan foydalangan holda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning hayotiy ko‘nikma va malakalari shakllanganligini o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

Pedagogik tajriba (eksperiment lotincha „sinab ko‘rish“, „tajriba qilib ko‘rish“) metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganishni kafolatlay olishi, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosi bo‘la olishi, hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma‘lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay olishi hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- 3) tadqiqot obyektlari va usullarining to‘g‘ri tanlanishi;
- 4) tajriba o‘tkazilish vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi;
- 5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- 6) tajriba ma‘lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi..

Hujjatlarni o‘rganish – alohida yordamga muhtoj bolaga tegishli bo‘lgan hujjatlar-kasallik tarixi, tibbiy nazorat daftari, o‘quvchining ish daftarlari, bajargan ishlari, maxsus maktabning ma‘muriy, metodik, tashkiliy hujjatlari o‘rganiladi va ko‘zlangan maqsad doirasida xulosalar chiqariladi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Maxsus pedagogika metodlarini sanang.
2. Suhbat metodini izohlang.
3. Bolalar faoliyat natijalarini o'rganish metodi orqali qanday natijaga erishiladi?
4. Pedagogik tajriba metodi qanday maqsadda foydalaniladi?
5. Alohida yordamga muhtoj bola hujjatlarini o'rganib xulosa yozing.

4-MAVZU: O'ZBEKISTONDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TASHKIL ETILGAN TA'LIM TURLARI

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilish
2. Maktab yoshidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlariga jalb qilish
3. Bolaning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi

***Tayanch so'zlar:** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar (jismoniy, ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar), ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, maktab-internatlar, alohida yordamga muhtoj bolalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar.*

1. Maktabgacha yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilish

Maktabgacha yoshdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ko'p tarmoqli ta'lim tashkilotiga jalb qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarorning (<https://lex.uz/docs/-4333062>) III bobi asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

- ✦ nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ✦ eshitishida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ✦ ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ✦ psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ✦ aqli zaif bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ✦ tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar bolalarning toifasi va yoshiga qarab ajratiladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:

- kar tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar, ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- zaif eshituvchi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar, ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;
- ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar, ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- zaif ko'ruvchi yaxshi ko'rmaydigan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar, ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;
- tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 15 nafar, ko'pi bilan 18 nafar tarbiyalanuvchi;
- gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar, ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;
- bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar, ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar, ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

o'rta darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 6 nafar, ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

➤ nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar, ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

➤ autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar, ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

➤ psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar, ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

➤ murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar, ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda psixolog, tibbiyot va pedagog xodimlaridan iborat PTPK tuziladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning PTPK si:

✓ bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqadi;

✓ individual yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi;

✓ korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi;

✓ bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda bo'lgan muddat davomida uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi;

✓ PTPK xulosasida ko'rsatilgan bolaning o'qish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan

maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda o'qish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilotlarda o'qishini davom ettirish yuzasidan uni PTPK ga tekshiruvga yuboradi.

Bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlardan quyidagilar asosida chiqariladi:

✓ bolani qonuniy vakillarining arizasi;

✓ sog'liqni saqlash organlarining tibbiy ko'rsatmalari;

✓ maktabgacha ta'lim tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma shartlarining bajarilmasligi;

✓ maktabgacha ta'lim tashkilot PTPK ning xulosasi;

✓ PTPK ning xulosasida ko'rsatilgan bolaning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda o'qish muddati tugashi;

✓ maktab yoshiga yetishi (7 yosh).

2. Maktab yoshidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlariga jalb qilish


Maktab yoshidagi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar)ni tashkil etish va u yerga bolalarni joylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'risida"gi 638-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya berish, korreksiyalash va davolash-sog'lomlashtirish muassasalari hisoblanadi hamda jismoniy yoki psixik rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish, shuningdek, ijtimoiy

yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ularga ta'lim berishda yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'risida"gi 638-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi tashkil etish to'g'risidagi qaror hududiy xalq ta'limi boshqarmalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalarining ijobiy xulosalari mavjud bo'lgan taqdirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan bir hafta muddatda qabul qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi turlarga bo'linadi:



Zarur hollarda I va II turlar, shuningdek, III va IV turlar aralash holdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilishi mumkin.

Aralash turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etishda kar va zaif eshituvchi (keyinchalik kar bo'lgan) bolalar, ko'r va zaif ko'ruvchi

(keyinchalik ko'r bo'lgan) bolalar sinflari bo'yicha ta'limni alohida olib borish majburiy shart hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktab-internatlar) huzurida bolalarni maktabga tayyorlash maqsadida bir yil muddatli tayyorlov guruhleri tashkil etilishi mumkin. Tayyorlov guruhlarida bolalarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida olib boriladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar soni 250 nafardan oshmasligi kerak.

O'quvchilar soni 250 nafardan oshishiga sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining o'quvchilar bilan to'ldirilish sig'imidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda vazirlikning roziligi asosida yo'l qo'yiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari:

❶ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan (aqli zaif bolalar uchun) maxsus ta'lim talablariga muvofiq bilim olishlarini ta'minlash;

❷ shaxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning eng maqbul rivojlanishini ta'minlash maqsadida tabaqalashtirilgan va individual ta'limni tashkil etish;

❸ shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotida va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash

❹ o'quvchilarni umumta'lim muassasalarida inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim sharoitida o'qishga tayyorlash;

❺ o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishlari, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion (tuzatuvchi) – rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

❻ o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning psixik funksiyalari va salomatligi tizimli tarzda kuzatilishini tashkil etish.

O'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarorining 4-ilovasiga muvofiq – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan maktab yoshidagi, tayyorlov guruhlariga esa – ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnamagan – maktabgacha yoshdagi bolalar qabul qilinadi.

1. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga bolalar 7 yoshdan boshlab, tayyorlov guruhlariga esa 6 yoshdagilar qabul qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborish hududiy xalq ta'limi boshqarmalari huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o'rinlarda – PTPK) xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

PTPK yo'llanmasi bolalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilinishiga asos hisoblanadi.

3. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib o'qish istagini bildirgan bolalar bolani qabul qilayotgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi joylashgan hududning PTPK yo'llanmasiga asosan qabul qilinadi.

4. Bolalarni qabul qilish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

5. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yo'llangan har bir bolaga ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (chin yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun – vasiylik va homiylik organlari) tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va taqdim etiladi.

Bolaning shaxsiy hujjatlar yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:	
1	ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi
2	PTPK xulosasi
3	ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun)
4	o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, bolaga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun)
5	bolaning yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma
6	Pediatr tomonidan berilgan bolaning umumiy rivojlanish holati to'g'risidagi xulosa
7	psixonevrologning tibbiy tashxisi va bolaning aqliy rivojlanishiga tavsifi
8	otorinolaringologning quloq, tomoq, burun va talaffuz artikulyatsiyasida ishtirok etuvchi organlarning holatiga tavsifi (eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun – so'zlashuv nutqi va shivirlab aytilgan so'zlarni idrok etish holati to'g'risidagi ma'lumotlar, audiogramma ma'lumotlari)
9	oftalmologning ko'rish organiga tavsifi (ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun batafsil tashxisi)
10	ortoped vrachning xulosasi (tayanch-harakatlanish apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun)

6. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yo'llangan chin yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun shaxsiy hujjatlar yig'ma jildida mazkur Nizomning 20-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari yana quyidagi hujjatlar ham bo'lishi kerak:

- 1 tuman (shahar) hokimining bolaga vasiy (homi) tayinlash yoki uni ta'lim muassasasiga joylashtirish haqidagi qarorining nusxasi
- 2 ota-onalar va ularning o'rmini bosuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar (ota-onalarning pasport nusxalari yoki ularning vafoti haqidagi guvohnoma nusxasi, sudning hukmi yoki qarori, ota-onasining surunkali kasalligi yoki qidiruvda ekanligi, ota-onasining yo'qligi yoki ularning o'z farzandlarini tarbiyalay olmasligi haqidagi hujjatlar)
- 3 bolaning ota-onasidan qolgan mulki (agar bo'lsa), uning qayerdaligi, uni saqlash uchun amalga oshirilgan choralar va bunga mas'ul shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan mulk ro'yxati
- 4 bolaga turar joy biriktirilganligi to'g'risidagi hujjatlar (dalolatnoma, uy daftari, turar joy chizmasi nusxalari, turar joyning egasi va xususiyashtirilganlik holati to'g'risida tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limidan ma'lumotnoma)
- 5 pensiya oluvchi bolalarning pensiya daftarchasi, bola foydasiga aliment undirish haqidagi sud qarori, omonat daftarchasi

7. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (karlar, zaif eshituvchilar, keyinchalik kar bo'lgan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rlar, zaif ko'ruvchilar, keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar);

■ nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, distaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojida sustlik, duduqlanish);

■ tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelet, miopatiya, osteomiyelet, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi – pakanalik);

■ psixik rivojlanishi sust bolalar;

■ aqli zaif bolalar;

■ murakkab nuqsonli bolalar (rivojlanishida 2 va undan ortiq yetishmovchilik bo'lgan bolalar).

8. Murakkab nuqsonli bolalarni (agar hamroh nuqsonlardan biri aqli zaiflik bo'lgan hollarda) qabul qilish PTPK ning xulosasi asosida, ota-onalari yoki ota-onalarni bosuvchi shaxslarning roziligi bilan, o'quv-tarbiya jarayonida bolalar bilan bir yildan kam bo'lmagan muddat davomida uning o'zlashtirmasligi oligofreniya darajasidagi aqli zaiflik bilan bog'liqligi aniqlangan holda amalga oshiriladi.

9. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga quyidagilar qabul qilinmaydi:

aqli o'ta zaif bolalar (imbilsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya);	xulq-atvorida og'ir buzibshlar, hissiy-irodatiy sohada (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;	qabul qilinmaydigan bolalar (qabul qilinmaydigan bolalar);
ko'r-kar-soqov bolalar;	tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik denensiya, kunduzgi va tuni vaqtlarda tutqanoq) tez-tez takrorlanadigan bolalar;	markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siydik va najasini ushlab tutolmaydigan bolalar;

Ushbu toifadagi bolalar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tegishli muassasalarga yo'llanadi yoki ularga yakka tartibda uyida o'qitish tashkil etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi direktori o'quvchilarning qabul qilinishi uchun belgilangan tartibda shaxsan javob beradi.

3. Bolaning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi

Bolaning shaxsiy hujjatlar yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:

- 1) ota-onalari yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslarning arizasi;
- 2) PTPK xulosalarining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yo'llangan bola bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy va davolash-tuzatish bo'yicha tavsiyalari aks etgan tavsifi;
- 3) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- 4) ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar;
- 5) o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, bolaga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma;
- 6) bolaning yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma:
 - ✦ pediatr tomonidan berilgan bolaning umumiy rivojlanishi holati to'g'risidagi xulosa;
 - ✦ psixonevrologning tibbiy tashxisi va bolaning aqliy rivojlanishiga tavsifi;
 - ✦ otorinolaringologning quloq, tomoq, burun va talaffuz artikulyatsiyasida ishtirok etuvchi organlarning holatiga tavsifi (eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun – so'zlashuv nutq va shivirlab aytilgan so'zlarni idrok etish holati to'g'risidagi ma'lumotlari, audiogramma ma'lumotlari);
 - ✦ oftalmologning ko'rish organiga tavsifi (ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun batafsil tashxisi);
 - ✦ ortoped vrachning xulosasi (tayanch-harakatlanish apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun);

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yo'llangan chin yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun shaxsiy hujjatlar yig'majildida yana quyidagi hujjatlar ham bo'lishi kerak:

- ▶ tuman (shahar) hokimining bolaga vasiy tayinlash yoki uni ta'lim muassasasiga joylashtirish haqidagi qarorining nusxasi;
- ▶ ota-onalar va ularning o'rni bosuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar (ota-onalarning pasport nusxalari yoki ularning vafoti haqidagi guvonoma, sudning hukmi yoki qarorining nusxasi, ota-onasining surunkali kasalligi hamda ota-onasining yo'qligi yoki ularning o'z farzandlarini tarbiyalay olmasligi haqidagi boshqa hujjatlar);
- ▶ yaqin qarindoshlar borligi va ularning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- ▶ bolaning ota-onasidan qolgan mulki (agar bo'lsa), uning qayerdaligi, uni saqlash uchun amalga oshirilgan choralar va bunga mas'ul shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan mulk ro'yxati;
- ▶ turar joyni bolaning nomiga o'tkazish hujjatlari (order, uy daftarchasi, turar joy rejasi, tuman (shahar), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasining tegishli tuman (shahar)dagi filialidan turar joy egasi va xususiylashtirish to'g'risidagi ma'lumotnoma nusxalari);
- ▶ pensiya olayotgan bolaning pensiya daftarchasi, sudning bola foydasiga aliment undirish haqidagi qarori yoki buyrug'ining nusxasi (yoki aliment to'lash haqidagi kelishuvning notarial tasdiqlangan nusxasi), jamg'arma daftarchasi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qanday tashxisli bolalar qabul qilinadilar?

2. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq qaysi turlarga bo'linadi?
3. Bolaning shaxsiy hujjatlar yig'majildi qaysi hujjatlardan tashkil topadi?

5-MAVZU. SURDOPEDAGOGIKA

SURDOPEDAGOGIKAGA OID MILLIY VA XORIJIY ILMIY TADQIQOTLAR

REJA:

1. Surdopedagogika – eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'illanadigan fan
2. Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi
3. Surdopedagogikaning tadqiqot metodlari
4. Surdopedagogikaning rivojlanish bosqichlari
5. Surdopedagogikaga oid ilmiy tadqiqotlar

Tayanch so'zlar: *Surdopedagogika, fan, rivojlanish, bosqichlar, aqliy, jismoniy rivojlanish, kamchilik, bolalar, ta'lim olish imkoniyati, ilmiy tadqiqot.*

Kirish

Jamiyatimizning yangilanishi va demokratlashuvi, O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishidan keyin yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sifatlarini oshirishga bo'lgan tashkiliy, psixo-pedagogik hamda metodik yondashuvini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor bilan qarayapti.

2020-yil 23-sentyabrdagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, (<https://lex.uz/docs/-5013007>) O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha harakatlar strategiyasini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining nogironlar bilan olib borayotgan davlat siyosati "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalaniishi to'g'risidagi" qonuni 1991-yil bilan belgilanadi. Bu qonun aholining mazkur guruhiga boshqa fuqarolar bilan teng asosda to'laqonli hayot kechirish jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o'zining fuqarolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi. Bu qonun davlat bilan aholi sog'lig'ini himoya qilish, nogironlikning oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ijtimoiy jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Nogironlikning oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklanish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustida F-5006-sonli "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyish tasdiqlangan (<https://lex.uz/docs/-3290912>). Unga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo'yicha komissiya tomonidan bir necha ustuvor vazifalar belgilangan. Jumladan:

- nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish;
- nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish;
- ularni kasbga o'qitish;
- hamda ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur o'rganildi.

1. Surdopedagogika – eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'illanadigan fan

Surdopedagogika lotincha “surdus” so'zidan olingan bo'lib “kar” degan ma'noni bildiradi. Surdopedagogika maxsus pedagogikaning bir tarmog'i bo'lib, eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi fandır.

Surdopedagogikaning asosiy vazifalari – eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o'rganish, maxsus maktabda til o'qitishni takomillastirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish ishlarini yuqori pog'onaga ko'tarish, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillastirish, o'z bitiruvchilarini ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir.

2. Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi


Surdopedagogika uchun buyuk psixolog defektolog L.S.Vigotskiyning “Nuqsonning murakkab tuzilishi” haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga ega.



Lev Semyonovich
Vigotskiy
1896-1934

Ushbu ta'limot bo'yicha, birlamchi nuqson o'z navbatida ikkilamchi nuqsonni yetaklab keladi. Mana shu ikkilamchi nuqson o'z ortidan ko'pgina nuqsonlarni yetaklab kelishi shaxsning me'yorida rivojlanishiga ma'lum to'sqinliklarni yuzaga keltiradi. Maxsus pedagogikaning vazifasi aynan mana shu ikkilamchi nuqsonni bartaraf etishdan iborat. Surdopedagogika sohasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarni maktabda o'qitishning ko'plab metodlari mavjud. Umumiy fanlar tarix, matematika, tabiat bilan bir qatorda maxsus fanlar – eshitish qobiliyatini rivojlantirish, talaffuz qilish, nutq o'stirish, o'qish metodikalari yaratilgan.

Surdopedagogika fanining tizimiga surdopedagogikaning tarixi ham kiradi, unda har-xil tarixiy davrlarda eshitishida eshitish qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan qanday ish olib borilganligi kiradi.



3. Surdopedagogikaning tadqiqot metodlari

Surdopedagogika umumiy pedagogikaning tamoyillaridan, metodlaridan ta'lim berish va tarbiyalash vositalaridan keng foydalanadi. Bu metodlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiyasi, o'qishida va rivojlanishida

qo'llaniladi. Surdopedagogika yana surdopsixologiya bilan chambarchas bog'langan. Surdopsixologiya kar va zaif esituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi va shaxs shakllanishining rivojlanishini ochib beradi. Surdopedagogika fani kar va zaif esituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlanishidagi nuqsonlarini bartaraf etish, ya'ni korreksiya, kompensatsiyalashni o'z ichiga oladi. Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiya berishning sifatini tekshirish uchun maxsus surdopsixolog tadqiqotlar olib boradi. Maxsus maktablarda tovushni kuchaytiradigan moslamalar, taktik tebranish uskunalaridan keng foydalaniladi. Hozirgi vaqtda surdopedagogika kar va zaif eshituvchilarning talaffuz qilishini, o'qitishni yanada rivojlanishida surdotexnikaviy asboblardan keng ko'lamda foydalanishni talab qilyapti. Bunda bilishimiz mumkinki, surdopedagogika surdotexnika bilan bog'liq.

Surdopedagogikaning metodlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish, ularni o'qitishni nisbatan yuqori pog'onaga ko'tarish, shuningdek, ushbu toifa shaxslarni kelgusi hayotda o'z o'rnini topishiga muvaffaq bo'lishlari juda zarur. Buning uchun qator metod va usullardan foydalaniladi.

Ilmiy adabiyotlarni o'rganish

Surdopedagogikaning talablaridan biri adabiyot va hujjatlar bilan ishlashdir:

- surdopedagogikadan maxsus zamonaviy adabiyotlar (darslik, maqola to'plamlari, metodika va h.k.);
- yangiliklar (ilmiy jurnallardagi maqola);
- ilmiy adabiyotlar (pedagogika, psixologiya, surdopsixologiya va defektologiyaning boshqa tarmoqlari);
- Maxsus adabiyot (defektologiya lug'ati, pedagogika ensiklopediyasi va h.k.);
- Mutaxassis surdopedagog ishlari;
- Surdopedagogik muassasalarining ishlari (ma'ruzalar, hisobotlar va h.k.).

Surdopedagogikaning adabiyotlar bilan ishlashi – eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlanish davrlarini o'rganishga imkon yaratadi.

Pedagogik nazorat

Pedagogik nazoratni tashkil qilishda biror maqsad ko'zda tutiladi, pedagogik jarayonlarning vazifasi, ish rejasi, nazorat qilingan jarayon aniq va to'liq qilib olib boriladi. Kuzatish maqsadi tajriba to'plash va ilmiy-pedagogik analizdir. Kuzatuvchi darsda o'qituvchi ko'nikmasi va o'quvchilarni darsdagi mavzuni qay darajada qabul qilishini, darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarini kuzatib analiz qilib boradi. Kuzatish davomida o'quv-tarbiyaviy ishlarning natijasi aniqlanadi. Bu natija salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin.

Kuzatuv jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi (magnitafon tasmasiga tushirish, kino tasmasiga tushirish, kompyuter va h.k.)

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish

Ko'pgina kuzatuvchi – surdopedagoglar ilg'or o'qituvchining ish tajribasidan foydalanadi, yosh va boshqa o'qituvchilar ishi bilan taqqoslaydi. Ilg'or pedagogik tajribasini o'rganish uzoq muddatga rejalashtirilgan, aniq ishlab chiqarilgan reja bo'yicha amalga oshiriladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, uning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tamoyil, metodlari va pedagogik ta'siri, bilim, qobiliyat, o'quvchilarning rivojlanishidagi o'zgarishlar tajribasini o'z ichiga oladi.

Pedagogik tajriba – o'quv yoki tarbiyaviy jarayondagi ilmiy maqsaddir

Kuzatuvchi pedagogik jarayonni biror maqsadga yo'naltirilgan holda tuzadi yoki o'zgartiradi. Tajriba olib borishda bilimni, uning olib borishini, tajribaning borishini va uning javoblari bilishi kerak. Shu tajribadan olingan javoblarni analiz qilishda matematika metodlaridan foydalaniladi va bu pedagogik jarayonga aniqlik kiritadi.

So'rovnoma

Kuzatuvda keng qo'llaniladigan metodlardan biri so'rovnomadir. So'rovnoma yozma (testlar) yoki intervyu (so'zli) bo'lishi mumkin. Bu metod orqali o'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'rganilayotgan obyektning yoki shaxsning qiziqishlari, qarashlarini bilish mumkin.

Suhbat

Suhbat metodi kar va zaif esituvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari, surdopedagoglardan olingan ma'lumotlar orqali olib boriladi. Bunda pedagog kuzatilayotgan shaxsga oldindan aniq maqsadga yo'nalgan savollar tuzgan bo'lishi lozim.

Bolalar ishini o'rganish

Bolalar ishini o'rganish metodi bolalarning bilimlarini va qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bunda har xil rasmlarni tahlil qilish, har xil qog'ozlar, plastilindan foydalaniladi. Ularning ishi analiz qilinganda, uning tez tamom qilinganligi emas, balki bosqichma-bosqich bajarilishi, xatolari hisobga olinadi. Ularning bilimlarini aniqlashda o'qituvchi yoki kuzatuvchi yozma ishlar, incho, bayonlar o'tkazishi mumkin.

Maktabda hujjatlarni o'rganish

Pedagogik hujjatlarini o'rganish (dars ishlanmasi, darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlar, o'quv-tarbiyaviy reja, bayonnoma, pedagoglar yig'ilishining hisoboti, o'qituvchilarning metodik yig'ilishlari) o'quv-tarbiyaviy jarayonni, maktabdagi pedagoglarning erishgan ishlariga xulosa qilish mumkin.

O'qituvchilarning shaxsiy hujjatlarini o'rganish har bir o'quvchining ruhiyatini aniqlashda yordam beradi.

4. Surdopedagogikaning rivojlanish bosqichlari

Eramizdan avvalgi qadimgi Gretsiya va Rimda karlarni o'qitish va tarbiyalash ishlari olib borilgan, lekin bu boradagi qo'lyozmalar, hujjatlar saqlanib qolinmagan.

Eramizdan avvalgi qadimgi vaqtlarda karlarni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qaralmagan. Aristotelning falsafiy qarashlarida (miloddan avvalgi 384-322) karlik bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Aristotel eshitish organi borliqni anglashda muhim ahamiyatga egaligini, gapirmaslik tug'ma karlikning asorati ekanligini ta'kidlaydi.

O'rta asrda G'arbiy Yevropada cherkov karlik ota-onalarning gunohi uchun farzandiga berilgan jazo deb e'tirof etgan. Karlarni jamiyatdan haydalgan, hatto inkvizitsiya gulxanlarida "yomon kuchlar" sifatida yoqqanlar. Faqat boy ota-onalar cherkovdan indulgensiyanı sotib olib, ularni jamiyatdan yashirib, o'z farzandlarining hayotini saqlab qolganlar.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiyaga o'rgatish Yevropa shaharlarida olib borilgan. Kar bolalarni yakka o'qitishda o'sha vaqtning buyuk olimi Djerolamo Kardano (1501-1576) "Karlik va soqovlik"ka fiziologik tushuncha berdi. U birinchi bo'lib karlar bilan ishlash metodi ishlab chiqdi va karlarda differensial yondashuvga asos solgan. U eshitishni yo'qolish va nutqni rivojlanish darajasiga ko'ra 3 ga taqsimlaydi. Karlarga yozma nutq va ko'rgazmali qurol vositasida maxsus ta'lim-tarbiya berish uning fikridir.



D.Kardano 1501-1576

Karlik va soqovlik sabablarini fiziologik tushuntirib beribgina qolmay, balki karlarni o'qitish amaliyotining eng muhim qoidalarini ham shakllantirdi.



"Hayotim haqida" XVI asr



XV-XVIII asrlarda karlarni yakka o'qitishda 2 xil yo'l (oqimi) tashkil qilingan.

I-oqim – X.P.Bonet (Ispaniya), D.Bulver, D.Vallis (Angliya) va h.k. nutqning har xil turlaridan foydalaniladi: so'zli, yozma, daktıl, imo-ishora nutqlaridan foydalanish g'oyasini ilgari suradi.

2-oqim – F.M.Van Gelgmont, I.K. Amman (Gollandiya), F.I.Terkiy (Italiya), V.Kerger, G.Rafelg (Germaniya)lar – o'qitish va muloqotda faqat so'zli nutqdan foydalanishni tavsiya etadi.

XVIII asrning II yarmida Fransiya, Germaniya, Angliya, Avstraliyada karlar uchun maxsus o'qishlar ochildi. Shari Mishel Epe (1712-1789) Parijda karlar uchun institut ochdi. Shu bilan bir qatorda, u "mimik metod" yaratuvchisidir. Birinchi bo'lib 1778-yil Germaniyada karlar uchun institut ochildi, u yerda "so'zli metod"dan foydalanildi. Uning asoschisi Samuel Geynike (1727-1790). Bu tizim XIX asrning oxiriga kelib, G'arbiy Yevropaning hamma shaharlariga tarqaldi. AQShda 1817-yili birinchi bo'lib karlar uchun maktab 1817-yilda tashkil qilindi.

Rossiyada ham karlar haqida ma'lumotlar mavjud. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida maxsus o'qishlar Peterburg, Varshava, Riga va boshqa shaharlarda ochildi. XX asrning boshlariga kelib eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning yangi tizimi ishlab chiqildi. Unda rus surdopedagoglaridan: V.I.Fleri (1800-1856), G.A.Gilkova (1778-1858), I.Ya.Selezneva (1889), A.F.Ostrogradskiy (1853-1907), I.A.Vasilgeva (1867-1941), N.M.Logovskiy (1863-1933), F.A.Rau (1868-1957) lar faoliyat ko'rsatishdi. Ularning asosiy e'tibori eshitishida nuqsoni bor bolalarga professional darajada ta'lim-tarbiya berishdir.

5. Surdopedagogikaga oid ilmiy tadqiqotlar

Dastur quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

Progressiv surdopedagoglar kar o'quvchilarni ilk yoshdan tarbiyalash, ular uchun maxsus tarbiya muassasalarini tashkil etish zarurligi haqida fikr bildirganlar. XIX asrda tanikli rus surdopedagog, surdopedagogika fanidan yaratilgan dastlabki asarlarning muallifi V.I.Fleri, kar o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni erta boshlash zarurligini e'tirof etgan. "Kar o'quvchining ilk tarbiyachisi- uning onasi, farzandiga mehr-muruvvatli, diqqat-e'tiborli va g'amxo'r bo'lib, rivojlanishini

ta'minlaydi talaffuz etish va labdan o'qish malakalarini shakllantiradi – deydi olim. Kar o'quvchilarning ta'limi qancha barvaqt boshlansa, uning rivojlanishida shuncha sezilarli yutuqlarga erishish, umumiy ta'lim olishi imkoniyat yaratish mumkin.

V.I.Fleri yoshdagi kar o'quvchilarning so'zli nutqini o'stirish yuzasidan metodik ko'rsatmalar ishlab chiqqan hamda, eshitish qobiliyatining holatini hisobga olgan holda differensial yondashuvga amal qilishni taklif etgan. V.I.Flerining asarlarida kar o'quvchilarga nisbatan insonparvarlik munosabatda bo'lish kerakligi, ilk yoshdanoq ularning so'zli nutqini rivojlantirish zarurligi e'tirof etilgan.

XIX asrning o'rtalarida Rossiyada ijtimoiy tarbiya tizimi rivojlanib kelayotgan bir paytda, ilg'or pedagoglar anomal o'quvchilar uchun ham tarbiya muassasalar ochishni taklif etadi. Biroq, bu g'oya keng jamoatchilik va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Aksariyat surdopedagoglar kar o'quvchilarni ilk yoshdan onalaridan ajratib olishni shavqatsizlik deb hisoblagan. Bundan tashqari, maxsus maktablarda qo'llanilgan, kar o'quvchilar nutqini o'stirish metodlari yoshdagi o'quvchilarga hos bo'lmagan ongillik va turg'un diqqatni talab etganligi sababli, bunday o'quvchilarga murakkablik qilgan.

Ilk bor alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus tarbiya muassasalarini tashkil etish masalasi 1895/1896-yilda texnik va kasbiy ta'lim bo'yicha birinchi anjumanda muxokama etilgan. 1903-yilda ilmiy-pedagogik anjumanda Peterburgda kar-soqovlarni o'qitish va ularga muruvvat ko'rsatish masalalariga bag'ishlangan N.K.Patkanova va N.A.Raularning ma'ruzalari eshitildi. Ma'ruzalarda kar-soqov o'quvchilar uchun ijtimoiy tarbiya muassasalarini tashkil etib, ta'lim-tarbiyani 3 yoshdan boshlash zarurligi isbotlanadi. Surdopedagoglar Y.S.Borishpolskiy, O.Komir, N.K.Patkanova, N.A.Rau, F.A.Raular kar o'quvchilar kamol topishini sog'lom o'quvchilar rivojlanishiga yaqinlashtirish maqsadida ilk yoshdan ularning og'zaki nutqini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar. N.A.Rau Moskvada uning tashabbusi bilan ochilgan kar-

soqov bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan ish tajribasi bilan o'rtoqlashadi.

Keyingi yillarda surdopedagoglar tashabbusi bilan Peterburg (1902-y), Kiev (1904-y), Aleksandrovsk (1909-y), Tambov (1912-y)da maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etiladi. O'sha davrda tarbiya muassasalari xususiy ravishda tashkil etilib, o'quvchilarning ota-onalari va homiylarning mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatar edi. Bog'chada tarbiyalash uchun to'lov haqqi qimmat bo'lganligi sababi, u yerda o'ziga to'q ota-onalar farzandlari tarbiyalanar edi. 1915 yilda "tarbiya yoshidagi kar o'quvchilarga mehr-muruvvat ko'rsatish" jamiyati ta'sis etiladi, uning vazifasi a'zolik badallar, hayr-ehson mablag'lari, hayriya konsertlardan tushgan pullar hisobidan ta'lim muassasalariga yordam ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

Kar o'quvchilar tarbiya muassasalarida ham, sog'lom bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan Frebel metodikasidan, ya'ni qo'l ishi: to'qish, mozaika yasash, qog'ozdan narsa yasash, qirqib yopishtirish, loy ishi va boshqa ishlardan qisman foydalanilgan.

N.A.Rau kar-soqovlarni o'qitish va tarbiyalash tizimini tavsiflab, dastlabki tarbiyalash davrida Frebel metodikasi bo'yicha olib boriladigan o'yin va mashqlarni yuksak baholaydi. Shu bilan birga, taqlid qilish, diqqat, ephillik, ziyraklik kabi hislatlarning o'sishi bilan, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish o'quvchilar bog'chasining muhim vazifalaridan biri ekanligini e'tirof etadi. O'quvchilar bog'chalarida nutq o'stirish mashg'ulotlari bilan birga hisobga o'rgatish, ritmika mashg'ulotlari ham olib borilgan.

1920-yilda bo'lib o'tgan, o'quvchilar nuqsonlariga qarshi kurashuvchi arboblarning 1-anjumanida maxsus tarbiya muassasalar tarmog'ini kengaytirish, ularga o'quvchilarni 2 yoshdan boshlab qabul qilish masalasi ko'tariladi. Anjumanda o'sha yillarda mavjud bo'lgan "ahloqiy defektivlik" burjuaziya nazariyasi keskin tanqid qilinadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini inkor etadigan "ahloqiy

defektivlik nazariyasi" tanqiddan so'ng inqirozga uchrab rad etiladi. 1921-yilda bo'lib o'tgan tarbiya bo'yicha 2-anjumanida tarbiya muassasalar xodimlarining e'tibori pedagogik jarayonini takomillashtirish masalalariga qaratiladi. 20-yillarda, ta'lim-tarbiya berish jarayoniga "formalistik ruhda yondashuviga yo'l qo'yilyapti", degan vajlarga asosanib, Frebel va Montessori tizimlariga qarshi kurash olib boriladi. 1924-yilda voyaga yetmagan o'quvchilarning ijtimoiy huquqiy himoyalash bo'yicha 2-anjumanida N.A.Rau kichik yoshdagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish masalalarini ilgari suradi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarini komplektlashda tarbiyalanuvchilarning yoshi, eshitish qobiliyati va nutqining holatiga hamda intellektual rivojlanishiga ko'ra, ertalabki mashg'ulotlarda guruhlarda 6 kishidan ko'p, kechki mashg'ulotlarda esa 10 kishidan ko'p bo'lmashligini taklif etadi. Shuningdek, korreksion ta'lim-tarbiya jarayonida differensial yondashuvni amalga oshirish, kun tartibiga rioya etish muhimligi ta'kidlanadi.

N.A.Rau tomonidan kar o'quvchilar nutqini analitik-sintetik o'stirish metodi ishlab chiqiladi. Mazkur metodning mohiyati shundaki, kar o'quvchilarga so'z va jumalarni gapirishga o'rgatilib, keyinchalik alohida bo'g'in, tovushlarni talaffuz etish mashq qilinadi, so'ng tovush va bo'g'inlardan so'zlar tuziladi. Kar o'quvchilar nutqi turli o'yinlar vositasida o'stiriladi. Nutqiy material o'quvchilarning ehtiyoji, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanib olinadi. N.A.Rau o'quvchilarni o'qitish jarayonida "g'uldirash" so'zlar ("miyov", "ma" "ba" "vov")dan keng foydalanadi, uning fikricha bunday so'zlarning qayta-qayta talaffuz etilishi nutq analizatori faoliyatini takomillashtirishiga yordam beradi. So'zlarning fonetik tuzilishini o'zlashtirish paytida o'quvchilarga so'zlarni qisqartirib, biroz o'xshatib bo'lsa-da talaffuz etishga yo'l qo'yiladi. Kar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bo'yicha mashg'ulotlardan tashqari, dastlabki matematik tasavvurlarini shakllantirish, tabiat bilan tanishtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va ritmik mashg'ulotlarni olib borish zarur deb hisoblaydi. 1930 yillarda Moskvada birinchi

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yasli guruhlar ochilib, unga 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadi. Yasli guruhining ta'sischi va rahbari N.A.Rau, tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirishda analitik-sintetik metodni qo'llaydi. O'quvchilar bilan eshitish qobiliyatini rivojlantirish, harakat qilishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha korrektsiyalovchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ham olib boriladi. 1938- yilda bo'lib o'tgan, kar-soqovlarni o'qitish va tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan quriltoyni qaroriga muvofiq, karlarni so'zlashuv nutqini o'stirish metodlari qayta ko'rib chiqiladi va og'zaki nutq bilan bir qatorda yozma nutqdan foydalanish tavsiya etiladi.

1940-yillarda Y.P.Musatova maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida so'zli nutqni o'stirishning dastlabki bosqichida, yozma nutqdan muloqot vositasi sifatida qo'llanilishini taklif etadi. Y.P.Musatova kar o'quvchilarning so'zli nutqini o'stirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqadi. Y.P.Musatovanning metodikasi bo'yicha tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish, so'zlarni qisqartirgan holda gapirish ta'qiqlangan, sensomotor rivojlanishini ta'minlash va nutqiy nafasni o'stirish maqsadida turli mashqlar tizimidan foydalaniladi. Ta'limning bosqichlariga mos holda, qo'yilgan tovushlarni hisobga olgan og'zaki nutq, labdan o'qish, yozma nutqda foydalaniladigan lug'at boyligi ishlab chiqildi. o'sha davrda maxsus maktablarda 3-sinfdan boshlab qo'llanib kelingan daktil nutqdan o'quvchilar bog'chasida, savodi chiqmagan o'quvchilarga ta'lim berishda foydalanish ta'qiqlangan. Surdopedagoglar fikricha, daktil nutqni erta kiritilishi, og'zaki nutqni egallanishiga to'sqinlik qilgan.

1940-yillarda Rossiya va ittifoq davlatlarda kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish tizimi shakllanib, maxsus tarbiya muassasalarida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash maqsad va vazifalari ishlab chiqiladi. Surdopedagoglar oldida kar o'quvchilarni jismoniy, aqliy, aqloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash, mehnat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, so'zli nutqning og'zaki va yozma shaklidan ta'lim berish va muloqot qilish hamda maktab ta'limiga tayorlash vositasi sifatida foydalanish vazifalari qo'yiladi.

Tarbiya muassasalar xodimlari pedagogik jarayonni "O'quvchilar bog'chasi tarbiyachisi uchun mo'ljallangan ko'rsatmalar" (1945-y) asosida tashkil etganlar. 1950-yillarda umumiy yo'nalishdagi va maxsus o'quvchilar bog'chalarida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash dasturini hamda yangi metod va usullarni yaratish sohasida ko'pgina tadqiqotlar olib boriladi. 1951 yilda maorif vazirligi tomonidan tasdiqlanagan "tarbiya muassasalarida kar-soqovlar bilan ishlash bo'yicha" metodik ko'rsatmalar tasdiqlanadi. Mazkur hujjat maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun birinchi dastur bo'ldi. Ushbu davrda Rossiyada 15 ta maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari ochilib, alohida surdopedagog shtat birligi belgilandi.

1960-yilda sobiq Sovet Ittifoqi Pedagogika fanlar akademiyasi tarbiya ilmiy tadqiqot instituti, 1961-yilda Defektologiya ilmiy tadqiqot instituti huzurida anomal o'quvchilar tarbiyasi sektori tashkil etiladi. Uzoq davom etgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida B.D.Korsunskaya rahbarligida "tarbiya yoshidagi kar o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash" dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Dasturning harakatlarni rivojlantirish, o'yin, maishiy-xo'jalik malakalarni rivojlantirish, madaniy xulq-atvor malakalari, hisob, tasviriy faoliyat, qurish-yasash bo'yicha bo'limlariga asosiy talablar belgilanadi. B.D.Korsunskaya rahbarligida ishlab chiqilgan kar o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash tizimining mohiyati tarbiyalanuvchilarning o'yin, mehnat, o'quv, maishiy xo'jalik faoliyatlarida ularning nutqini o'stirish zarurligida ifodalanadi.

Kar o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda B.D.Korsunskaya to'rtta tamoyilni ilgari suradi:

- ✦ nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishning barcha bosqichlarida nutqning leksik va grammatik jihatlariga e'tibor berish;
- ✦ analitik o'qishga erta o'rgatish zarurati;
- ✦ tarbiyachining so'zlab berishi va kar o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish vositasi qo'llanilishi;

✦ ta'limning dastlabki davridan boshlab nutqning daktil shaklidan so'zli nutqni egallash vositasida qo'llash qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida o'quvchilarning so'zlashuv nutqi shakllantiriladi.

F.F.Rau, N.F.Slezina 13 ta asosiy tovushlarni ta'limning 1-2 yillarida qo'yishni tasviya etadilar, bu tovushlar negizida 3-4 yillarda qolgan tovushlar o'zlashtirilib, maktab yoshida bu ish yakunlanadi. Tarbiya muassasalarida maktablardagidek, og'zaki nutqni o'stirishda polisensor konsentrik, analitik-sintetik metoddan foydalaniladi. Surdotexnika va audiologiya sohasida erishilgan yutuqlar eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikalariga sezilarli o'zgartirishlarni kiritadi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshituv imkoniyatlarini eksperimental tekshirish natijalari asosida Pedagogika fanlar Akademiyasining defektologiya ilmiy tekshirish instituti xodimlari tomonidan eshitish qobiliyatini rivojlantirish dasturi va metodikasi ishlab chiqiladi. Ovozni kuchaytiruvchi apparatlardan foydalangan holda eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan izchil ish o'quvchilarni o'qitish jarayonini takomillashtiradi. Talaffuzga o'rgatishda dastlabki nutqiy birlik-so'z bo'lib qoladi. 1976/1992 yillarda Defektologiya ilmiy tekshirish instituti xodimlari tomonidan "kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash dastur"larining loyiqalari ishlab chiqilib, amaliyot jarayonida tasdiqlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash dasturlari, tarbiyaning umumiy tamoyillariga asoslangan holda, o'quvchilarni kamol toptirish, nuqsonlarni korreksiyalashga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalari tizimining rivojlanishi

O'zbekistonda aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchilik mavjud bo'lgan bolalarga dastlabki maxsus maktab-internat 1919-yilda sobiq sovet hukumati rahbari Y.Ohunboboyevning qaroriga muvofiq Toshkent shahrida tashkil etilgan. Maktab-internatda kar va zaif eshituvchi, ko'zi ojiz, aqli zaif, tayanch harakat

a'zolari shikastlangan bolalarga ta'lim-tarbiya berilardi, davolash ishlari tashkil etilardi. 1920-1921-yillarda Toshkent shahrida Y.Ohunboboyev nomli Respublika ko'zi ojiz bolalar maktab-internati va 1-sonli kar bolalar maktab-internati tashkil etiladi. Mazkur maktab-internatlar qoshida maktabgacha tarbiya bo'limlari ochilib, ularga maktabgacha yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

1960-1970-yillarda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun alohida dastlabki maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maxsus guruhlar Toshkent shahrida, Toshkent, Andijon, Fargona, Namangan, Samarqand, Jizzax viloyatlarida ochiladi. Maktabgacha muassasalarida ishlovchi mutaxassislar sobiq Sovet Ittifoqining poytaxti Moskva Davlat Universitetida tahsil olib keladilar. Toshkent Davlat Pedagogika Instituti pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida 1968-yilda defektologiya bo'limi ochiladi. 1974-yildan boshlab pedagogika va psixologiya fakulteti surdopedagoglarni tayyorlay boshlaydi. 1973-yilgi Sobiq Sovet Ittifoqi Ministrlar Kengashining "Maxsus maktab (maktab-internat), maktabgacha tarbiya muassasalar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Respublikamizning barcha viloyatlarida kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktab-internatlar ochiladi. Deyarli barcha maktab-internat qoshida maktabgacha tarbiya bo'limlari tashkil etiladi. Hozirgi kunda Respublikada kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktab-internat hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari shuningdek, maktab-internatlar qoshidagi guruhlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonda U.Fayzieva, F.Alimxodjaeva, X.Kalbaeva, N.Dadaxodjaeva, D.Alimjanova, D.Ahmedova, F.Qodirova, D.Nazarova, Z.Mamarajabovalar amaliyotchi mutaxassislardan J.Husanova va N.Rasulovalarning olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida surdopedagogika sohasi raqvnaq topib bormoqda. Ular tomonidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim talablari, dasturlar, o'quv-metodik qo'llanma va darsliklar eshitishda muammolari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida qo'llab kelinmoqda.



V.I. Flerina
Rus surdopedagogi



D. Qodirova



Z. Mamarajabova

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Rus surdopedagog V.I.Flerining eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga erta ta'lim-tarbiya berilishiga oid qarashlarini ta'riflang.
2. XIX-XX asrlarda maktabgacha tarbiya tizimining rivojlanishini yoritib bering.
3. XX asrning 50-70-yillarida mavjud bo'lgan kar bolalarni o'qitish va tarbiyalashning asosiy tamoyillari va talablarini yoritib bering.
4. 1992-yilda tuzilgan kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish dasturining tamoyillari va talablarini yoritib bering.
5. Kar bolalar maktabi huzurida tashkil etilgan maktabgacha tarbiya guruhlar uchun tuzilgan dasturning vazifasi va mazmunini yoritib bering.
6. O'zbekistonda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalar tarmog'i qanday rivojlanganini yoritib bering.

6-MAVZU: OLIGOFRENOPEDAGOGIKA

OLIGOFRENOPEDAGOGIKA OID MILLIY VA XORIJIY ILMIY TADQIQOTLAR


REJA:

1. Oligofrenopedagogikaning maqsadi va vazifalari
2. Oligofrenopedagogikaning rivojlanish tarixi
3. Aqliy qoloqlik haqidagi ta'limot
4. Aqli zaiflik haqida olimlarning qarashlari


Tayanch so'zlar: Aqli zaif, o'qitish, tarbiya, fanlarning yutuqlari, oligofrenopedagogika, umumiy psixologiya, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika.

1. Oligofrenopedagogikaning maqsadi va vazifalari

Oligofrenopedagogika (yunoncha *oligos* – kam, *phren* – aql so'zlaridan olingan) – aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan.




Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularni o'rganishning nazariy masalalari qator fanlarning yutuqlariga asoslanadi.



Oligofrenopedagogikaning asosiy **maqsadi** - aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga ma'lum fan asoslariga oid bilim berish, korreksion-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, mehnat faoliyatiga, kasb-hunarga, ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Oligofrenopedagogikaning aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalardagi nuqsonni umumiy pedagogika va didaktika qonuniyatlariga suyangan holda o'zining xususiy qonuniyatlari orqali quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:



Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda oligofrenopedagogika fani o'ziga xos uslublar va metodlarni qo'llashning samarali yo'llarini o'rgatadi.



2. Oligofrenopedagogikaning rivojlanish tarixi

Oligofrenopedagogika o'zining rivojlanish, shakllanish tarixiga egadir. XX asrlarning boshlarida aqlan norasolarning o'ziga xos ta'lim olishi ehtiyojiga qarab ta'lim turlarini belgilash ishlari boshlangan.

Oligofrenopedagogika fanining dastlabki, boshlang'ich davri aqli zaiflikning mohiyatini aniqlash bilan xarakterlanadi. Birinchi marta psixiatr F. Platter (1537-1614) ruhiy kasalliklar orasidan aqli zaif bolalarni ajratib berdi. Aqli zaif bolalarni tasniflash, ularga klinik tavsifnoma berish ishlari F. Pinel (1775-1838) va J. Eskiro (1772-1840) tomonidan bajarildi.



J. Esquirol



Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasining yuzaga kelishida fransuz vrachi va pedagogi E. Segen (1812-1880) ning pedagogik va ilmiy faoliyati katta o'rin egalladi. Ayniqsa, uning 1846-yilda yozilgan "Aqliy me'yorda bo'lmagan bolalarning tarbiyasi, gigienasi va axloqiy davosi" asari oligofrenopedagogika fanida katta yutuq bo'ldi.

E. Segen tomonidan aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasida nazariy asoslarining chuqur ishlab chiqilishi va bu yo'nalishdagi ilmiy ishlarning yanada jonlanishiga sabab bo'ldi. Maxsus pedagogikaning yuzaga kelguniga qadar aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi masalalari davolash pedagogikasining mavzu bahsi edi.

Davolash pedagogikasining asosiy g'oyalari "ruhiy ortopediya" va "sensomotor madaniyat" tushunchalari asosida berilar edi.

Bu yo'nalish tarafdorlari (B. Mennel, A. Fuks, R. Vays, J. Filipp, Pol Bonkur, J. Demor, O. Dekroli, M. Montessori va boshqalar) shaxsning shakllanishida irsiy omillarga ko'proq e'tibor berishgan bo'lsalar-da, nuqsonlilar ta'lim-tarbiyasida pedagogika bilan tibbiyotni bir-birlariga yaqinlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

O. Dekroli va J. Demorlarning ayrim ishlarida aqli zaiflarga pedagogik yordamning ijobiy tomonlari ochib berilgan. XIX asr oxirlari, XX asr boslarida

Yevropa va Amerikada aqliy nuqsonning yengil turlariga e'tibor kuchaya boshladi. Shu asosda shunday bolalar bilan ishlaydiganlar faoliyatida pedagogik yo'nalish asosiy o'rinni egallay boshladi. Rus pedagoglari, psixologlari, shifokorlari E. K. Grachyova (1866-1934), V. P. Kashenko (1870-1943), G. I. Ros-solimo (1860-1926), M. P. Poslavskaya (1865-1953), A. N. Graborov (1885-1949) va boshqalarning amaliy pedagogik faoliyatlarida bu fikrlar o'z aksini topdi. Rossiyada aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga ijtimoiy tarbiya berish masalalari K. D. Ushinskiy va P. F. Lesgaftning pedagogik ishlarida, ilg'or rus shifokorlari, fiziologlari va psixologlari V. M. Bexterev, I. M. Sechenov, I. P. Pavlov, I. V. Malyarevskiy, G. Y. Troshin, A. F. Lazurskiy, A. V. Vladimirskiy ishlarida rivojlantirildi. Ilg'or rus ziyolilari chor hukumati bilan keskin kurashlar asosida o'zlarining zamonaviy, qimmatli fikrlarini olg'a surdilar. Aqliy nuqsonlarni o'rganish, tasniflash, ta'lim-tarbiya nazariyalarini ishlab chiqish, nuqsonlarni to'g'rilash borasida juda ko'p yutuqlarga erishdilar.

L. S. Vigotskiyning 1924-yilda aytgan optimistik bashorati naqadar haqiqiy ekanligini hozir maxsus pedagogika sohasida erishilgan, erishilayotgan yutuqlar ham ko'rsatib turibdi. «Ehtimol, insoniyat ertami-kechmi ko'rlik, karlik, aqli zaiflikni yengadi. Ammo ularni biologik va tibbiyot tomonidan ko'ra, ijtimoiy hamda pedagogik tomondan ancha ilgari yengadi», — deb ta'kidlaydi L. S. Vigotskiy.

1941-yilda A. N. Graborov, N. F. Kuzmina, F. M. Novik tomonidan yozilgan oligofrenopedagogika asoslari o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqdi. Unda birinchi tizimlashtirilgan holda aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining nazariy asoslari ochib berilgan. Oligofrenopedagogika — aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi, tarbiyasi hamda ular taraqqiyotidagi ruhiy, jismoniy nuqsonlarni to'g'rilovchi fan sifatida yuzaga keldi.

Milliy maxsus pedagogikada oligofrenopedagogika yo'nalishida qator olimlar aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning rivojlanish imkoniyatlari va ularning ijtimoiy mehnatga moslashish masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib


borganlar (G.B.Shoumarov, K.Mamedov, P.Po'latova, M.Ayupova, D.Nurkeldieva, G.Berdiev, A.Sagatov, M.Hamidova va b.).

Milliy oligofrenopedagogika hozirgi kunda keng islohatlar ko'lamida. Islohatlarning mohiyati aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashib borishi va jamiyatning turli jabhalarida erkin harakatlanishini ta'minlashdan iboratdir.

3. Aqliy qoloqlik haqidagi ta'limot

Aqliy qoloqlik haqidagi ta'limot bizning eramizgacha yashagan Gippokrat, Platon, Aristotel, Pifagorlarning qadimiy asarlaridan boshlangan. Bizning davrimizgacha yetib kelgan asarlarda chuqur aqliy qoloqlik shakllariga e'tibor berilgan, ularning paydo bo'lish sabablari ochib berilgan.

Dastlabki qo'lda yozilgan nashr – Platter (1536-1664) asari bo'lib, u “bolalarcha ahmoqlik” haqida gapiradi. 1808-yilda Karus, so'ngra Morel bolalar aqliy zaiflashishi mumkin, ammo ruhiy kasal emas degan fikrni bildirdilar. Morelning bu fikri ruhiy buzilishlarning paydo bo'lishi tashqi ta'sirga bog'liq ekanligiga asoslangan edi. Shu bilan birga, Morel ota-onalar qarindosh bo'lgan oilalarda aniq degenerativ o'zgarishlarga uchragan bolalarni kuzatgan va “kretinizm”ni nasli degeneratsiyasi belgisi deb bilgan.




Aqliy zaiflikni o'rganishning klinik bosqichi XVIII-XIX asrlarda barcha tibbiyot fanlarini jonlantirish bilan birga shakllana boshladi. Ushbu davrda Eskirol

va uning shogirdlari turli xil asab-psixiatrik kasalliklarni o'rgangan, bu esa psixik faoliyatning buzilishi-pasayishi – demensiya bilan yakunlandi. U erta va kech demensiya (demensiya – bu orttirilgan aqli zaiflik bo'lib, ilgari olingan bilim va amaliy ko'nikmalarni u yoki bu darajada yo'qotish yoki yangilarini olishga qiynalish yoki qobiliyatsizlik bilan kognitiv faollikning doimiy pasayishi. Aqliy zaiflikdan farqli o'laroq, aqliy rivojlanmagan. Bu kasallik yoki miyaning yetilishidan keyin zararlanishi natijasida paydo bo'ladigan aqliy funksiyalarning buzilishi)ni tasvirlab berdi.

Aqliy qoloqlik nazariyasini ishlab chiqishda XIX-XX asr shifokorlari mehnati katta ahamiyatga ega edi. Ushbu davrda tadqiqot obyekti, tadqiqot usullari va vazifalari o'zgardi.

Birinchisi bosqichda:



Ushbu davrda aqliy qoloqlik shakllarining differensial diagnostikasi ko'rib chiqildi, buning uchun yagona terminologiya zarur edi, chunki barcha zaif fikrlaydiganlar “tentaklik” atamasi bilan ta'riflangan. Miyaning jiddiy shikastlanishi etiologiyasi va patogenezi (patogenezi (yunon patogenesis kasallikning kelib chiqishi, paydo bo'lishi, kechishi va natijasini aniqlaydigan jarayonlar to'plami. “Patogenezi” atamasi kasalliklarning rivojlanish mexanizmlari va patologik jarayonlar to'g'risidagi ta'limotni ham anglatadi.

Birinchisi marta ixtisoslashtirilgan muassasani tashkil qilib, Eskirol (1772-1840) tug'ma demensiya va orttirilgan demensiya o'rtasidagi asosiy farqni aniq

shakllantirdi va "tentaklik" guruhidan unchalik chuqur bo'lmagan darajani ajratib ko'rsatdi. U "tentaklik"ni aqliy qobiliyatlar rivojlanmaydigan o'ziga xos holat deb ta'riflagan. Batafsilroq "tentaklik" ning klinik ko'rinishlari uning Burnevil (1849-1910) monografiyasida keltirilgan.

E.Segen (1812-1880) o'rta darajadagi "tentaklik" va "aqliy qoloqlik" ta'rifi va klinik tavsifini berdi, shuningdek, o'zining tibbiy-pedagogik tuzatish tizimini yaratdi. U "Davolab bo'lmaydigan tentaklik haqida shu qadar ko'p yozilganki, hech kim u bilan shug'ullanishga urinmagan, hamma narsani tabiatga qoldirganlar", deb G.K. Usakovning so'zlarini keltirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida aqliy qoloqlikni o'rganishning ikkinchi bosqichida Fransiyada sanoat va savdo-sotiqning ta'sisi bilan bog'liq ravishda ilgari qishloqlarda ishlagan va yashagan aholini mehnat jarayonlariga jalb qilish zarur bo'ldi. Mehnat jarayonlariga tayyorgarlik bilan bir qatorda o'spirinlarga savodxonlik asoslari o'rgatila boshlandi. Darslar davomida yetarli bilim ololmaydigan bir guruh o'quvchilar paydo bo'ldi. Umumiy tushunchalar cheklangan bo'lgan o'spirinlarni aniqlash uchun dastlabki tekshiruvga ehtiyoj bor edi.

Parijda o'qituvchilar A.Vinet va T.Simon sinov metodikasini ishlab chiqdilar. Anomal bolalarning intellektual darajasini aniqlashning yangi usullari – metrik o'lchov-so'rovnoma test asosida o'tkazildi. Intellektual rivojlanish darajasini baholash uchun bolalar va o'spirinlarga ma'lum rasmlar va vazifalar taklif qilindi, ularning yechimi ballar bilan belgilandi. 80 balldan 100 ballgacha to'plash kerak edi. Agar bola bu vazifalarni uddalay olmagan bo'lsa, ya'ni kamroq ball to'plagan bo'lsa, u holda u aqli zaif deb hisoblangan, uning ta'rifi uchun yangi atama – "zaiflik" qo'llanilgan, u aqliy rivojlanishning sustligini bildirgan.

Rus tadqiqotchilarining fikriga ko'ra (G.E.Suxarev, M.S.Pevzner, V.V.Kovalev, E.M.Mastyukova, S.S.Lyapidevskiy va boshqalar), aqliy zaiflik (oligofreniya) ontogenez (disontogenez) bilan bog'liq bo'lgan katta sharoitlar guruhiga kiradi. Ushbu pozitsiyalardan aqliy zaiflik (oligofreniya) psixikaning

(asosan intellektning), shaxsiyatning va butun organizmning rivojlanmaganligi bilan ajralib turadigan anomaliya sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda ko'plab xorijiy davlatlarda, ayniqsa AQSh va Angliyada "oligofreniya" atamasi "aqliy zaiflik", "aqliy yetishmovchilik", "aqliy subnormallik", "aqliy nuqson" atamalar bilan almashtirildi. Bu atamalarning barehasi etiologiyasi, klinik ko'rinishlari, patologik o'zgarishlari va prognozlarini bilan ajralib turadigan shartlarni birlashtiradi. Qo'shma Shtatlarda "zaif bolalar" kabi atama mavjud bo'lib, u turli xil kelib chiqishlarning aqliy zaifligini anglatadi va ta'limning maxsus shakllarini talab qiladi.

Kamol topib borishning ikki darajasi haqidagi, ta'lim bilan kamol topib borishning bog'lanishi to'g'risidagi hamda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'limning kamol topib borishdan oldin borishi va uning tugallangan bosqichlarigagina tayanib qolmay, balki tarkib topayotgan ruhiy funksiyalarga ham tayanish kerakligi haqidagi ana shu asosiy nazariy qoidalar yordamchi maktab ta'limi va amaliyoti g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bu qoidalarni atoqli psixologlardan biri L.S.Vigotskiy o'rta tashladi. L.S.Vigotskiyning nazariy qoidalari professor L.V.Zankov rahbarligida amalga oshirilgan bir qator tajriba ishlari bilan tasdiqlandi. Tadqiqotchilar ta'lim jarayonini shunday tashkil etdilar, o'quvchilarning kamol topib borishining umumiy darajasini maksimal oshirishni maqsad qilib qo'ydilar. Bunda ular kuzatishning shunday shakllarini rivojlantirishga alohida e'tibor berdilar, ularni amalga oshirishda tafakkur jarayonlari voqelikni real hissiy bilish bilan, idrok etiladigan narsalardagi tafovut va o'xshash tomonlarni aniqlash bilan bog'landi. Bolada mavhum tafakkurni rivojlantirishga, ya'ni bola atrofidagi voqelik obyektlari o'rtasidagi bog'lanishlar va munosabatlarni o'rnatishga, shuningdek, bolada amaliy harakatni tarkib toptirishga alohida e'tibor beriladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday sharoitlarda bolalar o'zlarining umumiy kamol topishlarida ancha yuqori darajaga erishadilar, bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallaydilar. Ta'lim va kamol topish jarayonining bir-birini taqozo

qilishi va bir-biri bilan mustahkam bog'lanishi kamol topishida biror bir kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitishdagi qiyinchiliklar tahlil qilinganda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lim berish jarayonida bolalarda vujudga keladigan qiyinchiliklar turli xil bo'lganligi sababli, pedagog bu qiyinchiliklar nimalardan kelib chiqqanligini va ularning ichki mohiyati qanday ekanligini anglab olishi zarur. Chunki, biror bosqichda yozuvni bilib olmaydigan bolalar bo'lishi mumkin. Bunga qulog'ining og'irroq bo'lib qolishi, bolada so'zni tovush jihatdan tahlil qilishni o'zlashtirishga xalaqit beradigan fonematik idrokning yetarli darajada o'sib yetmaganligi, parishonxotirlik, fazo tasavvurining buzilishi bu xil yozuvni qiyinlashtiradi, chunki alifbo harflarini idrok etish boladan fazoni aniq tasavvur qilishni talab qiladi, chunki harflar muayyan fazo shakliga ega bo'ladi va yana boshqa bir qancha narsalar sabab bo'lishi mumkin. Bola xulq-atvori va faoliyatidagi kamchiliklarning har qanday turini dinamik tarzda qo'llanilishi pedagogga bolaning kamol topishidagi kamchiliklar xarakterini anglab olishiga, hamda tuzatish tarbiyaviy ishlarning turli usullarini qo'llashga yordam beradi. Va bu jarayon maxsus tashkil etilgan bilish faoliyati bo'lib, kishilik jamiyatining turli soatlarida tajriba egallashga xizmat qiladi. Bularga ilm-fan, g'oya, axloq, madaniyat, san'at soatlari kiradi. Maxsus ta'lim ham yosh avlodga shular haqida qisqa, oddiy tasavvurlar berishdangina iborat bo'lib qolmay, balki shu bilimlar orqali mavhum tafakkur jarayonlarini tuzatishdan iborat. Tafakkur jarayonlariga tahlil, sintez, umumlashtirish, induksiya deduksiya, taqqoslash, xulosalash va boshqa fikriy jarayonlar kiradi.

Aqli zaif o'quvchilarda ba'zan turli analizatorlar ham u yoki bu darajada buzilgan bo'ladi. Bizlarga ma'lumki, har qanday bilish jonli mushohadadan boshlanadi. Jonli mushohada deganda dastlabki ma'lumotlarni eshitishimiz, ko'rishimiz, teri sezgilarimiz, hid bilish, ta'm bilish organlarining ishtirokida qabul qilishimiz tushuniladi. Qabul qilingan ma'lumot bosh miyada qayta ishlanib, undan amaliyotga yo'llanadi. Aqli zaif bolalarda eng katta nuqson tafakkur jarayonining buzilganligi sababli, butun to'g'rilash, yumshatish, tuzatish ishlari

shunga qaratiladi. Korrektsiya (tuzatish) so'zining mohiyati, mazmuni haqida pedagogik asarlarda qator tushunchalar berilgan. Defektologiya lug'atida "aqli zaif bolalardagi ruhiy va jismoniy kamchiliklarni tugatish, oldini olishga, yumshatishga qaratilgan pedagogik ishlar sistemasidir", deb ko'rsatiladi.

4. Aqli zaiflik haqida olimlarning qarashlari

Italiyalik defektolog M.Montessori (1870-1952) aqli zaiflikda asosiy ishni sezgilarni tarbiyalashdan boshlash lozim deb ko'rsatadi. Uning fikricha, maxsus mashqlar orqali bolalarning sezgi organlarini rivojlantirish asosida tafakkurni rivojlantirish mumkin ekan. Uning fikrlarini davom ettirgan belgiyalik O.Dekroli (1871-1933) tuzatish ishlarni 3 bo'g'inga ajratgan.

- 1) sezgi organlariga ta'sir etish;
- 2) tafakkurga ta'sir etish;
- 3) harakatlarga ta'sir etish.

Montessori va Dekroli qarashlarining cheklanganligi (ular ruhiyatning bir butunligini to'la tushunmadilar), torligi rus defektologi A.N.Graborovning pedagogik tizimida birmuncha, yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu tizim asosida o'yin, qo'l mehnati, fanlarni o'qitish, ekskursiyalar yotadi. Ammo uning tizimida ham sensor tarbiya batamom barham topmadi. Bu uning tizimidagi kamchilik edi.

X.S.Zamskiyning ko'rsatishicha, yordamchi maktablardagi tuzatish ishlari birinchi navbatda ayrim kamchiliklarni to'g'rilashga qaratilmasdan, balki shaxsni bir butunligicha: bilimlarni egallash, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish, mehnat faoliyatiga tayyorlashni ham o'z ichiga olishi lozim.

G.M.Dulnevning yozishicha: "Mehnat ta'limi bilan aqli zaif bolalar kamchiliklarini tuzatish orasidagi bog'liqlik, normal bola ta'limi va rivojlanishi orasidagi bog'liqlikka o'xshaydi. Bu yerda ta'lim faol maqsadga muvofiq tuzatish, rivojlantirish shaklida tashkil qilinsa, umumiy kamolotda yetakchi vazifani o'taydi". Bu masalani to'g'ri tushunish ham nazariy, hamda amaliy ahamiyatga ega.

J.I.Sifning ta'kidlashicha: "aqli zaif bolalar ta'limi tuzatuvchi-tarbiyaviy xarakter kasb etishi lozim". Rus oligofrenopedagogikasida tuzatuvchi ta'lim nazariyasi G.M.Dulnev nomi bilan barchasiga bog'liq.

Defektologiya ilmiy tekshirish institutida yordamchi maktablar sektorini 20 yildan ortiq boshqargan G.M.Dulnev aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktablar uchun o'quv rejasi, dasturlari, darsliklari, uslubiy adabiyotlar yaratish ishlariga bevosita rahbarlik qildi va bunda faol ishtirok etdi.

G.M.Dulnev tomonidan aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktablarda mehnat ta'limi masalalari, ayniqsa, atroflicha keng o'rganildi. Yordamchi maktablarning maxsus tuzatish vazifalariga to'xtalib, ta'lim o'quvchilarda umumlashtirishni o'stirishi, nutqning yetakchilik rolini rivojlantirish asosida ularning umumiy aqliy rivojlanishini ta'minlashi lozim deb ko'rsatadi muallif. U aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'limiy ishlar bilan tuzatish ishlari har doim organik birlikda olib borilishini ta'kidlaydi. "Bilim egallashdagi har bir yangi qadam, nuqsonli bola shaxsini tuzatish, aqliy rivojlanishini ta'minlashdagi yangi qadam bo'lishi kerak", – deb ko'rsatadi u.

Tuzatish ishlari eshutilishidan osongina to'g'rilash, yumshatish degan ma'noni bersa ham, amalda, maktab hayotida aqli zaif bolalar bilan ish olib boradigan amaliy xodimlar buning juda ham murakkabligini yaxshi tushunadilar. Chunki bilimlar tizimini berish, tarbiyalash, shaxsni shakllantirish bevosita, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilmaydi. Bu ish har bir soatlik dars jarayonlarida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchining butun hayoti davomida amalga oshirilib boriladi.

Mashur fransuz shifokori va oligofrenopedagogi E.Segenning chuqur aqli zaiflarga oid quyidagi fikrlari juda ham ta'sirlidir: "Agar u (nuqsonli bola) ishyoqmas, qobiliyatsiz, e'tiborsiz bo'lsa, bir so'z bilan aytganda unda siz yoqtiradigan birorta ijobiy fazilat bo'lmasa, shunda ham ruhan yengilmang. Agar u har doim yotsa turgazib, o'tkazib qo'ying, agar u o'zi yemasa, ovqatlantirish

vaqtida uning barmoqlarini ushlang, agar u umuman harakatlanmasa, uning muskullarini harakatlantiring, agar u qaramasa, gapirmasa, unga siz gapiring, ko'zlariga qarang: uni ishlayotgan kishilardек ovqatlantiring va birga ishlashga majbur qiling; uning irodasi, tafakkuri bo'ling. Agar siz 3-4 yil ichida unda biror qobiliyat, nutq, tafakkur elementlarini shakllantira olmagan bo'lsangiz ham, sizning mehnatlaringiz zoye ketmagan bo'ladi. U muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lsa ham, u sog'lomroq, kuchliroq, quloq soladigan, axloqliroq bo'ladi. Bu kammi? Bu sizning mehnat mahsulungiz emasmi? Nima qo'lingizdan kelsa, hammasini qildingiz. Bu hamma narsa emasmi?" Demak, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktablardagi ta'lim olayotgan aqli zaif bolalarning uyg'un rivojlanishida maxsus maktab ta'limi juda katta potentsial imkoniyatlarga ega. Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlardagi tuzatish, tarbiyalash ishlari asosan quyidagi yo'llar bilan: "korreksion rivojlantiruvchi mazmunli ta'lim, mehnat, o'yin, bolalar hayotini tashkil etishdagi kun tartibi, sinfdan, maktabdan tashqari ishlar, davolash profilaktik ishlar" orqali amalga oshiriladi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Oligofrenopedagogikaning vazifalarini sharhlang.
2. Oligofrenopedagogikaning rivojlanish tarixi qaysi davrdan boshlanadi?
3. Aqliy zaiflik haqidagi ta'limot tadqiqotchilarining izlanishlari haqida gapirib bering.
4. Aqliy zaiflik haqida olimlarning qarashlari haqida so'zlab bering.

7-MAVZU: TIFLOPEDAGOGIKAGA
TIFLOPEDAGOGIKAGA OID MILLIY VA XORIJIY ILMIY
TADQIQOTLAR

REJA:

1. Tiflopedagogika fanining mavzu bahsi va vazifalari.
2. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifi.
3. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi.
4. Brayl tizimining yaratilishi.

Tayanch so'zlar: Tiflopedagogika, tabiiy, ilmiy asos, oliy nerv faoliyati, bolalarning xususiyatlari, ko'rish funksiyalari, ta'lim jarayoni, rivojlantirish, psixik va jismoniy rivojlanish, ikkilamchi nuqson, korreksion-pedagogik ishlar, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik tarbiya.

1. Tiflopedagogika fanining mavzu bahsi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (<https://lex.uz/docs/-5013007>), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (<https://lex.uz/acts/-3107036>), 2020-yil 15-oktabrdagi O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunlarni (<https://lex.uz/docs/-5049511>) amalga tatbiq etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nogironlikni oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarni ijtimoiy tiklash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish bilan ham bog'liqdir.

Tiflopedagogika (yunoncha "typhlos" so'zidan olingan bo'lib, ko'r va pedagogika ma'nolarini anglatadi) maxsus pedagogikaning ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini

ishlab chiquvchi sohasi. Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Tiflopedagogika ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ta'limni takomillashtirish yo'llarini, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab hamda maktabgacha muassasalar tuzilmasini, ularning ta'lim-tarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta'limning texnika vositalarini qo'llashdan iborat.

Umumiy pedagogikaning bo'limi sifatida dialektik falsafa, insoniylik tamoyillariga binoan ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar va kattalar rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olgan holda umumdidaktik tamoyillarni rivojlanadi. Tiflopedagogikaning tabiiy, ilmiy asosi I.M.Sechenov va I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati to'g'risidagi ma'lumoti sanaladi. Tiflopedagogika – umumiy pedagogika yetakchi qoidalari asosida ko'rishi chuqur o'zgargan bolalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanmoqda.

**Tiflopedagogikaning
eng asosiy vazifasi**

bolalardagi to'laqonli bo'lmagan ko'rish funksiyalaridan unumli foydalanish va ta'lim jarayonida ularni rivojlantirish, ularni saqlab qolish uchun sharoitlar yaratib berish, psixik va jismoniy rivojlanishda ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish va yengib o'tish uchun maxsus yo'naltirilgan korreksion-pedagogik ishlarni olib borishdir.

Aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya masalalarini pedagogik yechishda, politexnika ta'limida, tiflopedagogika, ularning psixologik-pedagogik klinik-oftalmologik kompleksini xususiyatlarini rivojlanishini o'rganishga tayanadi, chunki shulargina o'quv-tarbiya jarayonining korreksiyalash va o'rni to'ldirish

yo'nalishida bo'lishini ta'minlaydi. Ko'rish jarayoni chuqur buzilgan bolalar rivojlanishining korreksiyasi umumta'lim va mehnat tarbiya jarayonida hamda maxsus korreksiya mashg'ulotlarida va yakka mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Tiflopedagogikada qo'llaniladigan metodlar bo'yicha o'quvchilar ommaviy o'rta ta'lim bilimlarini birmuncha ko'proq vaqt davomida o'zlashtiradilar. Ko'rlar maktabida ta'lim effektivligi relyefli yozuvning hozirgi zamon vositalarini qo'llash orqali erishiladi. Har xil ko'rgazmali vositalar orqali, ko'zi ojizlar maktabida umumta'lim predmetlarini o'qitish uchun katta shriftli darsliklar yaratilgan bo'lib, ularda ko'rgazmali illyustrasiyalarda tasvirlangan obyektlarning asosiy belgilari ajralib turadi. Ta'lim tizimining sifatini oshirishda ko'rlar maktabidagi tiflografika va tiflotexnikasining o'rni kattadir.

Zamonaviy tiflopedagogikada – rivojlanish nuqsonlari va anomalialarini tugatish va oldini olish yo'llarini buzilgan funksiyalarni kompensatsiyalash mexanizmlari va shartlari, turli yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish, ularni o'qitishni nisbatan yuqori pog'onaga ko'tarish, ushbu toifa shaxslarni kelgusi hayotda o'z o'rinlarini topishlariga muvaffaq bo'lishlari muhim. Buning uchun bir qator metodlardan foydalaniladi.


1. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish.

Tiflopedagogikaning muammolaridan biri adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlashdir. Tiflopedagoglarning adabiyotlar bilan ishlashi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash rivojlanish davrlarini o'rganishga imkon beradi.

2. Pedagogik nazorat

Pedagogik nazoratni tashkil qilishdan biror maqsad ko'zda tutiladi, pedagogik jarayonlarining vazifasi, ish rejasi nazorat qilgan jarayon aniq vaqt to'liq qilib olib boriladi. Kuzatishdan maqsad tajriba to'plash va ilmiy-pedagogik analizdir. Kuzatuvchi darsda o'qituvchi ko'nikmasi va o'quvchilarni darsdagi mavzuni qay darajada qabul qilishini, darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning natijasi aniqlanadi. Bu natija salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin. Kuzatuv jarayonida

zamonaviy texnik vositalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi (magnitafon tasmasiga tushurish, kino tasmasiga tushurish, kompyuter va h.k)



3. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish.

Ko'pgina kuzatuvchi – tiflopedagogik, defektologlar ilg'or o'qituvchi va tarbiyachilar tajribasidan foydalanganda, yosh va boshqa o'qituvchilar ishi bilan taqqoslanadi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish uzoq muddatga rejalashtirilgan, aniq ishlab chiqilgan reja bo'yicha amalga oshiriladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, uning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tamoyil, metod va pedagogik ta'sir, bilim, qobiliyat, o'quvchilarni rivojlanishdagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik tajriba o'quv va tarbiyaviy jarayondagi ilmiy maqsaddir.

4. So'rovnoma.

Kuzatishda keng qo'llaniladigan metodlaridan biri so'rovnoma. So'rovnoma yozma (testlar) yoki intyervyu (so'zli) bo'lishi mumkin. Bu metod o'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'rganilayotgan obyekt yoki shaxsning qiziqishlari, qarashlari bo'lishi mumkin.

5. Suhbat.

Kuzatuvda keng qo'llaniladigan metodlardan biri suhbat metodidir. Bu metod ko'r va zaif ko'ruvchilar va ularning ota-onalari, tiflopedagoglardan olingan ma'lumotlar orqali olib boriladi. Bunda pedagog kuzatuvga olingan shaxs uchun aniq maqsadga yo'nalgan savollar tuzilgan bo'lmog'i lozim.

6. Bolalar ishini o'rganish.

Bolalar ishini o'rganish metodi bolalarning bilimlarini va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Bunda har xil rasmlarni tahlil qilish, har xil qog'ozlar, plastilin, loy va hamirdan foydalaniladi. Ularning ishi analiz qilinganda, uning tez tugatilganini emas, balki bosqichma-bosqich bajarilishi, xatolari va h.k hisobga olinadi.

Ular bilimlarini aniqlashda o'qituvchi yoki kuzatuvchi yozma ishlar, insho bayonlar o'tkazishi mumkin.

7. Maktab hujjatlarini o'rganish.

Pedagogik hujjatlarni o'rganish orqali (dars konspekti, darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy reja, bayonnomalar, pedagoglar yig'ilishining hisoboti, o'qituvchilarning metodik yig'ilishlari) o'quv-tarbiyaviy jarayonni, maktabdagi pedagoglarning erishgan ishlariga xulosa qilish mumkin. O'quvchilarning shaxsiy hujjatlarini o'rganish har bir o'quvchini ruhiyatini, qobiliyatini aniqlashda yordam beradi.

Ko'rishida muammolari borlar uchun maxsus maktablarda mehnat ta'limi tiflotexnik vositalar yordamida politexnik ta'lim asosida amalga oshiriladi va bu maktablarning o'quvchilarida nafaqat eng oddiy hunarmandchilik kasblarini o'rganishga balki ulardan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, ko'zi ojiz bolalar uchun mo'ljallangan mutaxassisliklar ko'lamini ham kengayadi. Tiflopedagogika ko'r va ko'zi ojiz bolalarning jismoniy tayyorgarligini amalga oshirishda maxsus metodlarga ahamiyat beradi, chunki u differensiallashgan va nafaqat umumjismoniy tayyorgarlik, balki o'quvchilarning harakatlanishini va atrof olamni idrok etishini ta'minlaydi. Maxsus maktablarning boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan korreksion mashg'ulotlarda ko'rish jarayonida

chuqur o'zgarishlar sodir bo'lgan bolalar atrof olamda va ijtimoiy yo'naltirish ishlari olib boriladi va bolalar o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatiladi, bolalarga nutq jarayonidagi nuqsonlarni tuzatishga logopedik yordam ko'rsatiladi, qoldiq ko'ruvni rivojlantirish mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ko'zi ojiz bolalar bilan korreksion ishlarni kichik yoshlardan boshlashning alohida foydaliligini hisobga olgan holda tiflopedagogika ko'r va ko'zi ojiz bolalarning maktabgacha tarbiyasiga katta ahamiyat beradi.

Tiflopedagogikaning eng asosiy muommolaridan biri – ko'rlar va ko'zi ojiz bolalarni umumta'lim maktablarda o'qitishdir. Umumta'lim maktablarda o'qitish pedagoglardan maxsus tayyorgarlik talab qiladi, o'quv jarayonining ko'rgazmali jihozlar bilan jihozlanishi, o'qituvchi va o'quvchiga mutaxassis tiflopedagolar tomonidan yordam ko'rsatish tizimini tashkillashtirish talab qilinadi.

Tiflopedagogika fanining asosiy vazifalari demak quyidagilarni tashkil etadi:

Ko'rishda jiddiy nuqsoni bo'lgan shaxslarni psixologik – pedagogik va kinetik jihatdan o'rganish.	Bu kabi nuqsonlar mavjud bo'lganda ruhiy va jismoniy rivojlanish anomalialari va ko'rish funksiyasi tuzilishlarini aniqlash.	Ko'rish va ko'zi ojizlarda buzilgan va to'la rivojlangan funksiyalarni kompensatsiyalash, korreksiyalash va tiklanishning yo'llari va shartlari.	Shaxsning ko'rish funksiyalari tuzilishlari mavjud holda shakllanishi va har tomonlama rivojlanish shartlarini o'rganish. Fan asoslariga o'rganish politexnik, mehnat va kasb tayyorgarligi masalalarini hal etish.
Ko'r va ko'zi ojizlarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalari tiplari va strukturasi belgilash.	O'quv rejaları, dasturlari, darsliklar, xususiy metodikalarini tuzumining ilmiy asoslarini ishlab chiqarishdir.	Ko'rishda muammolari bo'lgan shaxslarning bilim imkoniyatlarini kengaytirish, ularni o'qitish va jamiyatda, mehnatga tayyorlash samaradorligini oshirish imkonini beradigan maxsus texnik vositalar yaratishdir.	To'laqonli bo'lmagan ko'rishni muhofaza qilish va rivojlantirish bo'yicha gigiyenik tadbirlar tizimini ishlab chiqarish.
Ta'lim-tarbiya va kasb tayyorgarligi uchun binolarni loyihalash, maxsus maktablarni rivojlantirishni yo'lga qo'yish.			

Tiflopedagogika zimmasiga qo'yilgan vazifalarni yechishda umumiy, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, oftalmologiya, maktab gigiyenasi, bolalar nevrologiyasi bilan hamkorlikda bajariladi.

2. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifi

Ko'ruv jarayonining buzilishi tug'ma va keyinchalik paydo bo'lishi mumkin. Tug'ma ko'rlik homilaning ona qornidagi vaqtida bo'lgan kasalliklar va shikastlanish oqibatida paydo bo'lishi yoki ba'zi bir ko'ruv nuqsonining nasldan-naslga irsiy o'tishi natijasida bo'lishi mumkin. Odatda qiyinchilik paydo bo'lgan ko'rlik ko'ruv organlarining kasallanishi oqibatida – to'r parda, shox parda markaziy nerv sistemasining kasalliklari (meningit, miyadagi shish, meningoensefalit) organizmning umumiy kasallanishi (qizamiq, gripp), miyaning travmatik shikastlanishi oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Ko'ruv analizatorining buzilishining rivojlanuvchi va turg'un turlari mavjud. Rivojlanadigan ko'ruv nuqsonida patologik jarayonlarning ta'sirida ko'ruv jarayonining doimiy ravishda yomonlashuvi ro'y beradi. Masalan, glaukomada ko'zning ichki bosimi ko'tarilib ketadi va ko'z to'qimalarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Sanitar – gigienik normalarga rioya qilinmaganda (o'quv va yozuvda) ko'zning yaqindan ko'rishi va uzoqdan ko'rishi sodir bo'ladi.

Astigmatizm, katarakta singari kasalliklar ko'ruv analizatorining turg'un nuqsonlariga kiradi. Bunday nuqsonlar ba'zi bir kasalliklar yoki ko'z jarrohlik operatsiyasi oqibatida bo'lishi mumkin. Demak, bolalarda ko'ruv analizatorining buzilishi homiladorlik vaqtida yoki tug'ilgandan so'ng paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarda ko'r tug'ulganlar, juda erta ko'rmay qolganlar va 3 yoshdan keyin ko'rmay qolganlar guruhiga ajratish mumkin. Bunday differentsiatsiyalash shunga asoslanadiki, bolaning keyingi rivojlanishi uchun bolaning qaysi yoshdan ko'rmay qolgani juda katta ahamiyatga ega. Masalan, tug'ma ko'rlar xotirasida har xil obrazli tasavvurlar umuman bo'lmaydi, lekin keyinchalik ko'rmay qolganlarda obrazli tasavvurlar qandaydir hajmda qisman saqlanadi. Bolaning psixik va jismoniy rivojlanishida ko'rish nuqsonining boshlanish, ya'ni yuzaga kelish muddati katta ahamiyatga ega. Ko'rmaslik qancha erta boshlangan bo'lsa, ikkilamchi nuqsonlar – psixofizik xususiyatlar ko'proq

namoyon bo'ladi. Tug'ma ko'rlarning psixik rivojlanishi sog'lom bolalarga o'xshash bo'ladi, lekin ko'ruv mo'ljalining yo'qligi ko'proq harakatlanish doirasida, turmush tarzid namoyon bo'ladi. Ko'rlar uchun tovush signallari o'ziga xos mo'ljal o'rni egallaydi, ko'radigan bolalar uchun ham tovushlar muhim rol o'ynaydi, ammo ko'rlar uchun tovush signallari mo'ljal olish uchun asosiy faktor hisoblanadi.

Ko'rish qobiliyatining yo'qotilishi bolalarda o'ziga xos xarakter, hissiy iroda doirasida sezgi tajribalarini shakllantiradi. Tug'ma ko'r bolalarda oliy bilish jarayonlarining rivojlanishi (qiziquvchanlik, mantiqiy fikrlash, xotira, nutq) normal holatda bo'ladi. Shu bilan birga sezgi va intellektual funksiyalar o'zaro aloqadorligining buzilishi, o'ziga xos fikrlash faoliyatidan mavhum fikrlash faoliyatining rivojlanishi ustunligida namoyon bo'ladi.

Keyinchalik ko'r bo'lgan bolalarni tug'ma ko'r bolalardan ajralib turishi ko'ruv jarayonini yo'qotgan vaqtiga bog'liq bo'ladi. Bola ko'rish jarayonini qancha kech yo'qotsa, unda shunchalik ko'proq ko'ruv tasavvurlari ko'proq bo'ladi va ularni so'z ifodalarida qaytadan tiklash mumkin. Agar ko'ruv xotiralarini rivojlantirilmasa asta-sekin ko'ruv obrazlarining xotiradan yo'qolib ketishi mumkin.

Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar yuqori darajada psixofizik rivojlanishga va bolani o'rab turgan dunyoni to'liq bilishga, bolada saqlanib qolgan analiz qilish tizimiga suyangan holda barcha imkoniyatlarga egadir. Maxsus ta'lim sharoitida, eshituv, teri, hid bilish, vibrasion va boshqa psixik jarayonlarning sensor analizatorlari rivojlanishi asoslarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari shakllanadi. Natijada idrok etishni kompensatsiyalashni, ya'ni bilim jarayonini olib formalarini rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'rlar oltinchi sezgi (harakat)ga egaligi ko'rsatilib, u ularga predmetlarni masofada sezishga ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratadi. Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensatsiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olish

lozim. Ko'rlikni kompensatsiyalash – deydi L.I.Solnseva – butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks etiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda shuningdek maydon orientirovkasini olishda va harakatlenganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Masalan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir predmetni ifodalaydigan xira-shira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlangandan normal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi.

Zaif ko'ruvchilar orasida ranglarni farqlash jarayonlari buzilgan, ko'ruvning kontakt sezgisi yetarli bo'lmagan shaxslar ko'p uchraydi, ranglarni idrok eta olmaslik patologiyasining tug'ma formali ham uchraydi.

Ko'zni harakatlantirish funksiyalarining buzilishi narsalarni idrok etish va ularni tasvirlashga ta'sir o'tkazadi, ko'z nigohini ma'lum bir nuqtada ushlab turishga xalaqit beradi, dinamik o'zgarishlarni, chiziqli va shartli kattaliklarni baholashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Shuning uchun korreksion ishlar – hodisalar va predmetlarni kuzatishning maxsus usullaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, u eshituv, ta'm bilish, hid bilishga asoslangan bo'lib, u bolalarda real hayotning murakkab sintetik obrazlarni yaratish imkonini beradi.

Zaif ko'ruvchilardagi saqlanib qolgan ko'ruv ularning rivojlanishiga, o'quv, mehnat va ijtimoiy adaptasiyasi (moslashuvi)da katta ahamiyatga ega, shuning uchun uni avaylab-asrash zarur, buning uchun muntazam tashxis qo'yish, ko'z shifokorida davriy konsultasiya o'tkazish, tiflopedagogda va psixologda konsultsiyalar o'tkazish zarur.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarda ularni o'rab turgan dunyoni idrok etish va bilishda teri orqali bilish katta ahamiyatga ega. Taktil idrok etish har xil kompleks sezgilar (qo'l tekkazish, bosim, issiqlik, sovuqlik, og'riq, materialning fakturasi va boshqalar) orqali ta'minlanadi va bular orqali narsalarning shakllari, o'lchamlari va har xil proporsional aloqalar aniqlanadi. Ter va shilimshiq qavatdagi nerv qoldiqlari tomonidan qabul qilingan har xil sezgilar bosh miya qobig'ining qo'l va barmoqlar ishi bilan bog'liq bo'limiga yuboriladi. Ko'rlar va ko'zi ojizlar xuddi shunday qo'llari va barmoqlari bilan "ko'rishga" o'rganadilar.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarning har xil faoliyat turlarida teri orqali bilishdan tashqari, eshituv va nutq ham muhim ahamiyatga ega. Ko'rlikni kompensatsiyalashning birinchi bosqichida yaratilgan differensiallangan eshituv va ovoz reaksiyalari narsalar bilan dastlabki tanishuvda va atrofdagi odamlar bilan muloqatda muhim rol o'ynaydi. Ko'r bola odamlarning diqqatini jalb qilish uchun tovush va so'zlardan foydalanadi. Kattalarning shunga mos reaksiyalari bolani unga nisbatan emotsiyasini (hayojonini) oshiradi.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar tovushlar orqali narsalarni va ularni o'rab turgan muhitning fazoviy xususiyatlarini erkin ifodalaydilar. Ular tovush orqali manbani va uning joylashishini ko'zi ko'radiganlardan yaxshiroq aniqlaydilar. Ko'ruv jarayoni buzilgan shaxslarda fazoviy eshituv juda yuqori darajada rivojlanganligi har xil tovushlar maydonida oriyentatsiya olish shartligi sababli yuzaga keladi.

Shu sababli ko'rlar va zaif ko'ruvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida farqlashga doir mashqlar o'tkaziladi, narsalarning xarakterlari tovush yordamida farqlanadi va baholanadi, murakkab tovush maydonini analiz va baholash, tovush signallari aniq bir narsalarga, moslamalarga, mexanizmlarga va bu ularda yuz berayotgan jarayonlarning yuzaga chiqishidan bo'ladi.

Ko'ruv jarayoni buzilgan shaxslarning har xil faoliyat turlarini muvaffaqiyatli egallashi (predmetli, o'yin, mehnat, o'qish) ko'rgazmali qurollar bilan yuqori darajada ta'minlanish va rivojlantirish, fazoviy fikrlash, fazoviy

mo'ljalga olishni egallash bilan bog'liq. Fazoviy mo'ljal fazoda (maydonda) erkin harakatlanishning muhim qismidir.

Ko'rishda nuqsonli bolalarni ikki guruhga ajratish mumkin: • 1. Ko'rlar; • 2. Zaif ko'ruvchilar.	Ko'rlar ko'ruv o'tkirligi ko'ra 2 turga bo'linadi: • 1. Total ko'rlar. 0 ko'rish o'tkirligi; • 2. Qisman ko'rlar. Ko'rish o'tkirligi 0,005 gacha	Kelib chiqishiga ko'ra ko'rik 2 turga bo'linadi: • 1. Tug'ma; • 2. Ortirilgan.	Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi: • 0,05dan 0,1 gacha; • 0,1dan 0,2 gacha; • 0,2 dan yuqori 0,4gacha.
--	--	--	--

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda birlamchi nuqsonlar patologiyasi yuzaga keladi: ko'rish o'tkirligi, rang ajratish, ko'rish maydoni, yorug'likni sezish va hokazo.

Ko'ruv o'tkirligi – ko'zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayri-ayri ko'ra olish layoqatidir.

Ko'ruv maydoni – bu odam ko'zlari va boshni qimirlatmay turganida ko'rib idrok etadigan maydondir.

Yorug'likni sezish. Ko'zni qorong'ulikqa qarab adaptometrlar maxsus asbobda yorug'likda tekshiriladi.

Maxsus va to'g'ri tanlangan o'qitish metodikasi qo'llanmasligi natijasida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi, bular quyidagilar bo'lishi mumkin.

- sensor apparatlarning to'liq shakllanmaganligi;
- tasavvur va tushunchalar borasidagi kamchiliklar;
- fikrlashdagi kamchiliklar;
- nutq rivojlanishidagi kamchiliklar;
- harakatdagi kamchiliklar;

Faqat maxsus ta'lim-tarbiya sharoitidagina ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalashga sharoit mavjuddir.

Ikkilamchi nuqsonlar namoyon bo'ladigan sohalar:

Alebbliopiya bilan og'rigan bolalarda ko'rib idrok etish, harakat sohasida (harakatlar aniqligi, koordinatsiyasi buzilishi, mayda matorika makonda orientrlash, oynada aks etganda o'ng va chap tushunchalari rivojlanmagan), predmetli tasavvurlar sohasida hajm biroz kichikroq bo'ladi.

Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarda predmetli tasavvurlar zaxirasi ancha kam, ular mavjud tasavvurlar, obrazlar bilan ishlashda qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi ko'r bolalarda harakatchanlik sustligi, harakat malakalarini aniq shakllanmasligi, makonda orientatsiyalash ancha buzilganligi, makondagi yo'nalishlarni ajratishda nuqsonlar, makonda harakatlanish chog'ida orientatsiyalashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ko'r bolalarda ikkilamchi nuqsonlar bilish faoliyatida ham namoyon bo'ladi, predmetlar haqida tasavvurlar ozligi, predmetlar haqida tasavvurlar yo'qligi, tasavvurlar uzuq-yuluqligi va boshqalar.

Ko'rish qobiliyatining buzulishiga quyidagi kasalliklar sabab bo'ladi.

1. Albinizm – terida, ko'zda, sochda rangning (pigmentning) bo'lmashligi bilan tug'ilish. Ularda rangsiz teri va juda yorqin oq-sariq soch bo'lishi mumkin (odatiy yetnik gruppalardan tashqari). Albinizm ko'ruv faoliyatiga ta'sir qiladi.

2. Katarakta – bu ko'z linzalarining xiralashuvi oqibatida yorqin ko'rishni qiyinlashtiradi. Katarakta ko'p hollarda bir necha sabablar bilan bog'liq. Ko'p bolalar katarakta bilan tug'iladi. Katarakta ko'zdagi qizarishlar, shishlar va boshqa ko'z kasalliklaridan bo'lishi mumkin. Bunda bolaning ko'zi odatdagidan kichikroq bo'ladi. Homiladorlik davridagi infeksiyalar ham kataraktaga sabab bo'lishi mumkin.

3. Diabetga aloqador ko'z kasalligi. Ko'p davlatlarda ko'rish zaiflashuvining asosiy sababchisi sifatida ko'rsatiladi. Bundan glaukoma, katarakta diabetik retinapiya kelib chiqishi mumkin.

4. Glaukoma – ko'ruv nervi miyaga ma'lumotni beradi. U shikastlanganda ko'zda bosim oshadi. Ko'zlarning to'g'ri ishlashi ularning shaklini ushlab qolishi sog'lom bo'lishi uchun bosim 23 ma'lum miqdorda bo'lishi kerak. Bosim juda yuqori bo'lsa bolada quyosh yoki yorqin nurlarda noqulaylik kuzatilishi, bolada

g'ilyalik bo'lishi (bolaning ko'zlari turli tomonga qarashi) yoki "dangasa ko'z" (bir ko'zning boshqasiga qaraganda kuchsizligi)ning bo'lishi va ko'z yoshlanishi mumkin.

5.Daryo ko'rlik. Daryo bo'yida yashaydigan qora pashsha tomonidan yuqadigan, ko'zlarning hamma ichki to'qimalari zararlanib, qon ketish, qizarish, shish va boshqa yakuniy asoratlar bo'lsa ko'rlikka olib keladi. Ta'siriga uchragan kishilarning 99% Afrikada, 1%i Yaman, Meksika, Gvatemala, Ekvador, Kolumbiya, Venusuellada yashaydi. Astigmatizm bilan yoki astigmatizmsiz keladigan miopiyalar (yaqindan ko'rish) gipermetropiyalar (uzoqdan ko'rish) kiradi.

6.Pigmentli retinet retinetli kasallik. Birinchi belgisi, yerta bolalikda salbiy ta'sir bilan ro'y beradi. Qorong'ida kuchsiz ko'radi va ko'rish maydoni torayishni boshlaydi. Pigmentli retinit turmushda va oilaviy hayotda uchraydigan eng odatiy ko'z kasalligidir.

7.Traxoma. Chivinlar orqali yuqadigan kasallik. Bunda ko'zdan infeksiya ajralib chiqadi. Bir necha yillardan keyin infeksiya takrorlanadi, ko'zning ichida chandiqlar bo'lishi, qovoqlar og'rishi, ko'zi ojizlikka ham olib kelishi mumkin.

3.Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi

Tiflopedagogika fanining rivojlanishi XVII asrlargada G'arbiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar uchun dastlabki o'quv muassasasi tiflopedagogika fani asoschisi fransuz pedagogi V.Gayui tomonidan 1784-yilda Parij shahrida tashkillashtirilgan.



V.Gayui
1745-1822

XVIII-XIX asrda ko'rlar uchun bunday maktablar Buyuk Britaniyada, Avstraliyada, Gyermaniyada va AQShda tashkil qilingan. Ko'rlar uchun tashkil qilingan bunday maktablarda o'quvchilarga yozuv, o'quv, hisob-kitob, eng oddiy hunarmadchilik va musiqaga o'qitilgan. XIX asr o'rtalarida ko'rlar uchun o'qish va yozishda L.Brayl tomonidan 1829-yilda ishlab chiqilgan relyefli, nuqtaviy shrift varianti tarqaldi.



L.Brail
1809-1852

Ko'rishda muammolari bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan ko'p sonli relyefli va relyefli-nuqtaviy alifbolar orasidan L.Brail shrifti o'quv va yozuv uchun sonlarni belgilash va nota belgilari uchun eng samaralisi bo'lib chiqdi.

ALIFBO

Aa	Bb	Dd	Ee
Ff	Gg	Hh	Ii
Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq
Rr	Ss	Tt	Uu
Vv	Xx	Yy	Zz
O'o	G'g	Sh sh	
Ch ch	Ng ng		

Lotin brail alifbosi

Hozirda u ko'rlar uchun kompyuter texnikasi va kalkulyatorlar uchun asosiy kod hisoblanadi. Ko'pchilik xorijiy davlatlarda uning zaminida o'quv ishlarini tez olib borish tashkillashtirilmoqda, chunki L.Brail shrifti bo'yicha yozish va o'qish sog'lom insonlarning o'qish va yozishdan bir muncha sekinroqdir.

Rossiyada ko'rlar uchun birinchi maktab 1807-yilda Peterburg shahrida ochilgan. Tiflopedagogikaning rivojlanishi va ko'rlar ta'limi tizimining Rossiyada tarqalishi K.K.Krot, A.I.Skrebiskiy va boshqalarning nomlari bilan bog'liq. Ko'zi

ojizlar maktablarining bitiruvchilari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 3 va 4-sinflari va hunarmandchilik tayyorgarligi hajmida ta'lim olishgan. Ushbu muassasalarda ko'zi ojiz bolalarning 4-5% gina ta'lim olishgan. Sobiq Sovet Ittifoqida ko'zi ojiz bolalarning ta'lim olishi umumdavlat Xalq Ta'limi tizimiga kiritilgan.

Rossiyada va xorijda sotsialistik Mehnat Qahramoni Lenin mukofoti laureate (1962-y) Davlat mukofoti laureati (1941-y) akademik L.S.Pontreginning nomi mashur. 14 yoshligida ko'rish qobiliyatini yo'qotib, u a'lo darajada o'rta umum ta'lim maktabini bitirdi. So'ngra MDUning fizika-matematika fakultetini tamomladi. U tomonidan muhim ilmiy kashfiyotlar qilindi, matematikaning yangi sohasi – topologik algebraga asos soldi. L.S.Pontregin – bir qancha fundamental ishlarning muallifi, u tomonidan kommunikativ gruppalar nazariyasiga asos solindi. Hozirda L.S.Pontregin xizmatlari juda yuqori qadrlanib, orden va medallar bilan taqdirlangan.

Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi A.G.Vitushkinning fanga qo'shgan hissasi beqiyosdir. U 15 yoshida ko'rish qobiliyatini yo'qotadi. Ko'rlar maktabini oltin medal bilan tugatib, MDUning fizika-matematika fakultetiga o'qishga kiradi. 26 yoshida "Jadvallashtirishning murakkab masalalarini baholash" monografiyasi uchun fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasini olgan. 1967-yilda "Variativ ko'pliklar va ularni murakkab algoritmlarni baholashda qo'llanilishi" ishi uchun Davlat mukofotini oldi. Rus olimlari ichida tiflopedagogika fanining yorqin sahifalariga hissa qo'shganlari mavjud. Jumladan, A.V.Birilev, A.M.Sherbinalardir.

Ayrimlar defektologiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bunga Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, pedagogika fanlari doktori professor B.I.Kovalenko misol bo'la oladi. Defektologiya tarixiga B.I.Kovalenko yorqin iste'dod sohibi sifatida kirgan. U Smolensk shahridagi ko'rlar maktabida o'qituvchilikdan Leningrad pedagogika institutining tiflopedagogika kafedrasi mudiri vazifasigacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. U tomonidan ko'r

bolalar uchun dastlab boshlang'ich, so'ngra sakkiz yillik, keyinchalik o'rta maktablar tashkillashtirish rejalari ishlab chiqildi. Uning fikrlari va g'oyalarida matematika, rus tili, jismoniy ta'lim, ko'rlarga qisqartirilgan yozuv uchun metodik qo'llanmalar aks ettirilgan va bular minglab ko'r bolalarning o'qituvchilari va tarbiyachilari uchun kundalik qo'llanma bo'lib kelmoqda. O'zining ilmiytashkilotchi metodik faoliyati uchun B.I.Kovalenko Mehnat Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi.

Tiflopedagogika tarixiga pedagogika fanlari doktori V.S.Sverlov ham kiritilgan. U bir qancha original ishlarning yaratuvchisidir. U 8 yoshida ko'rish qobiliyatini yo'qotdi, ko'rlar maktabida o'qidi. So'ngra Leningradda LDUning geografiya fakultetiga o'qishga kirdi. Kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, amaliy qobiliyat kabi xislatlarning jamlanmasi V.S.Svyerlovga ko'rlarning atrof olamni idrok etish muammolarini ishlab chiqishga ko'mak berdi, tiflotexnika, ko'rmaslik orqasidan nogironlik nafaqasiga chiqqan kishilarni ish bilan ta'minlash, ko'rlar maktablari uchun globus va relyef kartalar ishlab chiqishga yordam berdi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan rus olimlari yoki xorijiy davlat tiflopedagogika tarixiga salmoqli hissa qo'shgan shaxslar talayginadir. Ularning fan sohasini yuksalishi uchun meros sifatida qoldirgan o'lmas asarlarini hozirda tiflopedagoglar, defektologlar oltin qo'llanma sifatida foydalanib kelmoqdalar.

Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakultetida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, shuningdek, p.f.n. G.Berdiev, K.Mamedov, R.Oxunov, N.Abidova, Sh.Xalilova, O.Rustamov, D.Sultonova, Z.Djalolovalar o'qituvchi N.A.Grigoryanslar tiflopedagogika sohasida salmoqli izlanishlar olib bordilar. O'zbekistonda ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan birinchi maktab 1929-yilda Toshkent shahrida ochilgan. Hozirda Respublikamizning turli hududlarida 16 ta ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun mo'ljallangan o'quv muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda.

4. Brayl tizimining yaratilishi

Relyef shrifti – maxsus hajmli shrift bo‘lib, ko‘r bolalarni o‘qish va yozishlari uchun moslashtirilgan. XVIII asr o‘rtalarida Fransiyada ko‘r bolalarni ommaviy o‘qitishda, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida fransuz tiflopedagogi V.Gayui kesma relyefli shriftini lotin alifbosi bo‘yicha kattalashtirilgan shaklini taklif etadi. XIX asr boshlarida relyefli shriftning ancha osonlashtirilgan bosma shrifti yuzaga keladi. Ayniqsa ko‘p qo‘llaniladigan turlari chiziqli va ignali bo‘lgan. Tiflopedagogika tarixiga nazar salsak, bir necha marotaba relyef nuqtali shriftni yaratishga harakat qilingan. 1829-yil fransiyalik tiflopedagog olim Lui Brayl relyefli nuqtali shriftni yaratdi. Bu shrift butun jahondagi ko‘rlarni o‘qish va yozishini ta‘minlovchi vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

1809-yil 4-yanvarda Fransiyadagi Kuvra shaharchasida Simon Rene Brayl oilasida o‘g‘il farzand dunyoga keladi. Uni ismini Lui deb atashadi. Lui 3 yoshga to‘lganida fojia ro‘y beradi: u ko‘zini pichoq bilan shikastlab oladi. Shundan so‘ng bolaning jarohatlangan ko‘zlari shamollash natijasida ko‘rish qobiliyatini yo‘qotadi. Luining ota-onasi farzandiga dastlabki mehnat ko‘nikmalarini shakllanish tirishga yordam bera boshlaydilar. Jumladan: ot uchun gilamcha to‘qish, yengil oyoq kiyimlarini tikish kabi ishlarni Lui qunt bilan o‘rganadi. Musiqa o‘qituvchisi bilan birgalikda skripka chalish bilan shug‘ullana boshlaydi. Qishloq maktabida Lui oddiy tayoqchalar yordamida alifboni o‘rgana boshlaydi.

1819-yili Parij shahridagi ko‘r bolalar o‘qiydigan institutga qabul qilinadi. Ushbu institut tarbiyalanuvchilariga savod, musiqa, to‘qish va tikish saboqlari berilardi. Mashg‘ulotlar uchun relyefli – chiziqli shrift bilan yozilgan darsliklar ko‘pgina predmetlar uchun mavjud emas edi. Talabalar musiqa notalarini faqatgina eshitib eslab qolish orqali o‘rganar edilar.

Lui Brayl institutning eng qobiliyatli talabalaridan biri edi. 1828-yili Lui Brayl institutni bitirib, kichik o‘qituvchi vazifasiga ishga qabul qilinadi. Shundan so‘ng ushbu institutda geografiya, algebra, musiqa fanlaridan dars bera boshlaydi.

O‘qituvchilik bilan birga Parijdagi Sen Nikolya de Shan nomli cherkovda organchi lavozimida ishlaydi. Lui Brayl o‘qish va ishlash jarayonida Xauning bo‘rtma harflari hamda uning metodikasini, artilleriyachi ofitser Sharl Barbe tomonidan ishlab chiqilgan ma‘lumotlarni jo‘natish uchun mo‘ljallangan relyefli shriftni puxta o‘rganib chiqadi. Harflar karton teshikchalarda joylashgan bo‘lib, “o‘qish”da qiyinchiliklarni tug‘dirar edi. Bundan tashqari Barbening harfiy timsollari katta-katta bo‘lib, kichik yoshdagi ko‘r bolalarga o‘qishda qiyinchilik tug‘dirar edi. Shunga qaramasdan Barbening relyefli-nuqtali alifbosi L.Braylga ijodiy impuls beradi, u relyefli-nuqtali sistema yaratishga kirishadi. U xayolan yaratilajak “tizim” ko‘rlar uchun barcha predmetlardan saboq berishga mo‘ljallanishi lozim deb o‘ylaydi. L.Brayl 1924-yilning yarmidan, ya‘ni 15 yoshda dastlabki eksperiment ishlarini boshlab yuboradi. Bu kichik tizim ikkita vertikal qatordan iborat bo‘lgan 1, 2, 3 raqamlari chap tomonda, 4, 5, 6 raqamlari o‘ng tomonda joylashtirilgan edi. Bu sistema 63 ta kombinatsiyadan iborat bo‘lib, musiqa notalari, matematik sonlarni ham o‘z ichiga olgandi. Ushbu sistema ustida Brayl uzoq yillar ishlaydi. 1929-yili institut sovetiga ixtironi ko‘rib chiqish uchun topshiradi. Lekin sistemani qo‘llab-quvvatlamaydilar. “Sog‘lom o‘qituvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi” degan fikrlar yuzaga keladi.

Ammo 1837-yili institut sovetiga yana qayta topshiriladi. Lui Brayl tomonidan yozilgan “Fransiya tarixi” nomli asari relyefli-nuqtali alifboda chop ettirishga ruxsat beriladi. Asar dunyoga kelgandan so‘ng Brayl alifbosi to‘liq tan olinadi va ta‘sis etiladi. Brayl tizimi 1853-yili Fransiyada keng tarqaladi. Lui Brayl tomonidan yaratilgan alifbo uchun maxsus moslamalar ishlab chiqiladi. Rossiyada 1885-yili A.A.Adlyerning asari Brayl sistemasida chop etildi.

Lui Brayl 1852-yili 6-yanvarda kasallik tufayli vafot etadi. Kuvra shahrida Lui Braylning uy muzeyi ochilgan. 1887-yili shaharchada Lui Braylning haykali o‘rnatildi.

Aslida o‘qish va yozishda nuqtalar bir xil raqamlarga ega, ammo chapdan o‘ngga o‘qiladi hamda o‘ngdan chapga yoziladi.

Brayl shriftining o'qilishi va yozilishida bir necha qoidalarga amal qilish lozim.

O'qish jarayonida rioya qilinadigan qoidalar:

- boshni va umurtqa pog'anasini to'g'ri tutish lozim;
- beli stulning suyanig'iga suyanib turishi, qo'llar stolning ustida bo'lishi lozim;
- o'qish ko'rsatkich barmoqda olib boriladi, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i bilan bir qatorning oxirgi so'zini o'qib bo'lgandan keyin ikkinchi qatorning birinchi so'zi chap qo'lning ko'rsatkich barmog'idan o'qiladi;
- kaftlar kitob betiga tegar-tegmas holatda, barmoqlar sal bukilgan bir-biriga qisman tegib turadi. Barmoq uchlari qator bo'lib juplanadi;
- barmoq uchlari (ikkala qo'lni ham) qatorda chapdan o'ngga bir tekisda harakatlanib boradi;
- kitob stol ustida to'g'ri turishi kerak.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Tiflopedagogika fanining maqsad va vazifalarini aytib bering.
2. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifini sharhlang.
3. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi haqida so'zlab bering.
4. Brayl tizimining yaratilishi va brayl alifbosi haqida aytib bering.

8-MAVZU: LOGOPEDIYA

LOGOPEDIYAGA OID MILLIY VA XORIJIY ILMIY TADQIQOTLAR

REJA:


1. Logopediya fanining maqsad va vazifalari.
2. Logopediyaning ahamiyati.
3. Logopediyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Nutq apparatining tuzilishi.
5. Nutqning hosil bo'lish mexanizmi.

Tayanch so'zlar: nutq, logopediya, logoped, tashxis, nutq a'zolari, ontogenez, nutqni tarbiyalash, nutqning hosil bo'lish mexanizmi, alohida nutq markazlari.

Kirish

Fikr – jism-u, so'z – libos. Nutqni o'z vaqtida to'g'ri egallash, bolaga atrofdegilar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z xulqini boshqarishga yordamlashadi, bola ruhiy faoliyatini rivojlanishiga ko'maklashadi va nihoyat, ta'lim-tarbiya olish jarayonini ancha yengillashtiradi. Nutq faoliyatidagi muammolar bilan esa logopediya sohasi shug'ullanadi.


Logopediya bu – nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlar, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar.



Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoliyati zaiflashgan shaxslarni oʻqitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Logopediyani oʻrganish obyekti – nutq nuqsoniga ega boʻlgan shaxs. Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan bir oz boʻlsa ham chetga chiqish – bu nutq nuqsoni hisoblanadi.




1. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari



I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal sistemalari orasidagi oʻzaro taʼsir haqidagi, shartli reflekslik aloqalarining shakllanish qoidalari haqidagi nazariyalari, P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi taʼlimoti, ruhiy funksiyalarni dinamik tarzda cheklash haqidagi taʼlimot (I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, A.R.Luriya) va nutq faoliyatining zamonaviy neyropsixolingvistik nazariyalari haqidagi taʼlimot logopediyaning tabiiy-ilmiy, psixofiziologik asosidir. I.P.Pavlov taʼlimotiga muvofiq nutq bosh miyaning murakkab psixologik funksiyasini, uning ikkinchi signal tizimini oʻzida namoyon etadi. Bu esa signalarning signali sanaladi. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari bir-biri bilan uzviy bogʻlangandir. Ikkinchi signal tizimi birinchi tizim asosida shakllanadi. Ammo keyinchalik ikkinchi signal tizimining birinchi signal tizimiga tartibga soluvchi taʼsiri namoyon boʻladi. Soʻz aloqa xususiyatning signali, umumlashtirish, mavhumlashtirish qurolidir. Birinchi va

ikkinchi signal tizimlari orasidagi o'zaro murakkab aloqalarni hisobga olish nutq buzilishini tuzatish, buzilgan nutq va nutqsiz funksiyalarning o'zini bosish ustida samarali logopedik ish olib borish uchun imkoniyat yaratadi.



Logopediyaning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarida uning ham **nazariy**, ham **amaliy** yo'nalishlari belgilab berilgandir. Uning **nazariy tomoni** – nutq buzilishlarini o'rganish hamda ularning oldini olish, aniqlash va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishdan iborat. **Amaliy tomoni** – nutq buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biriga bog'langandir.

Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

a) fanlararo aloqalardan foydalanish va nutq hamda undagi nuqsonlarni o'rganuvchi ko'plab mutaxassislar (psixologlar, neyropsixologlar, neyrofiziolloglar, tilshunolar, pedagoglar, turli ixtisosdagi shifokorlar va boshqa kishilar)ni hamkorlikda ish olib borishga jalb etish;

b) nazariya sohasidagi yangiliklarni amaliyotga tezroq tatbiq etish uchun fan va amaliyot o'rtasidagi aloqalarni, nazariy va amaliy muassasalar orasidagi hamkorlikni ta'minlash;

d) nutqning buzilishini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish tamoyillarini amalga oshirish;

e) nutq buzilishining oldini olish uchun aholi o'rtasida logopedik bilimlar targ'ibotini olib borish.

Yuqoridagi vazifalarning bajarilishi logopediyaning ta'sir kuchini belgilaydi.

Logopedik ta'sir etishning asosiy yo'nalishi nutqning rivojlanishi, nuqsonli nutqni tuzatish va nuqsonlarning oldini olishdan iborat. Logopedik ish jarayonida sezuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish; uni harakatga keltiruvchi kuch, ayniqsa, qo'lda ta'sir etuvchi harakatlarni bilish, ayniqsa, tafakkur faoliyatini, xotira, diqqat jarayonlarini rivojlantirish; shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, yaxshilash bilan bir vaqtda bola shaxsini tarkib toptirish; ijtimoiy muhitga ta'sir etish nazarda tutiladi.

Logopedik jarayonni tashkil etish nutq buzilishini to'g'rilash bilan bir qatorda psixofizik nuqsonlarni ham tugatish yoki yengillatish uchun sharoit yaratadi. U pedagogik ta'sir qilishning muhim maqsadi bo'lgan shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beradi.

2. Logopediyaning ahamiyati

Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. U tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyatning chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi.

Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu

munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xshash emas va ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo'ladi.

Nutqiy muomala qobiliyatini o'zlashtirish o'ziga xos insoniy, ijtimoiy aloqalar uchun zamin hozirlaydi. U tufayli bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllanadi va oydinlashadi, uni aks etirish shakllari takomillashadi.

Bolaning nutqni o'zlashtirishi uning xatti-harakatlarini anglash, rejalashtirish va tartibga solishga imkon beradi. Nutqiy muomala faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mehnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlarining xususiyatiga bog'liq holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og'ir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta'sir etishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bog'liqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalarning cheklanganligi bilan bog'langandir. Bu jarayonda bolaning atrof-muhitni idrok etishi amalga oshadi.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bo'lmagan ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy fazilatlar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nomukammallik tuyg'usi)ning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin.

Bularning barchasi savodxonlikni egallashga, umuman o'zlashtirishga, kasb tanlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, logopediya fanining ahamiyati bolaning nutqiy buzilishini bartaraf etish, shu bilan birga uning mukammal, har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

3. Logopediyaning boshqa fanlar bilan bo'liqligi

Logopediya boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langandir. Shaxsga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, nutq buzilishini bartaraf etish va oldini olish bilan omilkorona

shug'ullanish uchun nutqdagi nuqsonlarning belgilarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibidagi nutqiy va nutqsiz belgilar munosabatlarini bilish kerak. Bu logopediyaning boshqa fanlar bilan bo'ladigan aloqasini belgilaydi.

Tizimlar ichidagi va tizimlararo aloqalar bor.

Tizim ichidagi aloqalar

☐

☐ pedagogika

☐ surdopedagogika

☐ oligofrenpedagogika

☐ tiflopedagogika

☐ umumiy psixologiya

☐ maxsus psixologiya

Tizimlararo aloqalar

☐

☐ tibbiy-biologik

☐ tilshunoslik fanlari

Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi va harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalanadi.

Nutq buzilishi mexanizmlarini tushunish tuzatish jarayoni qonuniyatlarini aniqlash uchun oliy ruhiy funksiyalarning dinamik lokalizatsiyalanishi to'g'risidagi, nutqning ongda shakllanishi borasidagi bilimlarni egallash kerak bo'ladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning zahirida muloqot jarayonidagi til belgisi tartiblaridan qo'llanish yotadi. Tilning murakkab tizimi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsulati bo'lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o'zlashtirib olinadi.

Nutqiy tizim bosh miya a'zolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri nutq faoliyatining o'ziga xos vazifasini bajaradi.

A. R. Luriya miya faoliyatini uchta funksional blokka ajratadi.

Birinchi blok – bosh miya po'stlog'i osti (yuqori stvol va limbik oblast) haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. U bosh miya qatlami tonusining normalligi va uning tetiklik holatini ta'minlaydi.

Ikkinchi blok – orqa miyaqatlami katta yarimsharlari bo'laklarini o'z ichiga oladi, tashqi dunyodan olingan sezgi axborotlarini qabul qiladi, qayta ishlaydi va saqlaydi. U bilish (gnostik) jarayonini amalga oshiradigan asosiy miya apparati hisoblanadi. Uning tuzilishi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi doiralarga ajraladi. Birlamchi doira – miya qatlamining proyeksion doiralardir, uning neyronlari juda ham yuqori darajada o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda alohida sezgi a'zolaridan sezgi axborotlarini qabul qilish hodisasi yuz beradi.

Miya qatlami apparatlarining birlamchi doiralari ustidan ikkilamchi doiralar qurilgandir. Ular birlamchi doira orqali olingan qo'zg'alishlarni tashkil qiladi. Ikkilamchi doiralar birlamchi doiralar kabi, o'zining ixtisosiy modalligi (ko'rish, eshitish va boshqa doiralar)ni saqlaydi. Birlamchi va ikkilamchi doiralar u yoki bu analizator (ko'rish, eshitish va boshqalar)ning bosh miya qatlami birikmasini o'zida namoyon etadi.

Uchlamchi doiralar analizatorlarning miya qatlami bo'linmalarini o'zgartirish doiralari hisoblanadi. Ular turli modallikda olingan sezgi axborotlarini tahlil, sintez, integratsiya qilish vazifasini o'taydi. Ularning faoliyati asosida sintezlarning beqaror va tashqi darajasidan simvolik darajaga e'tiborini qaratish munosabatlari, murakkab logik-grammatik so'zlar qurilishi haqidagi bilimlar bilan ish ko'rishga o'tish sodir bo'ladi.

Uchinchi blok – katta yarimsharlar qobig'ining oldingi bo'limlari (motor, motor oldi va old frontal soha) doirani o'z ichiga oladi. Bu blok inson faoliyatini rejalashtirish, moslashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. U, shuningdek, miya qobig'i ostidagi a'zolar faoliyati, barcha tizimlarning tonusi va tetik holatini ular faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq moslashtirishni amalga oshiradi.

Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlashi natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga har bir blok nutq jarayonida alohida, maxsus o'ziga xos xususiyati bilan ishtirok etadi.

O'qitish – ikki tomonlama boshqariladigan jarayondir. U bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish borasidagi faol bilish faoliyatini, bu faoliyat ustidan pedagogik rahbarlikni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni uzviy birlikdagi ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Tarbiyalash – jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda shaxsning yoki uning alohida a'follarining shakllanish jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda uzluksiz, tashkiliy tarzda boshqarish demakdir.

Qayta tarbiyalash – jarayonida nutqiy faoliyati buzilgan kishilarning o'ziga xos muhim xususiyatlarini tuzatish ishlari amalga oshiriladi. Bosh miya ma'lum qismining xastalashuv hollaridagi logopedik ishlarda buzilgan nutqiy va nutqsiz vazifalarni tiklashga qaratilgan tiklovchi ta'limdan foydalaniladi. Bunday ta'lim asosida harakatning saqlanib qolgan qismiga tayanish va barcha funksional tizimni qayta qurish yotadi. «Nutqni tiklash» atamasi afaziya davridagi nutq buzilishining aksincha, rivojlanishini belgilash uchun qo'llaniladi.

Logopedik ta'sir nutq buzilishlarini bartaraf etishga (masalan, disleksiyada), to'g'rilashga (masalan, tovushni qo'yish) nutq buzilishlarning salbiy alomatlarini (ruhiy xususiyatlarini) yo'qotishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin.

4. Nutq apparatining tuzilishi

Nutq apparati o'zaro chambarchas bog'langan ikki qismdan: markaziy (yoki boshqaruvchi) nutq apparati va periferik (yoki bajaruvchi) qismdan tashkil topgan.

Markaziy nutq apparati bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobig'idan, qobig' osti tugunlaridan, o'tkazuvchi yo'llardan, o'zakdan (avvalo, uzunchoq miyadan), yadrolar va ovoz, nafas, artikulyatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Markaziy nutq apparati va uning bo'limlari vazifasi nimalardan iborat?

Nutq, boshqa oliy nerv faoliyatining ko'rinishlari singari, reflekslar asosida shakllanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlari faoliyati bilan bog'liqdir. Biroq bosh miya qobig'ining ayrim bo'limlari nutqning hosil bo'lishida asosiy rol

o'ynaydi. Bular chap (chapaqaylarda o'ng) yarimsharning peshona, chakka va ensa qismlaridir. Bosh miya qobig'ining bu qismlarida nutq faoliyatida faol ishtirok etuvchi:

- Nutq harakat analizatori.
- Nutq ko'ruv analizatori.
- Nutq eshituv analizatori joylashgan.

Nutq harakat analizatori bosh miya qobig'ining chap peshona qismida joylashgan bo'lib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism og'zaki nutqning paydo bo'lishida qatnashadi.

Nutq eshituv analizatori bosh miya qobig'ining chap chakka qismida joylashgan bo'lib, Vernike markazi deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro'y beradi. Nutqni tushunishda bosh miya qobig'ining orqa bo'lagi katta rol o'ynaydi. Bu bosh miyaning ko'ruv markazi hisoblanib, yozma nutqni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.


Qobiq osti yadrolari nutqning sur'ati va ifodaliligini boshqaradi.

O'tkazuvchi yo'llar. Bosh miya qobig'i periferik nutq a'zolari bilan o'zaro bog'liqdir. Bunda nerv yo'llarining ikki: markazdan qochuvchi va markazga intiluvchi turlari ishtirok etadi.

Markazdan qochuvchi (harakatlanuvchi) **nerv** yo'llari bosh miya **qobig'ining** periferik nutq apparati faoliyatining boshqaruvchi muskullari bilan bog'laydi. Markazdan qochuvchi yo'l bosh miya qobig'ining Broka markazidan boshlanadi.

Nutq apparatining tuzilishi:

- 1-bosh miya;
- 2-burun bo'shlig'i;
- 3-qattiq tanglay;
- 4-og'iz bo'shlig'i;
- 5-lablar;
- 6-tishlar;
- 7-til uchi;
- 8-til orqasi;
- 9-til ildiz;
- 10-kichik tilcha;
- 11-halqum;
- 12-hiqildoq;
- 13-traxeya;
- 14-o'ng bronx;
- 15-o'ng o'pka;
- 16-diafragma;
- 17-qizilo'ngach;
- 18-umurtqa;
- 19- orqa miya;
- 20-yumshoq tanglay.



Periferiyadan markazga, ya'ni nutq a'zolari qismidan bosh miya qobig'iga, markazga intiluvchi yo'llar o'tadi.

Markazga intiluvchi yo'l proprioretseptorlarda va baroretseptorlarda boshlanadi. Proprioretseptorlar muskullar harakat a'zolarining bo'g'inli qatlamlarida joylashgan bo'ladi. Proprioretseptorlar muskullarning qisqarishi ta'sirida harakatga keladi. Proprioretseptorlarning vazifasi muskullarimiz faoliyatini nazorat qilishdir. Baroretseptorlar o'zlariga nisbatan bo'lgan bosimning

o'zgarishi natijasida harakatga keladi va ular halqumda joylashgan bo'ladi. Biz gapirgan vaqtimizda markazga intiluvchi yo'l orqali bosh miya qobig'iga kelayotgan proprio va baroretseptorlar harakati ro'y beradi. Markazga intiluvchi yo'l butun nutq organlari faoliyatida umumiy regulyator (boshqaruvchi)lik rolini bajaradi.

Stvol yadrosidan bosh miya nervlari boshlanadi. Periferik nutq apparatining hamma a'zolari bosh miya nervlari bilan ta'minlanadi. Ulardan asosiylari: uch tarmoqli, yuz, til-halqum va sayyor nervlar hiqildoq va ovoz boylamlarini, halqum va yumshoq tanglay muskullarini innervatsiyalaydi. Bundan tashqari til-halqum nervi tilning sezuvchi nervi hisoblanadi. Sayyor nerv esa nafas va yurak a'zolarining muskullarini innervatsiyalaydi. Qo'shimcha nerv bo'yin muskullarini innervatsiyalaydi, til osti nervi til muskullarini harakat nervlari bilan ta'minlaydi.


Bu tizim bo'yicha bosh miya nervlari orqali nerv impulsleri markaziy nutq apparatidan periferik nutq apparatiga yuboriladi.

Nerv impulsleri nutq a'zolarini harakatga keltiradi. Markaziy nutq apparatining nutq apparatiga boruvchi bu yo'l nutq mexanizmining faqat bir qismini tashkil qiladi.

Uning boshqa qismi orqaga, ya'ni periferiyadan markazga qaytuvchi aloqadan iborat.

Endi periferik nutq apparatining tuzilishini ko'rib chiqamiz.

Periferik nutq apparati uch bo'limdan iborat:



Nafas bo'limiga ko'krak qafasi, bronxlar va traxeya kiradi. Nutq talaffuz etish nafas olish bilan uzviy bog'liqdir. Nutq, nafas chiqarish fazasida hosil bo'ladi. Nafas chiqarish jarayonida havo oqimi bir vaqtning o'zida tovush hosil qiluvchi va artikulyatsion funksiyani bajaradi (shu bilan birga, asosiy funksiyasi havo almashinuvini ham bajaradi). Nafas olish nutq jarayonida, odam jim turgan odatdagi vaqtdan jiddiy farq qiladi. Nafas chiqarish nafas olishdan bir oz uzoqroq bo'ladi (nutqdan tashqari vaqtda nafas olish va nafas chiqarishning davomiyligi deyarli bir xil bo'ladi). Bunda ham tashqari nutq talaffuz qilinayotgan vaqtda nafas olish harakatlari soni odatdagi nafas olish va nafas chiqarish vaqtidagidan ikki marotaba kamdir.

Uzoq nafas chiqarish uchun ko'p havo zaxira kerak bo'lishi tushunarlidir. Shuning uchun nutq jarayonida havo olish va chiqarishning hajmi ko'payadi (taxminan 3 marta). Nutq vaqtida nafas olish nisbatan qisqa va chuqur bo'ladi. Nutq vaqtidagi nafas olishning yana bir xususiyati shundaki, nutq jarayonidagi havo chiqarish havo chiqarish muskullarining faol harakati ostida sodir bo'ladi. Bu esa uzoq va chuqur nafas chiqarishga imkon yaratadi va bundan tashqari, havo oqimi bosimini ko'paytiradi (bu siz jarangdor nutqning bo'lishi mumkin emas).

5. Nutqning hosil bo'lish mexanizmi

Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari, ya'ni nutq faoliyatining tuzilishi va ishlashi jihatidan tashkil etilishini bilish, birinchidan, nutqning murakkab mexanizmini normada tasavvur qilish, ikkinchidan, nutq patologiyasi (buzilishi) tahliliga differensial yondashish; uchinchidan, tuzatuvchi ta'sir yo'llarini to'g'ri belgilashga imkon beradi.


Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir.

Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi.

XX asrning boshlaridayoq nutq funksiyasining miyadagi maxsus “alohida nutq markazlari” ning mavjudligi bilan bog‘lagan nuqtai nazar keng yoyilgan edi. I.P.Pavlov bu qarashga yangi yo‘nalish berdi. U bosh miya qobig‘ining nutq funksiyalari lokalizatsiyasi murakkab bo‘libgina qolmay, balki o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ham isbotlab berdi va uni “dinamik lokalizatsiya” deb atadi.

Hozirgi vaqtda P.K.Anoxin, A.N.Leonteva, A.R.Luriya va boshqa olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, har qanday psixik funksiyalarning asosi alohida “markazlar” bo‘lmay, balki markaziy asab tizimining turli joylarida joylashgan murakkab funksiyalar tizimi hisoblanadi.

Nutq faqat inson uchun xos bo‘lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir-birlariga ta’sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi.



Gapiruvchi o‘z fikrini bayon etish uchun zarur so‘zlarni tanlaydi, ularni til grammatikasi qoidalariga asoslanib bog‘laydi va nutq a‘zolari artikulyatsiyasi orqali talaffuz etadi.

Odam nutqi tushunarli va ma’noli bo‘lishi uchun nutq a‘zolarining harakatlari aniq va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Shu bilan birga bu harakatlarni maxsus ixtiyoriy kuch ishlatmasdan ro‘yobga chiqarish mumkin bo‘lgan avtomatik bo‘lishi lozim. Aslida ham xuddi shunday bo‘ladi. Odatda, gapiruvchi faqat o‘z fikrini nazorat qiladi, nafas olganda uning tili og‘zida qanday holatda bo‘lishi va hokazolar haqida o‘ylab ham o‘tirmaydi. Bu nutqni talaffuz etish mexanizmi faoliyati oqibatida sodir bo‘ladi. Nutq talaffuzi mexanizmi harakatini tushunish uchun nutq apparatining tuzilishini yaxshi bilish zarur.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Logopediya so‘zini izohlab bering.
2. Logopediyani fan sifatida ta’riflab bering.
3. Logopediyaning predmeti, obyekti va ahamiyatini sharhlang.
4. Logopediya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Nutq apparatining tuzilishini aytib bering?

9-MAVZU: TAYANCH-HARAKAT APPARATIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR TA’LIMI VA TARBIYASI

REJA:

1. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalardagi nuqsonning kelib chiqish sabablari
2. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar tasnifi
3. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlari
4. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan kompleks yondashgan holda olib boriladigan korreksion ishlar
5. Bolalarni harakat apparatini rivojlanishida jismoniy madaniyatning ahamiyati

Tayanch so‘zlar: knisteziya, gipokineziy, proprioretseptor, bola sog‘lom tug‘ilish, tayanch-harakat tizimi, anomaliya, jismoniy, erta ruhiy, aniqlash, tibbiyot xodimi, o‘qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, tug‘ma va orttirilgan.

Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni sog‘lomlashtirish, ularni sog‘lom kishilar qatoriga qo‘shish, ijtimoiy, moddiy jihatdan himoyalash, mehnatga,

ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalariga doir qator qarorlar, hujjatlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi 641-sonli qonunning (<https://lex.uz/docs/5049511>) qabul qilinishi, nogironligi bo'lgan shaxslarga qator yangi imtiyozlardan foydalanish imkonini yaratmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar, shu jumladan 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar istiqomat qilmoqda. Har qanday ota-ona o'z farzandini sog'lom, jismonan baquvvat, ruhan tetik, fikrlash qobiliyati sog'lom, iymone'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard, jasur va har tomonlama kamol topishini istaydi.


Bolalarning sog'lom tug'ilishini ta'minlash, anomaliyalarning oldini olish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari ustida talaygina ishlar olib borilmoqda. Bu masalani tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida, onaning homiladorlik davridan boshlab to bola voyaga yetguniga qadar uning rivojlanishi, tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilar, psixolog, defektologlar tomonidan nazoratga olinadi. Natijada, tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar ham erta aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatiladi.

1. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalardagi nuqsonning kelib chiqish sabablari

Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar serebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), tayanch-harakat a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi — artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, xondroplaziya yoki tana xondrodistrofiyasi, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya-mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy

kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaydi.

Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalarning ko'pchiligida **miya falaji** kuzatiladi. Bolalar serebral falaj kasalligi hali yetilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir.



Kishi organizmining asosiy funksiyalari – nafas olish, qon aylanish, yutinish, tana harakati, nutqiy harakatlar va boshqa harakatlar orqali – mushaklarning qisqarish natijasi sodir bo'ladi. Harakatlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Aniq maqsadni ko'zlab bajarilgan ixtiyoriy harakatlar inson xatti-harakatining, hissiy-irodaviy qobiliyatining, bilish faoliyatining va xulqining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

2. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar tasnifi

Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar serebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), tayanch-harakat a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi – artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, xondroplaziya yoki tana xondrodistrofiyasi, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya-mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaydi.

Tayanch-harakat tizimi muammolarining klasifikatsiyasi (turlari)



Tayanch-harakat tizimi muammolarining bir nechta tasnifi mavjud. Ular kasallikning xususiyatlari va og'irligini hisobga oladi. MHTF(markaziy harakat-tayanch falajligi) shakllarining gradatsiyasi kasallikning namoyon bo'lishiga, masalan, oyoq-qo'llarning shikastlanishining lokalizatsiyasiga, tashxis qo'yilgan yoshga, bolaning harakatlari va intellektual qobiliyatlarini muvofiqlashtirishning buzilish darajasiga asoslanadi.

MHTFning ayrim turlari bolaning hayotining birinchi oylarida aniqlanishi mumkin. Boshqalarga biroz keyinroq, ikkinchi yil boshida tashxis qo'yiladi. MHTFning shakllari ta'sirlangan miya markazlariga bog'liq va ular uchun xarakterli xususiyatlar bilan belgilanadi.



Miya falajining xalqaro tasnifi Rossiyada 1972 yilda K.A.Smironova tomonidan ishlab chiqilgan MHTFning tasnifi bilan ishlash odatiy holdir.

Hozirgi vaqtda u miya falajining uchta asosiy shaklini o'z ichiga olgan qabul qilingan xalqaro tasnif bilan to'ldiriladi:



Spastik diplegiya

Spastik diplegiya MHTFning barcha turlaridan eng keng tarqalgan bo'lib, kasallikning ushbu shakli $\frac{1}{4}$ hollarda tashxis qilinadi. Patologiyaning sabablari orasida erta tug'ilish, kam vazn yoki tug'ilish vaqtidagi travmalar. Tashxis ko'pincha bola hayotining birinchi olti oyida amalga oshiriladi.

Kasallikning ushbu shaklining xarakterli belgilariga quyidagilar kiradi:

- ❖ pastki ekstremitalarning shikastlanishi bilan spastik tetraparez;
- ❖ harakat sohasi rivojlanishining kechikishi;
- ❖ xarakterli yurish-bo'ksa ichkariga burilgan, tizzalar birlashtirilgan;
- ❖ ko'ruv-harakat buzilishlar-strabismus, ko'rish keskinligining pasayishi;
- ❖ eshitish qobiliyatining buzilishi;
- ❖ nutq rivojlanishining kechikishi-bemorlarning 80 foizida qayd etilgan.

MHTFining ushbu shakli bilan aqliy rivojlanish boshqa holatlarga qaraganda kamroq ta'sir qiladi. Oligofreniya spastik diplegiya bilan og'rigan bolalarning 20 foizida uchraydi.

Davolash dori terapiyasi, fizioterapiya mashqlari, massaj, psixolog va defektolog bilan nutq rivojlanishining kechikishi (dizartriya) bilan shug'ulanuvchi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Harakat sohasidagi prognoz juda qulay emas. Faqat har to'rtinchi bemor mustaqil ravishda harakatlanishi mumkin va aniq tetraparez bilan bemor nogironlar aravachasida bo'lishga majbur bo'ladi. Aqliy qobiliyatini saqlab qolgan holda, bemorlar sog'lom bolalar bilan bir qatorda o'qitilishi mumkin.



Gemiplegiya

MHTFining ushbu shakli bilan tananing yarmiga zarar yetkaziladi. Tarqalish darajasi bo'yicha kasallikning ushbu shakli spastik diplegiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ko'pincha, bu erta tug'ilgan chaqaloqlarda yoki tug'ruq paytida intrakranial bosh jarohati olgan bolalarda qayd etiladi.

Platsenta qon aylanishining anormalliklari, platsentaning ajralishi, homila va onaning immunologik to'qnashuvi bilan gemiplegiya xavfi ortadi. Gemiplegiya bilan yurishning kuchli buzilishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdagi kechikish, konvulsiv tutilishlar tez-tez uchraydi.


Gemiplegiyani davolash usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dori terapiyasi-spazmlarniy engillashtiradi;
- jarrohlik aralashuvi;
- reabilitatsiya-fizioterapiya, fizioterapiya mashqlari.

Ikki tomonlama gemiplegiya

Kasallikning eng og'ir va kam uchraydigan shakli, unda mushak-skelet tizimining chuqur shikastlanishi va og'ir aqliy zaiflik kuzatiladi. Ushbu turdagi MHTF tashxisi qo'yilgan bolalar o'tirishni, yurishni, o'zlariga xizmat qilishni bilishmaydi, ularda nutq va tushuncha umuman yo'q.

Bunday tashxis qo'yilgan bolalar ibtidoiy hissiy reaksiyalarga qodir, masalan, ota-onalarini tanib olish va quvontirish, lekin ular hatto oddiy ko'nikmalarni ham o'zlashtira olmaydilar va o'rgana olmaydilar. Davolash bemorning ahvolini umumiy yengillashtirishga va uning hayot sifatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan.



Giperkinetik shakl

Miya falajining giperkinetik turi uchun xavf omillari sariqlik, erta tug'ilish, onaning yuqumli kasalliklari va kam vazn bilan murakkablashgan gemolitik kasallikni o'z ichiga oladi.


Ushbu turdagi MHTFining belgilari vosita faoliyatining rivojlanishining kechikishida namoyon bo'ladi. Bolada harakatlarning sustligi, umurtqa pog'onasidagi buzilishlar, oyoqlarning noto'g'ri joylashishi qayd etiladi. Aqliy rivojlanish odatda azob chekmaydi, bola intellektual jihatdan yaxshi rivojlanadi, jamiyatlardagi hayotga muvaffaqiyatli moslashadi. Ushbu turdagi MHTF buzilishi bemorlarning 20-25 foizida aniqlanadi.

Ataksik shakl

Kasallikning bunday kam uchraydigan shakli bo'lgan bolalar yurish paytida muvofiqlashtirishning yetishmasligidan aziyat chekishadi, ularga tez va aniq harakatlarni bajarish qiyin. Ataksik shakl bemorlarning atigi 6 foizida uchraydi, bu serebellumning shikastlanishi tufayli yuzaga keladi. Patologiyaning boshqa mumkin bo'lgan sabablari orasida platsentada qon oqimining yetarli emasligi yoki tug'ilishning patologik kursi tufayli miya gipoksiyasi mavjud.

Yurish paytida bola chayqaladi, oyoqlarini juda keng yoyadi. U qo'lni rivojlangan motorli ko'nikmalarini talab qiladigan turli xil vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi, masalan, tugmachalarni bosish yoki etik bog'ichlarni bog'lash. Yana bir xarakterli belgi-bu predmetni olish yoki harakatni bajarish paytida kuchayadigan qo'llarning titrashi. Bunday tashxis qo'yilgan bolalarda nutq muqarrar ravishda azoblanadi, aqliy zaiflik kuzatilishi mumkin.

Miya falajining ataksik shakli bo'lgan bolalar o'qitishga yaxshi javob bermaydilar, ular asossiz tajovuz, konvulsiyalar, epilepsiya xurujlariga ega.



Kasallikning dastlabki bosqichida uning shakllarini tashxislashda qiyinchiliklar mavjud. Spastik shaklni aniqlash eng oson, odatda tug'ilgandan keyingi dastlabki olti oyda sodir bo'ladi.

Gemiplegiya va ataksik shakllar odatda bolaning hayotining 5-7 oyligida o'zini namoyon qiladi. Ko'pincha ular nevrologik kasalliklarga, asossiz qo'zg'aluvchanlikka, yomon muvofiqlashtirishga, jismoniy rivojlanishning kechikishiga e'tibor berishadi.

Giperkinetik shakl bir yildan keyin tashxis qilinadi.

MHTFn tashxislashda shunga o'xshash belgilarga ega kasalliklarni istisno qilish muhimdir. Bu autizm, travmatik xarakterdagi miya shikastlanishi, bolalik

shizofreniyasi. MHTF progressiv kasallik emas, bu bolaning jismoniy holatini yomonlashishiga olib kelmaydi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 400 dan ortiq omillar homilaning markaziy asab tizimiga zararli ta'sir ko'rsatishi va turli darajadagi shikastlanishlarga olib kelishi mumkin. Bemorlarning 30 foizida xavf omillari aniqlanmagan.

ICD-10 xalqaro tasnifiga ko'ra:

- G 80.0-spastik miya yarim palsi (klinik tasnifga ko'ra, ikki tomonlama gemiplegiyaga to'g'ri keladi).A. Semenova) Tomonidan Yaratilgan.
- G 80.1-spastik diplegiya.
- G 80.2-bolalar gemiplegiya .
- G80. 3-diskinetik (giperkinetik shaklga mos keladi).
- G 80.4-ataksik (atonik-astatik shaklga mos keladi).
- G 80.8-miya yarim falajining yana bir turi.
- G 80.9-miya yarim falajligi aniqlanmagan.

3. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli qonuni (<https://lex.uz/docs/-5013007>), O'zbekiston Respublikasi Prezidentiningning 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4860-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/-5044711>), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3955-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/-3923110>), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarorlari (<https://lex.uz/docs/-4333062>) asosida tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya ishlari tashkil etiladi.

O'zbekistonda maktabgacha yoshidagi bolalar uchun – maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab yoshidagi bolalar maxsus maktab-internatlar faoliyat ko'rsatmoqda.


Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar intellekti normada bo'lganligi sababli DTS, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan o'quv reja va dasturlar asosida ta'lim-tarbiya oladilar. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalarda nutqdagi birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar sababli o'quv rejaga 1-5 sinflar uchun 2 soatdan logopediya korreksion mashg'ulotlari kiritilgan.

Murakkab nuqsonli, ya'ni tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan aqli zaif bolalar intellekti normadan ortda qolganligi sababli DTT, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga mo'ljallangan o'quv reja va dasturlar asosida ta'lim-tarbiya oladilar. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalarda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar sababli o'quv rejada 1-6-sinflar uchun 4 soatdan, 7-9-sinflar uchun 2 soatdan logopediya; 1-4-sinflar uchun 1 soatdan ritmika; 1-6-sinflar uchun 6 soatdan, 7-9-sinflar uchun 4 soatdan IMHY korreksion mashg'ulotlari kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarori (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>) asosida tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar umumta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarida ota-onalar va PTPK xulosasiga ko'ra inklyuziv ta'limga jalb etilmoqda. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassaslarida barcha ta'lim-tarbiya ishlari korreksion yo'nalishda amalga oshiriladi. Ko'proq harakat funksiyalarini korreksiyalashga e'tibor beriladi.

4. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan kompleks yondoshgan holda olib boriladigan korreksion ishlar

Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan maxsus muassasalarda harakat funksiyasini korreksiyalash ishlari kompleks tarzda, ya'ni bolaga har tomonlama ta'sir o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.



Tibbiy dori-darmonlar bilan davolash ishlari mushak tonusini pasaytirish, giperkinez – majburiy harakatlarni kamaytirish, asab sistemasidagi kompensator jarayonining faolligini kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Fizioterapevtik muolajalar mushak tonusini pasaytirishga, mushaklardagi qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ortopedik tadbirlar tayanch-harakat a'zolari, bo'yin, gavda harakatini yaxshilash, kerak bo'lsa ortopedik moslamalardan foydalanishni, har bir bolani shaxsiy ortopedik rejimga rioya qilishga o'rgatishga qaratiladi.

Mushakdagi giperkinezlar bolaning nafaqat umumiy, balki nutqiy motorikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq apparatining kam harakatlanishi (til, lab, jag', un paychalari, kichik til harakati buziladi) nutqning fonetik tomondan buzilishiga, ya'ni tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga olib keladi.

Mushaklardagi giperkinezlar dizartriya yoki anartriya kabi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Diafragma, qovurg'a orasidagi mushaklar giperkinezi nutqiy nafas olishni, un paychalarining tebranishi, nutq maromining buzilishiga olib keladi. Nisbatan ko'proq uchraydigan dizartriyaning psevdobulbar shaklida artikulyatsion tonus baland bo'ladi. Lab, til, kichik til, pastki jag', un paychalari harakatchanligi buziladi va natijada tovushlar talaffuzi, ovoz, nutq sur'ati nuqsonlari kuzatiladi. So'lak bezlari atrofidagi mushaklar qisqarmaganligi tufayli bola so'lagi oqib turadi. Bunday bola yaxshi chaynay olmaydi, yutolmaydi. Dizartrik bolaning nutqi noaniq, chuchmal, xirillagan, monoton bo'ladi. Dizartriya qanchalik barvaqt aniqlansa, uni bartaraf etish, korreksiyalash ham shunchalik oson bo'ladi. Uzoq muddat ichida sabr-toqat bilan olib borilgan logopedik ishlar natijasida yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkin.

Nutq apparatining innervatsiyasiga bevosita bog'liq bo'lgan kalla suyak nervlarining jarohatlari ko'p hollarda ko'z harakati nervlarining jarohatlanishi bilan birga kuzatiladi. Natijada bola g'ilay, ko'zi olaygan, ko'z harakati buzilgan bo'ladi. Bolalar o'z ko'z harakatlarini bir maromda bajara olmaydilar, mo'ljalga nigoh tashlay olmaydilar. Bunday kamchiliklar logopedik ishni to'g'ri olib borishga to'sqinlik qiladi. Bola artikulyatsion apparat a'zolari harakatini kuzata olmaydi, rasmga qarab ishlash, o'qish va yozishni o'zlashtirishda qiynaladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan, tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'lim olishga yoki maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maxsus maktab-internatlarga yuboriladi. Bu muassasalarga o'zlari yoki aravachada yura oladigan, o'zgalarning qaroviga muhtoj bo'lmagan bolalar qabul qilinadi. Sog'liqlarini tiklagach tibbiy pedagogik-psixologik komissiyaning xulosasiga binoan o'quvchilarni umumta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yoki maktabga o'tkaziladi.

Tayanch-harakat a'zolarida muammolari bo'lgan bolalar I va II guruh nogironlari hisoblanib, ularni ishga joylashtirish ijtimoiy ta'minot bo'limlariga topshiriladi.

5. Bolalarni harakat apparatini rivojlanishida jismoniy madaniyatning ahamiyati

Muskullarning quvvati va o'lchami to'g'ridan-to'g'ri mashqlar bog'liq bo'ladi. Ish jarayonida muskullarning qon bilan ta'minlanishi ortadi, asab faoliyati bilan ularning boshqarilishi yaxshilanadi, muskul tolalarining o'sishi yuz beradi, ya'ni muskullarning massasi ortadi. Muskullar tizimining jismoniy ishga qobiliyati, baquvvatligi mashg'ulotlar natijasi hisoblanadi. Bolalarning va o'smirlarning harakat faoliyatini ortishi suyak tizimini o'zgarishiga va ularning tanasini jadal o'sishiga olib keladi

Mashg'ulotning ta'sirida suyaklar ancha mustahkam, yuklama va sinishlarga chidamli bo'ladi. Bolalar va o'smirlarning yoshini hisobga olib tashkil qilingan jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlari qomat buzilishining oldini oladi. Almashinuv jarayonlarining kechishiga va ichki organlar funksiyasini bajarilishiga skelet muskullari ta'sir ko'rsatadi. Nafas harakatlarini ko'krak muskullari va diafragma bajarsa, qorin presssi muskullari qorin bo'shlig'i a'zolarini normal faoliyatini, qon aylanishi va nafas olishni bajarilishida ishtirok etadi. Hozir hammaga ma'lum gipokineziya – kam harakatlanish sog'liq uchun zararlidir.

Me'yoridan ortiq semirish, uning natijasida rivojlanuvchi skeleroz va u bilan bog'liq bo'lgan yurak-tomirlar faoliyatining buzilishi – gipokineziya natijasidir. Muskullarning har tomonlama faoliyati organizmni ish bajarish qobiliyatini oshiradi, bu paytda ish bajarish uchun organizm kam miqdorda energiya sarflaydi. Doimiy ravishda jismoniy yuklamalarni bajarish nafas harakatlarining takomillashgan mexanizmini shakllantiradi. Nafas olish chuqurligi oshadi, organizm to'qimalari bilan kisloroddan foydalanish darajasi ortadi. Jismoniy mashqlar ta'sirida o'pkaning tiriklik sig'imi ortadi. Mashqlar jarayonida qon tomirlarini elastikligi oshadi va ularda qonning harakatlanishi yaxshilanadi.

O'zining ish faoliyati bo'yicha odam kam harakatchan bo'lsada sport bilan shug'ullanmasa o'rta va qarilik yoshlarida uning muskullarining elastiklik va qisqaruvchanlik xususiyatlari pasayib ketadi. Muskullar juda bo'shashib ketadi,

buning natijasida qorin presssi muskullari ushlab turuvchi ichki a'zolarini osilib qolishi yuz beradi va me'da ichaklar tizimini funksiyasi buziladi. Yelka muskullarining bo'shashi natijasida qaddi-qomat o'zgarishi yuzaga keladi, asta-sekin engashib yurish rivojlanadi, harakatlar koordinatsiyasi buziladi. Jismoniy mashqlar sog'lom, kuchli, baquvvat tana tuzilishi bo'yicha to'g'ri va muskullari garmonik rivojlangan odamni shakllanishiga qulay samara beradi.

Hozirgi davr uchun xarakterli bo'lgan odamlarning jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jismoniy madaniyat bilan shug'ullanish uchun yosh chegarasi yo'q. Yoshi o'tgan odamlarni doimiy ravishda jismoniy mashqlarni bajarishi bo'g'inlarda tuz yig'ilishiga oldini oladi, ularni harakatchanligini saqlab qoladi, muskullar va paylarning bog'lovchi apparatlarini mustahkamlaydi. Bunday hollarda harakat bilimlari yuqori darajada saqlab qolinadi va yoshi o'tgan odamlar o'z harakatiga ishonchini yo'qotmaydi.

Mashqlar – odam harakat apparatlarining takomillashtiruvchi samarali vosita hisoblanadi. Mashqlar ta'sirida odamlarning barcha shakldagi harakat faoliyatlarini takomillanishi va turg'unligi shakllanadi. Mashqlarni fiziologik mohiyati dinamik steriotiplarni hosil bo'lishiga olib keladi. Mashqlarni bajarishni dastlabki davrida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'i bo'ylab qo'zg'alishning keng tarqalishi kuzatiladi. Katta miqdordagi muskullar faoliyat holatiga tortiladi, o'quvchilarni harakati noaniq, bo'sh va ishonchsiz bo'ladi. Bu paytda ushbu harakat aktiga aloqasi bo'lmagan ko'plab muskullar qisqaradi.

Buning natijasida tormozlanish rivojlanadi, muskullarning ish bajarish qobiliyati pasayadi. Sport bilan shug'ullanuvchi odamlarda yurak muskullarining qisqarish soni kamayadi, lekin sistolik va minutlik qon haydash hajmi ortadi. Sport bilan shug'ullanmagan odamlarda esa yurakning minutlik hajmi uncha jiddiy bo'lmagan sistolik hajmini ortishi va yurak faoliyatini jiddiy tezlashishi hisobiga yuz beradi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini aytib

bering?

2. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziga xosligi haqida so'zlab bering?
3. Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish haqida aytib bering.

10-MAVZU: RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR TA'LIM VA TARBIYASI

REJA:

1. Ruhiy rivojlanish sust bolalarning boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan farqi
2. Klinik-psixologik belgilariga ko'ra ruhiy rivojlanishi sust bolalar xillari
3. Ruhiy rivojlanishdagi sustlikning kelib chiqish sabablari
4. Ruhiy rivojlanishi sust bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limning tashkil etilishi

Tayanch so'zlar: Ruhiy rivojlanishi sust bolalar, differensial integratsiyalash-tirish, inklyuziv, konsultatsional, somatagen, psixogen, serebral

1. Ruhiy rivojlanishi sust bolalarning boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan farqi

O'zlashtirishi ortda qolgan o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchraydi. Ularning bilish faoliyati – intellekti, mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Yegorova, S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, G'.B.Shoumarov, N.A.Sipina, R.D.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5-8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruhga bo'linadi:

1. Yengil nuqsoni bor bolalar – bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta'lim-tarbiya olganlaridan keyin o'qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.

2. Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'rtacha o'quvchining saviyasini orqaga tortadi, yaxshi va a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yetarli darajada o'stirishga to'sqinlik qiladi.

Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmaganligi tufayli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar doim muvaffaqiyatsizliklarga uchrayveradi, bu narsa ularning xulq-atvorida turli salbiy xislatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Umumta'lim maktablardagi o'zlashtirmaslik sabablarining doirasi juda kengdir. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– ijtimoiy yoki pedagogik qarovsizlik, nazoratsizlik asosida yuzaga keladigan maktab ta'limiga umuman tayyor emaslik;

– maktabgacha yoshdagi turli xil surunkali davom etadigan kasalliklar natijasida bolaning jismonan zaifligi;

– maktabgacha yoshdagi to'g'irlanmagan turli nutq kamchiliklari;


– ko'rish va eshitish a'zolaridagi turli xil kamchiliklar;

– aqli zaiflik (aqli zaif bolalarning bir qismi ommaviy maktab 1-sinfiga kelib, bir yil davomida muvaffaqiyatsiz o'qigach PTPK orqali yordamchi maktabga yuboriladi);

– o'quvchilar hamda sinfdoshlar orasidagi ko'ngilsiz holatlar. Ammo, yuqorida qayd qilib o'tilgan qiyinchilik, sabablar bilan o'zlashtirmovchi o'quvchilarning bir qismini belgilash mumkin. Qolgan qismini esa ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tashkil etadi.

2. Klinik-psixologik belgilariga ko'ra ruhiy rivojlanishi sust bolalar xillari

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berton, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan xillarga bo'lishni tavsiya etadilar.



Ruhan sust rivojlanganlikning **konstitutsional** shaklini ifodalovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarinikiga nisbatan 1-2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagilarga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani

katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi konstitutsion shakldagi bunday bolada ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishda ortda qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning **somatik shakli** deb shunga aytiladi. Bolada surunkali infeksiyalar, allergik holat tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turadi.

Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sib-unmagan, go'dak taxlit bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.



Infantilizm - bolalarda — kattalarda ilk bolalik davriga xos bo'lgan morfologik, fiziologik va ruhiy hislatlarning saqlanib qolishi bilan ifodalanadigan klinik sindrom. Infantilizmning sabablari, qaysi a'zo yoki sistema yetilmaganligi, ko'rinish alomatlari ko'ra bir necha turi farq qiladi. Infantilizm tug'ma bo'lishi yoki o'sish davridagi har xil kasalliklar (sil, qizamiq), turli zaharlanishlar, inki sekretsia bezlari va miya kasalliklari, tomirlardagi nuqsonlar sababli kelib chiqishi mumkin. Infantilizmning yaqqol belgisi — pakanalik, odamning bo'y-basti ko'pincha bolalarga xos bo'lib qoladi. Ikkinchi jinsiy belgilar, tashqi va ichki jinsiy a'zolar ham tuzuk rivojlanmay qoladi. Bolani yoshligidan sog'lom qilib tarbiyalash, yuqumli kasalliklardan saqlash, to'g'ri ovqatlantirish, so'f havodan bahramand qilish, badan tarbiya bilan shug'ullantirish, o'sishi va rivojlanishiga ko'z-quloq bo'lib turish infantilizmning oldini olishga yordam beradi.

Ruhan sust rivojlanganlikning **psixogen** shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari

ruhan rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan bo'ladi. Bu xildagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish, bunda bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda yetishmasligi ustiga o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo'shiladi.

2. Bolani har tomonlama erkalatish, yetarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, tashabbuskorlik, mas'uliyat hissini shakllantirmaslik bolani "oila erkasi" qilib o'stirish, haddan tashqari uning ko'ngliga qarab ish tutish natijasida ham bola ruhiy rivojlanishida ma'lum miqdorda ortda qolishi mumkin.

3. Bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, jismoniy jazolash, qattiqqo'llik qilish, ota-onalarning alkogolizmga aloqador tajovuzkorona munosabatlari bolani mudom asabiylashtirib, ruhan rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi. Bunday bolalarda qo'pollik, jur'atsizlik, tashabbusizlik, mustaqilsizlik, qo'rqqoqlik va boshqa xislatlar shakllanadi. Bularning hammasi aql-idrokiga, bilish faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto'g'ri tarbiya natijasida paydo bo'lgan xislatlar ham qo'shib pirovardida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik xislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalarni pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiyalanganligi natijasida ortda qoluvchi o'quvchilar safiga tushib qoladilar. Holbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning har tomonlama noto'g'ri rivojlanishi markaziy nerv sistemasidagi yengil darajadagi organik jarohatlanish bilan bog'liq.

Ruhan sust rivojlanganlikning eng murakkab va keng tarqalgan **psixogen** shaklida bosh miyaning kasalligiga, yaxshi yetilmaganiga aloqador o'zgarishlar kuzatiladi. Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga ko'ra bunday bolalarning 50

foizida nerv sistemasida organik nuqsonlar bo'ladi. Bu narsa ularning his-tuyg'u, irodaviy holatlari taraqqiy etmaganligiga, asosan organik infantilizm tarzida namoyon bo'ladi.

Miyaga aloqador organik infantilizmni ikkiga bo'lishi mumkin:

1. Kayfiyati-ruhiyati o'zgarib, aksari, ko'tarinki ruhdagi bolalar, ularda o'zlaridan yosh bo'lgan bolalarga xos xislatlar saqlangan bo'ladi.

2. Ko'proq kayfiyati past bo'lib ma'yus tortib yuradigan bolalar, ularda vazifani mustaqil hal qila olmaslik, tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari kuzatiladi.

Miyaga aloqador organik xarakterdagi yana shu ikki xil infantilizm ko'p holatlarda qator qo'shimcha hodisalar bilan birga davom etadi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Serebral-endokrin infantilizm. Bunda asosan ichki sekretiya bezlari faoliyati buzilgan bo'ladi. Natijada bolalarda his-tuyg'ular yaxshi rivojlanmay nevropatiya holatlari yuzaga keladi. Bolaning uyqusi, ishtahasi yaxshi bo'lmaydi, dispepsiya holatlariga moyillik paydo bo'ladi.

2. Serebrastenik holatlar, bular ham tez-tez uchrab turadi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi, neyrodinamik o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada aqliy qobiliyati susayib, xotira pasayadi, diqqati tarqoq bo'lib qoladi, tez ta'sirlanish, qiz bolalarda yig'loqilik, o'g'il bolalarda haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi, bola ish qobiliyati past, arzimagan narsaga tez charchaydigan bo'lib qoladi.

3. Tabiatan nevrozga yaqin holatlar, bular qorong'udan, yakkalikdan qo'rqish, o'zi va atrofdagilar sog'lig'i uchun xavfsirash, giperkinezlar, duduqlanish, enurez, kabi hodisalar bilan birga ifodalanadi.

4. Psixomotor qo'zg'aluvchanlik – asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Serharakatlik, diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish bunga misoldir.

5. Affektiv o'zgarishlar – kayfiyat-ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lish bunga misoldir.

6. Psixopatik o'zgarishlar – aqliy faoliyatga rag'bat pastligi, o'qishga salbiy munosabatda bo'lish, o'g'rilik qilish (kleptomaniya), ko'proq yolg'on gapirish kabi salbiy xislatlarni o'z ichiga oladi.

7. Epileptik buzilishlar – har xil ko'rinishlarda tutqanoq tutib turishi bilan namoyon bo'ladi.

8. Apatik-adinamik buzilishlar – tashabbuskorlik pasayishi, aqliy faoliyat sustligi, haddan tashqari emotsional bo'shanglik misol bo'la oladi.

Ruhiy sust rivojlanishning **serebral shakli** miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrosefaliya va boshqa kasalliklar natijasi hisoblanadi.

3. Ruhiy rivojlanishdagi sustlikning kelib chiqish sabablari

Ruhiy rivojlanishdagi sustlikning kelib chiqishiga asosiy sabablar bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tug'ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go'dakning ilk yoshidagi zararlanishlari kiradi. Rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to'g'ri kelmasligi tushuniladi. Bunday nomutanosiblik o'z vaqtida tashkil etilgan, mos keluvchi adekvat yordam natijasida bartaraf etilishi mumkin. Bunday hol bolalarda maktab ta'limiga tayyorlik darajasining shakllanmaganligida ko'riladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar oliy nerv faoliyatlarining yuqorida aytib o'tilgan barcha xususiyatlari neyrodinamikaning yaxshi rivojlanmaganligidan darak beradi. Bunday holat normal bolalarda ilk yoshlarida yoki maktabgacha yosh davrlariga to'g'ri keladi.

Tibbiy kuzatishlar va psixologik tekshirishlarning ko'rsatishicha, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda iroda-hissiyot sohasi yetarli rivojlanmagan ekan. Ba'zi olimlar bunday rivojlanmaganlik ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning asosiy belgisidir degan fikrni bildiradilar. Shu bilan birga, ular ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda intellekt saqlanganligini ta'kidlaydilar.

Rivojlanishdagi orqada qolish o'z navbatida aqliy funksiyalar (jarayon, malaka, ko'nikmalar) ning ham kechikib shakllanishiga sabab bo'ladi. "Birlamchi

intellekt saqlangan" deganda, bevosita aqli zaiflarga nisbatan, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diagnostik metodikalarni bajarish vaqtlaridagi yaxshi natijalar ko'rsatishlari nazarda tutiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning bunday yaxshi natijalarga erishilari, ularda aqli zaif bolalarga nisbatan, ma'lum darajada bilimlar borligidan darak beradi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni psixologik-pedagogik diagnostika qilish, faqatgina rivojlanishida orqada qolayotganlikni aniqlash emas, balki uning xususiyatlarini ham ochib beradi. Yuqorida aytib o'tilgandek ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ruhiy jarayonlarining asosiy xususiyatlaridan biri geterogenlik (holatlarning har xilligi) va geteroxronligi (holatlarning har xil vaqtda yuzaga kelishi)dir. Korreksion rivojlantirish, to'g'irlash ta'limi jarayonida bola taraqqiyotidagi notekislikni, uning tuzilishini aniqlash, har bir bola bilan individual ish dasturi tuzishga yordam beradi. Shuning uchun diagnostika vaqtida bolalar bilimlaridagi asosiy kamchiliklarni aniqlab qolmasdan, balki ulardagi aqliy jarayonlardan foydalana olish, o'quvchanlik darajalarini ham aniqlash va e'tiborga olish kerak.

4. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limning tashkil etilishi

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar.

Ruhan rivojlanish kamchiliklarining ba'zi bir shakllarida bolalarni vaqti-vaqti bilan maxsus psixonevrologik sanatoriylarda davolash foydalidir. Sanatoriyada bola kollektiv ishlarga asta-sekinlik bilan jalb etiladi. Unda charchash alomatlari paydo bo'lganda, u o'quv mashg'ulotlaridan vaqtincha ozod etiladi yoki unga yengilroq boshqa vazifalar beriladi. Sanatoriyda davolanib kelgandan so'ng bola o'qishni o'z maktabida davom ettiraveradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun mamlakatimizda maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari, kuni uzaytirilgan maktablarda tenglashtirish

sinflari tashkil etilgan. Ushbu masalalarda ta'lim umumta'lim maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan muloyim davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolaga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordamni tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o'smirlar gigienasi instituti xodimlari, jumladan N.P.Vayzman va boshqa olimlarning o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish jihatidan olganda sog'lom va esipast (debil) bolalar o'rtasida oraliq o'rinda turadi. Bu olimlar tekshirish vaqtida esipast va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlarni berib ko'radilar, shunda normal sog'lom bolalar berilgan vazifani to'g'ri tushunib, uni kerakli tartibda bajargan bo'lsalar, esipast bolalar vazifani tushunmay, bajara olmaydilar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani qisman tushunib, qisman bajarishadi. Demak, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqli zaif, esipast bolalarga nisbatan ancha yaxshi tushunadi va ularni bajarish uchun ularda kerakli imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o'zlashtirish qobiliyati sog'lom tengqurlariga nisbatan past bo'lsa-da, esipast bolalarnikidan ancha durust bo'lganligi uchun bunday bolalarni aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborish noto'g'ri, chunki ushbu maktab dasturi ular uchun soddalik qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktab esa bola uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratib (maxsus sinf – tenglashtiruvchi sinf ochib) o'z dasturini o'zlashtirishini ta'minlash uchun maxsus yordam ko'rsatishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyachilari va boshlang'ich maktab o'qituvchilari ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning maxsus sharoitda ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak, ularni o'z vaqtida aniqlab, boshqa

bolalardan ajratib olib, ota-onalarga mutaxassis psixonevrologlarga murojaat qilishga maslahat berishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarori (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>) asosida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar umumta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarida ota-onalar va PTPK xulosasiga ko'ra inklyuziv ta'limga jalb etilmoqda.

O'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan yordam tufayli ushbu toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar keyinchalik yaxshi rivojlanib ketib, maktabni bitirgach oliy o'quv yurtlarida ham muvaffaqiyatli ta'lim oladilar.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Ruhiy rivojlanishi sustlashishiga olib keluvchi sabablarni ayting?
2. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tasnifini aytib bering?
3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi haqida aytib bering?

11-MAVZU: MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA KORREKSION DARS VA MASHG'ULOTLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Korreksion va rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari.
2. Shaxsiy rivojlanishdagi nuqsonlarni tuzatish uchun yetarli pedagogik shart-sharoitlar yaratish masalalari.
3. Korreksion va rivojlantiruvchi ta'lim muammosi, maktabda va uning yechimiga yondashuvlar.

Tayanch soʻzlar: *Korreksion, rivojlantiruvchi taʼlim, maqsad va vazifalar, shaxsiy rivojlanish, nuqsonlar, tuzatish, yetarli pedagogik shart-sharoit, taʼlim muammosi, yondashuv.*

Kirish


Hozirgi kunda taʼlim-tarbiya sifati va samaradorligi zamon talablari darajasiga koʻtarish davlat siyosiyatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz taʼlim tizimi, jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi va jarayonlari bilan hamohang tarzda tarraqiy etib bormoqda. Ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalar taʼlimida ham yangi imkoniyatlar ochilib, yangi shart-sharoitlar yaratilib adolatli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. Shu bilan birga ularning huquqlari qonun bilan belgilab qoʻyilmoqda. Masalan: Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonun (*alohida yordamga muhtoj bolalarning taʼlim tizimi (9-modda), inklyuziv taʼlimni tashkil etish (20-modda), DTS va DTTlar (34-modda) hamda ularni oʻqitish va tarbiyalash (55-modda)*). (<https://lex.uz/docs/-5013007>)

I. Korreksion va rivojlantiruvchi taʼlimni tashkil etishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari

Jamiyatning yosh avlodni tarbiyalashga qoʻyadigan zamonaviy talablari taʼlim standartini ishlab chiqish maqsadlari, mazmuni va muddatlariga tabaqalashtirilgan yondoshish bilan amalga oshirilishi mumkin. Oʻqitish vaqti, mazmuni va **maqsadlarini** tanlashda eng muhim prinsip – bu oʻquv materialining mavjudligi.

Ushbu tamoyilni amalga oshirish turli xil taʼlim darajalarida bolaning maktabga psixologik, emotsional va ijtimoiy tayyorgarligini aniqlash muammosini tugʻdiradi:

- besh yoki olti yoshda – bolaning umumiy rivojlanish darajasi (intellektual, nutq, ijtimoiy-madaniy);
- olti yoki yetti yoshida – boshlangʻich maktabda oʻqishga tayyor boʻlish;
- toʻqqiz yoki oʻn yoshida – asosiy maktabda oʻqishga tayyor boʻlish (5-9-sinflar, boshlangʻich taʼlim natijalari asosida);
- oʻspirinlik davrida - oʻqishga tayyor boʻlish, ijtimoiy moslashuv, shu jumladan oʻrta maktabda kasb tanlash (10-11-sinflar).



Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan alohida yordamga muhtoj bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3) Reabilitatsiya bosqichi

Bu bosqichda bolalarning alohida yordamga muhtojligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda alohida yordamga muhtoj odamlarga nafaqat ta'lim-tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi. Natijada alohida yordamga muhtoj bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazida turadi.

4) Intergatsiya bosqichi

Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitatsiya jarayoni amalga oshirilgan alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida alohida yordamga muhtoj bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni, bu bosqichda alohida yordamga muhtoj bolalarga ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois alohida yordamga muhtoj bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda alohida yordamga muhtoj bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S.Vigotskiyning "**Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi**" ilmiy qarashi bilan ham tasdiqlash mumkin.

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umumta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.


Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.




Inklyuziv ta'lim quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktab sinflari (guruhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinf (guruh)larda maxsus ta'lim olish shakli.

Inklyuziv ta'lim tizimiga alohida yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar to'g'risida"gi Nizom asosida qabul qilinadi.

Umumta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy qilishda muassasa xodimlari ish vazifalarida ham ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar amalga oshirishi kerak.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab, inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin.





Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayoni har tomonlama amalga oshirilgan islohotlar asosidagina samarali kechadi.

Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini amalga oshirishda resurs – o'qituvchining o'rni va roli.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchining muhim vazifalariga alohida yordamga muhtoj bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va

imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatish, maxsus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar oddiy sinf o'qituvchilari va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari haqida muhokamarar yuritish, hattoki alohida yordamga ehtiyoji bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazib turish kiradi. Resurs o'qituvchining asosiy maqsadi: umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat. Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- har bir o'quvchining qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish;

- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishlariga yordam berish, o'qitish va baholash;

- sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning alohida yordamga ehtiyojlilari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish;

- sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalari bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish;

- muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini muhokama qilish va baholash;

- maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

- zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga);

- o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish;

- standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;

- o'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarni yangilash va baholash;

- mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni)ni hujjatlashtirish va ularning ro'yxatini tuzish;

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini o'zi tuzayotganda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarning o'quvchilar tomonidan maxsus ta'lim olishga bo'lgan talablariga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish;

- sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;

- o'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish;

- bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;

- yangi kelgan o'qituvchilarning ehtiyojlarini anglash va qondirish;

- maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarning moslashishiga yordam berish;

- agar kerak bo'lsa sinfdan tashqarida individual va guruhlariga asoslangan ko'rsatmalarni berish;

- individual dasturlarni muvaffaqiyatli bo'lishini boshqarish;

- maxsus ta'limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi;

- maxsus yordamchi vositalar va qo'llanmalarga bo'lgan talabni o'rganish va ulardan foydalanishni boshqarish;

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi boshqa ish qilmasligi, ko'p vaqtini yo'lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir.

Resurs o'qituvchi alohida yordamga muhtoj bolalarning darslaridagi qiyinchilik va ehtiyojlarini muvofiqlashtirish qiladi. Vaqti-vaqti bilan u joylarda olib borilayotgan o'qituvchilar treningida nogironlik muammosi bo'yicha maslahat va ko'rsatmalar berib boradi. Masalan, alohida yordamga muhtoj bolaning nuqson xususiyatlarini, darajalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar berish kabi.

Ta'lim olishda qiyinchiligi bo'lgan bolalarni imkoniyatini ta'lim siyosatida e'tiborga olish juda muhim. Ta'lim siyosatida inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun moliyaviy ta'minotga e'tibor qaratish zarur: maxsus ta'lim va umumta'lim maktablari o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari; statistik ma'lumotlar bo'yicha nogironlarni inklyuziv maktablarda ta'lim olishni joriy qilish; maxsus infrastrukturalar, masalalar, texnik vositalardan foydalanishga imkoniyat yaratish ham ta'lim siyosatining ajralmas qismidir.

Inklyuziv ta'lim jamoaviy ish bo'lib, javobgarlik butun maktab jamoasi bo'yniga yuklatiladi. Bunda sinf rahbari yordam ko'rsatuvchi bo'lib asosiy rol o'ynaydi. Ta'lim siyosati uni tartibga soladi. Bu kabi yordamlar turli xil shakllarda bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sinf o'qituvchisiga maslahat va yordam berish;
- maxsus o'qitish qo'llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- ota-onalar, ko'ngillilar yoki katta o'qituvchilar tomonidan mavjud bo'lgan yordamlarni ta'minlash;
- o'quv reja, dars jadvali, baholash mezonlariga moslashtirish va o'zgarishlarga ko'niktirish masalalarini shakllantirish;
- o'qituvchilarning malaka va bilimlarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- faol qo'llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o'z ichiga olgan ijobiy maktab muhitini tashkil etish va ta'lim jarayonida do'stona munosabatni shakllantirish;

-ma'muriyatga bolalarni aniqlash va baholashda yordam ko'rsatish;

-ijtimoiy, psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Ushbu ta'lim tizimida bolalarning nuqsonlarini aniqlash, ularni muolaja-reabilitatsiya qilish, korreksion-pedagogik omillarni amalga oshirish bo'yicha tegishli mutaxassislar (maxsus resurs pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va boshqalar) muntazam ravishda maktab pedagoglariga bevosita yordam berishlari kerak.

Inklyuziv ta'lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim olishini ta'minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo'lmasa) umumta'lim maktablariga qabul qilishini nazarda tutadi.

O'ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus reabilitatsiya markazlari yoki umumta'lim maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta'lim oladilar. Ushbu maktablarda ta'lim ta'minotini albatta bolaning ehtiyojini e'tiborga olgan holda amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Umumta'lim maktab jarayonida imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o'quv reja, dastur va boshqa omillardan foydalanib, atrofda jamoatchilik bilan birgalikda o'qitishning turli shakllarini tashkil qilish hamda maxsus yordamchi apparatlar (eshitish apparatlari, linza, lupa, nogironlar aravachalari), turli xil texnik vositalar va maxsus ko'rgazmali qurollarni qo'llash asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. O'z navbatida maxsus ta'lim muassasalari pedagoglari joylarda umumta'lim o'quvchilari, ota-onalar, davlat va nodavlat jamoa tashkilotlari uchun maslahat bo'limlari va resurs markazlar bo'lib faoliyat ko'rsatish kerak.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni ayrimlarini umumta'lim muassasalarida o'qitish uchun davlat tomonidan quyidagi shart-sharoitlarni yaratish lozim:

- nogironlikni erta tashxis qilish;
- mutaxassislar tayyorlash;

-umumta'lim muassasalari binolarini qurishda nogironlar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshoatlar)ni yaratish;

-korreksion yordamni amalga oshirish uchun reabilitatsiya markazi tarmog'ini ko'paytirish;

-ayrim alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkil etish maqsadida umumta'lim pedagoglarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazish va ularni maxsus yordamchi vositalar, o'quv metodik adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash, shuningdek maktabda turli dasturlar yordamida ta'limni tashkil etish;

-barcha bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish va ta'lim samaradorligini oshirish;

Inklyuziv ta'lim asosan umumta'lim maktablarining oddiy sinflarida va o'quvchilar yashash joyiga yaqin bo'lgan umumta'lim maktablarida olib boriladi, ta'limning rasmiy va norasmiy turlarini tashkil etishning ilg'or ish tajribalarini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy qismi – bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Alohida yordamga muhtoj bolalarning hayotga ilk yoshdan, ya'ni 6 yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yuqori natijaga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mos bo'lgan siyosatni ishlab chiqish inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asosidir.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- Jamiyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqish:

Jamiyatda insonlar orasida alohida yordamga muhtoj bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida, alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari alohida yordamga muhtoj bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

- Inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish:

Inklyuziv ta'limning asosiy qismi – bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabga bexatar, qiyinchiliklarsiz yetib borish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, amaldagi umumta'lim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko'ra, dars jadvalini, sharoitni, uslubiyatini va o'quv qurollarini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bunday o'zgartirishlar nafaqat alohida yordamga muhtoj bolalar, balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta'lim sifatini yaxshilaydi.

- Ilk yoshdan aralashuv:

Qisqa qilib aytganda bolaning hayotiga ertaroq e'tibor berilsa, natijasi bolaning keyingi rivojlanishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

- Ijobiy namuna bo'la oladigan insonlar obrazini yaratish:

Bolada o'ziga ishonch va o'zini qadrlash hissinini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim. Lekin juda ko'p alohida yordamga muhtoj bolalar o'sib, ulg'ayayotgan bir paytda, o'zlariga o'xshagan alohida yordamga muhtoj katta odamlarni uchratmaydilar va katta bo'lish qandayligini tasavvur ham qila olmaydilar. Shuning uchun ham alohida yordamga muhtoj kattalar alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'limida doimiy ishtirok etishlari kerak. Chunki katta yoshdagi alohida yordamga muhtoj insonlar ota-onalarga farzandiga ta'lim berish muhimligini tushuntirishlari mumkin. Buning uchun esa alohida yordamga muhtoj kattalarni maktablarga taklif etish kerak. Shunda ular o'zlarining hayotda erishgan yutuqlari haqida gapirib beradilar. Buning natijasida inklyuziv ta'limni targ'ib qilishda katta imkoniyat yaratiladi.

- Mos siyosatni ishlab chiqishga ko'maklashish:

Inklyuziv ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashda siyosat asosiy rol o'ynaydi. Siyosat tomonidan inklyuziv ta'limning qo'llab-quvvatlanishi bu ta'lim tiziminin samarasini va rivojini ta'minlaydi.

3. Ta'lim klasterining kelib chiqishi va maqsadi



Maykl Eugene Porter (Millatlarning Raqobatli Afzalligi kitobida. Nyu-York: Erkin matbuot, 1990, rus tilida nashr etilgan: Xalqaro tanlov: Mamlakatlarning raqobatdosh afzalliklari. Moskva: Xalqaro Aloqalar, 1993) o'zining klassik ta'rifida "klaster bu – geografik jihatdan bir-biriga bog'langan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalaridagi firmalar, shuningdek, ma'lum sohalaridagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan raqobatdosh, ammo shu bilan birga qo'shma ish olib boradigan tashkilotlar guruhi". Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan klaster bu – elementarlari bir-biriga bog'langan va bir-biriga bog'liq bo'lgan va ma'lum bir maqsad uchun birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilishga birlashtirilgan, bir-biriga bog'langan turli tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari to'plamidir.

M.Porter shuni ko'rsatdiki, kompaniyaning raqobatbardoshligi asosan uning iqtisodiy muhitining raqobatbardoshligi bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida asosiy shartlarga (umumiy resurs) va klaster ichidagi raqobatga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, M.Porter konsepsiyani mahalliy hududda joylashgan va bozorga kirishda umumiy vazifalar bilan birlashtirilgan firma va kompaniyalar uchun taqdim etdi. Ammo uning tadqiqotlari internet hali keng tarqalmagan bir paytda nashr etilgan. Bugungi kunda hududiy yaqinlik klaster tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalarni saqlab qolish uchun tobora ahamiyatsiz bo'lib bormoqda. Hozirda hatto yangi konsepsiya – aholini klaster zonasidan ancha uzoqlikda joylashgan masofaviy klaster joriy etilmoqda. Bunday holda klaster ichidagi aktyorlarning tarmoqdagi o'zaro ta'siri haqida gapirish mumkin.

Ta'limga nisbatan, klaster tushunchasi yigirma yil davomida ishlatilgan. Biz 1990-yilda ingliz tilidagi manbalar va 1993-yilda rus tilidagi manbalar uchun ushbu atamani eslatib o'tdik. 2014-yil 5-maydagi internet ma'lumotlari ingliz tilidagi va rus tilidagi manbalarda ushbu atamadan foydalanishning quyidagi chastotasini bildiradi: ingliz tilidagi manbalar: innovatsion ta'lim klasteri – natijalar: taxminan 117,6 million; o'quv klasteri – natijalar: taxminan 37 million. Rus tilidagi manbalar: innovatsion o'quv klasteri – natijalar: 222000 ga yaqin; o'quv klasteri – natijalar: 318000 ga yaqin.

Konnotatsiya nuqtai nazaridan ingliz va rus tilidagi atamalar deyarli mos keladi. Sababi, bizningcha, aniq – ularning barchasi M. Porter tomonidan berilgan klasterning klassik ta'rifiga qaytadi. Rus tilidagi ilmiy adabiyotda "o'quv klasteri" konseptual sohasi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar aylanib bo'ldi. Manbalar shuni ko'rsatdiki, ushbu muammo 10 yil davomida Rossiya ta'lim maydonida yaqindan o'rganilgan. Ingliz tilidagi manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ta'lim klasterlari chet elda ta'lim amaliyotida keng qo'llaniladi, muammo bo'yicha nazariy tadqiqotlar hajmi esa unchalik katta emas. Rus adabiyotida, aksincha, katta miqdordagi nazariy tadqiqotlar tashkil topdi va allaqachon faoliyat ko'rsatayotgan o'quv klasterlari tahlili kam sonli nashrlar bilan ifodalanadi. Mavjud o'quv

klasterlarining modellari chet elda ham, mamlakatimizda ham topilgan. Rossiya amaliyotida klaster siyosati, aksariyat hollarda, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Chet elda bo'lsa, uning maqsadi asosan mavjud klasterlarni qo'llab-quvvatlashdir.

M.Porterning davomchilari Massachusetts va Garvard universitetlari bo'lgan Massachusetts o'quv klasterini tahlil qilib, uning mamlakatdagi ta'lim sohasidagi rolini boshqa shtatlar (birinchi navbatda Kaliforniya) va boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda batafsil tavsiflaydi. Yevropada ta'lim sohasida klaster siyosatini faol amalga oshirish 1990-yillarda, "iqtisodiy klaster" atamasini ommalashtirish davridan boshlandi. Masalan, Buyuk Britaniyada tibbiy ta'lim bo'yicha ko'plab innovatsion klasterlar o'sdi (10 ga yaqin sayt topildi). Bunday klasterlar tibbiy yordamni takomillashtirish bo'yicha nazariy g'oyalar, tibbiyot amaliyotiga kirib borish mexanizmi sifatida qaraladi. Bularning barchasi faqat innovatsion amaliyotda yetakchi o'rinni egallagan universitetlar, mahalliy hokimiyat idoralari, xayriya tashkilotlari va xususiy kompaniyalar bilan yaqin hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Fransiyada ekotizimlarni takomillashtirish bo'yicha eng faol rivojlanayotgan klasterlar orasida ularning 71 tasi mavjud bo'lib, ular qatoriga kompaniyalar, xalq ta'limi muassasalari va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari kiradi. Ular o'zlarini xalqaro miqyosda eng ilg'or va muhim texnologiya sohaslarini egallaydilar va ularning a'zolari xorijiy firmalar uchun ochiq. Qo'shma Shtatlarda maxsus integratsiyalashgan ekotizimlarni yaratish bo'yicha fanlararo yondashuvni rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi, bu esa ta'lim texnologiyalaridagi innovatsion jarayonlarni sekinlashtiradigan to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Rossiyada hozirgi kunda innovatsion klasterlarni yaratish muammosi shakllanish bosqichida. Shuning uchun ushbu yo'nalishdagi mavjud tajribani tahlil qilish va umumlashtirish alohida ahamiyatga ega. Masalan, Tataristonda 2007-2008-yillarda klaster yondashuvi respublika iqtisodiyoti samaradorligini oshirishda asosiy istiqbolli vosita sifatida tan olingan. 2006-yil mart oyida Tatariston

Respublikasida "Ta'lim klasterlarini shakllantirish konsepsiyasi" tuzildi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi.

Ta'lim innovatsion klasteri – tarmoq vakillarini birlashtirgan: universitetlar, tadqiqot markazlari, sanoat, ma'lum imtiyozlarga ega bo'lgan mahalliy zonalarini yaratish orqali, bu yerda zanjirning barcha ishtirokchilari rivojlanish boshidan innovatsion tayyor mahsulotgacha (ilmiy muassasalar, kichik innovatsion kompaniyalar, test sinov markazlari), jamoaviy foydalanish markazlari qimmat uskunalar, ixtisoslashtirilgan sertifikatlangan laboratoriyalar, universitetlar va ushbu kompaniyalar uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni yetkazib beradigan o'quv markazlari, patent idoralari doimiy o'zaro aloqada bo'lar edi.

Ta'lim klasteri – asosan zanjirning gorizontaal bog'lanishlariga asoslangan ta'lim-texnologiya-ishlab chiqarishning innovatsion zanjiridagi o'qitish, o'zaro o'rganish va o'z-o'zini o'rganish vositalari tizimidir (korxonalar uchun mutaxassislarni ko'p bosqichli tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish, ta'lim muassasasi va ish beruvchi korxonalarni birlashtirish, sifatni yaxshilashni ta'minlash, tayyorlash muddatlarini qisqartirish, bitiruvchilarni korxonalarda ish bilan ta'minlash, ishlab chiqarishning amaldagi va prognoz talablarini hisobga olgan holda korxonalar uchun malakali mutaxassislarning malakasini oshirishning moslashuvchan tizimini yaratish).

Ilmiy va o'quv klasteri maktabdan ishlab chiqarishga qadar uzluksiz ta'limning yagona tizimidir.

"Ta'lim klasteri" ish beruvchi va ta'lim muassasalarini o'zaro faoliyat dasturlari yordamida "bog'lash" deb tushuniladi.

Ko'rib chiqilayotgan atamani "innovatsion" sifati bilan birgalikda ishlatish chastotasi klasterlar va klaster yondashuvi, avvalo, innovatsion ta'lim uchun xarakterli bo'lgan tezisni tasdiqlaydi va ta'lim klasterlari innovatsion ta'limni tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi. Tashkilotning klaster shakli yig'ma innovatsion mahsulotni yaratishga va zarur kasbiy vakolatlarga ega yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga olib keladi.

4. Ta'lim klasterlari konsepsiyasining mohiyati

Ta'lim klasterlari
konsepsiyasining
mohiyati

Yetakchi sanoat universiteti, boshlang'ich
va o'rta kasb-hunar ta'lim muassasalari,
ixtisoslashtirilgan maktablar, tayanch
korxonalar, mutaxassislarning asosiy
buyurtmachilari va iste'molchilari huzurida
birlashishdan iborat.

E.Kutsenkoning maqolasida ta'kidlanishicha, o'quv klasterining asosiy farqi uning ishtirokchilari safiga tijorat tashkilotlari, davlat organlari, kooperatsiya tashkilotlari kirishi mumkin emas, balki universitetlarning ustun rovida (ular) odatdagi klasterning yadrosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar avtomobil klasterida asosiy mahsulot avtomobil bo'lsa, kimyoviy klasterda kimyo sanoati mahsuloti bo'lsa, o'quv klasterida asosiy mahsulot ta'lim xizmatidir. Ko'rinib turibdiki, ta'lim klasteri ta'lim xizmatlarini yaratishga emas, balki doimo o'zgarib turadigan bozor sharoitida raqobatlashishga qodir bo'lgan odamni tayyorlashga qaratilgan.

Hozir Rossiyada postindustrial o'zgarishlar sharoitida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, avvalambor, ta'lim sohasiga ta'sir ko'rsatadigan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi vaqtda ta'lim xizmatlari bozoridagi vaziyat mehnat bozori sharoitlariga mos kelmayapti, bu esa ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish sohasi bilan o'zaro ta'sir qilishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligiga olib keladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va menejmentda yangi texnologiyalarni ilgari surish, shuningdek, innovatsion faoliyat uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining turli sanoat va faoliyat yo'nalishlari, korxonalari bilan o'zaro aloqalarini yangilash muhimdir. Ko'rinib turibdiki, bu nuqtai nazardan "ta'lim klasteri" atamasi va "umrbod ta'lim"

atamasi ma'no jihatdan yaqin. Darhaqiqat, ba'zi manbalar o'quv klasterini maktabdan ishlab chiqarishga qadar umrbod o'qitishning yagona tizimi sifatida belgilaydi. Bir qarashda, bu ta'rif mukammal darajada qabul qilinadi. Biroq, uzluksiz ta'lim tizimidan farqli o'laroq, innovatsion ta'lim klasteri nafaqat uzluksiz ta'lim olish uchun sharoit yaratibgina qolmay, balki uzluksiz ta'limni ta'minlaydigan tarkibiy qismlar o'rtasidagi mavjud va potentsial aloqalarning imkoniyatlarini yangi usulda ko'rishimizga imkon beradi.

Bir ma'noda klaster konsert, konsortsium, korporatsiya kabi tanish tashkilot shakllariga o'xshaydi. Biroq, bu yerda ham farqlar mavjud: klaster ancha kam tashkiliy tuzilishga ega. Shunga ko'ra, uni maxsus turdagi tizim deb hisoblash mumkin, unda element qo'shilishi uning ish faoliyatini yaxshilaydi va olib tashlash o'lik oqibatlariga olib kelmaydi. Xuddi siz she'riy taqqoslashni qo'llaganingizdek va so'zning etimologiyasiga murojaat qilganingiz kabi.

Ko'rib chiqilayotgan konsepsiya Petrozavodsk davlat universiteti o'qituvchilari va talabalariga qay darajada ma'lum ekanligini bilish uchun tabiiy va texnik mutaxassisliklar va yo'nalishlar kafedra 5-kurs magistrarlari va chet tili o'qituvchilari o'rtasida yozma so'rovnoma o'tkazildi. Ma'lum bo'lishicha, o'qituvchilarning 87% "klaster" atamasini hech qanday tarzda ta'lim bilan bog'lamaydilar; 10% buni kasbiy vakolatlarni o'qitishning ierarxik sxemasi sifatida qabul qiladi – dars rejalarini tuzishdan maqsadli ish dasturlarini yaratishga qadar. Atigi 3% atamani zamonaviy ta'limda qabul qilinganidek talqin qiladi.

So'rov shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar "klaster" atamasi haqida ta'limda faoliyat yuritadigan tizimning bir turi sifatida tasavvurga ega bo'lishdi, shu bilan birga o'qituvchilar klaster konsepsiyasini bosqichma-bosqich kompetensiyalarni rivojlantirish bilan cheklashadi yoki hatto ular haqida bilishmaydi. Ta'limga nisbatan bunday atamaning paydo bo'lishi, ayni paytda, klaster yondashuvi Petrozavodsk davlat universitetining to'rtta yo'nalishi bo'yicha o'quv klasterlarini yaratishni o'z ichiga olgan strategik rivojlanish dasturida ko'rsatilgan. Joriy yilning mart oyida Kareliya Respublikasida Kareliya hukumatining Xalqaro Yevrosiyo

ilmiy-ma'rifiy markazi vakillari bilan ishchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Loyihaning maqsadi Kareliya Respublikasi hududida Kareliya va Rossiya muammolari va vazifalarini har tomonlama hal qilishga, shuningdek, Yevrosiyo integratsiyasiga qaratilgan innovatsion ilmiy va o'quv klasterini yaratishdir. Klaster Xalqaro Yevrosiyo ilmiy-ta'lim markaziga asoslangan. Loyiha Kareliya va Rossiya uchun na Rossiyada, na MDHda, na Yevropa Ittifoqida o'xshashi bo'lmagan yangi ilmiy, ta'limiy va amaliy yo'nalishni yaratishni anglatadi.


Ushbu atamaga qarshi chiquvchilar ham bor. F.M.Dostoyevskiy nomidagi Omsk davlat universiteti stilistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar tili kafedrası mudiri Nataliya Kuzmina "klaster" so'zining taqdirini shunday muhokama qiladi: barcha shov-shuvli so'zlardan (masalan, glamur yoki nanotexnologiya) – nihoyatda keng va noaniq ma'noga ega. Ta'lim, tog', tibbiyot, norozilik, g'oyaviy klasterlar, elita rivojlanish klasterlari, beshta 20 qavatli binolarning klasterlari, ishbiarmonlik faoliyati klasterlari va boshqalarni birlashtiradigan yagona narsa bu "birlashma, agregat" ma'nosidir (bu ingliz klasterining etimologiyasi – guruh). Shuningdek, bu ishlatishda, u uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan so'zlardan (qator, guruh, birlashma, seriya, sektor va shunga o'xshashlar) umuman farq qilmaydi va semantik jihatdan ortiqcha bo'ladi. "Klaster" so'zi faqat manbaning vakolati tufayli saqlanib qoladi (assotsiatsiyalarga qaraganda klasterlar tuzish nufuzliroq) va ehtimol, tilda uzoq vaqt qolmaydi".

Ko'rinib turibdiki, "innovatsion ta'lim klasteri" atamasi "qator, guruh, assotsiatsiya, seriya, sektor" va hokazo so'zlardan sezilarli farq qiladi. Bunday klaster bir qator ilmiy va ta'lim muassasalarining ma'lum bir qismga mexanik birikmasini anglatmaydi. Guruh, lekin ularning yaqin o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bu ikkala alohida qismning va butun klasterning sifatli o'zgarishiga olib keladi, uning ishlashi davomida yangi yuqori sifatli mahsulot yaratish zarur. Bundan tashqari, yangi so'z atamasining paydo bo'lishi, qoida tariqasida, tasodifiy emas, bu yangi obyektiv hodisaning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bunday holda, yangi metafora modelini yaratish va yangi konseptual

maydonga o'tkazish natijasida yangi atamaning paydo bo'lishi haqida gapirish o'rinli.

Metafora modeli

- bu ona tilida so'zlashuvchilar ongida mavjud bo'lgan konseptual sohalar o'rtasidagi munosabatlar, unda bitta soha tushunchalari tizimi (manbaviy soha) boshqa sohaning (maqsadli sohaning) konseptual tizimini modellashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



Boshlang'ich (manba sohasidagi) va metaforik (maqsadli sohadagi) elementlarni birlashtiruvchi komponent. Ushbu komponentni tavsiflash uchun tegishli tushunchalardan metafora bilan foydalanishga nima asos bo'layotganini, nima uchun manba sferasining kontseptual tuzilishi butunlay boshqa sohaning elementlarini belgilashga yaroqli bo'lib chiqishini aniqlashni anglatadi.

Metafora modelining tavsifiga muvofiq, "innovatsion ta'lim klasteri" atamasining boshlang'ich konseptual yo'nalishini aniqlaylik. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bunday yo'nalish iqtisodiyotdir, xususan, M.Porterning raqobat mohiyatini o'rganish. Yangi konseptual yo'nalish – "klaster" atamasini ta'limga

o'tkazish. Ushbu model bilan bog'liq tushunchalar quyidagilardir: o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik, barcha elementlarning bir-biri bilan chambarchas to'qilishi, chiqishda yangi raqobatdosh ta'lim mahsulotini yaratish. Bog'lovchi komponent raqobatdir, ya'ni dastlabki modelda bu raqobatbardosh mahsulotni yaratish va metafora modelida professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir bo'lgan odamni tayyorlash uchun sharoit yaratishdir.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Inklyuziv ta'lim haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.
2. Inklyuziv ta'lim tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ayting.
3. M.Porterning ta'lim klasteriga oid qarashlarini aytib bering.

GLOSSARIY

KORREKSIYA	– tuzatish, yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Nuqsonli bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay yo'qotish.
TA'LIM	– bolalarni bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish. Ongiga va xulqiga ta'siretish, bilish faoliyatini rivojlantirish.
TARBIYA	– bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangankishini tarbiyalash.
SEREBRAL FALAJLIK	– bosh miyaning harakat tizimining jarohatlanishi.
GIDROSEFALIYA	– kalla bo'shlig'ida orqa miya suyuqligining ko'p miqdorda to'planishi natijasidagi kasallik.
EPILEPSIYA	– tutqanoq – vaqti-vaqti bilan qaytarilib turadigan, tutqanoq tutish bilan namoyon bo'ladigan nerv psixikkasalligi.
DAUN KASALLIGI	– genetik kasallik bo'lib, bemorning o'ziga xos tashqi ko'rinishi bilan

	xarakterlanadi.
ARTIKULYASIYA APPARATI	– nutq xosil bo'lishida ishtirok etadigan a'zolari.
FONEMATIK IDROK	– nutqdagi tovushlarni eshitib, ajratish.
ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR	– kar(eshitmaydigan), zaif eshituvchi, keyinchalik kar bo'lib qolganlar.
SURDOPEDAGOG	– eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya beradigan pedagog.
INTEGRASIYA	– rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni sog'lom kishilar orasiga uyg'unlashtirish.
DIFFERENSIAL TA'LIM	– nuqsonlarni tabaqalashtirgan holda o'qitish.
KOXLEAR IMPLANTASIYA (TIB)	– o'rta quloq chig'anog'iga tovush o'tkazuvchi moslamani o'rnatib, eshituv qobiliyatini me'yorga keltirish operatsiyasi.
KARLAR	– eshitish qobiliyati tug'ma, yoki ilk davrda chuqur va turg'un pasaygan va oqibatda maxsus pedagogik yordamsiz nutqni egallay olmaydigan bolalar.
ZAIF ESHITUVCHILAR	– nutqni egallashga va nutqiy muloqotga to'sqinlik qiladigan eshitishi pasaygan bolalar.
OG'ZAKI-DAKTIL	– so'zlarni gapirib, ayni paytda so'zdagi harflarni barmoqlar orqali ko'rsatish.

INKLYUZIV TA'LIM	– rivojlanishida turli muammolari bo'lgan bolalarni sog'lom rivojlanayotgan bolalar ta'lim muassasalarida, zarur shart-sharoitlar yaratgan holda o'qitish.
KOMMUNIKASIYA	– nutqiy muloqot.
SO'ZLASHUV NUTQ	– og'zaki, yozma, daktil nutq.
RESURS O'QITUVCHI	– alohida yordamga muhtoj bola bilan korreksion-pedagogik ishni olib boruvchi defektolog.
TIFLOPEDAGOGIKA	– greksha “typhlos” ko'r va pedagogika ma'nosini anglatadi. Ko'rish jarayoni buzilgan shaxslarni tarbiyalash va o'qitish muammolarini ishlab chiqaruvchi maxsus pedagogikaning bir bo'limi.
OFTOLMOLOG	– ko'z shifokori.
KOMPENSATSIYA	– o'rnini qoplash.
KLASTER	– inglizcha so'zdan olingan bo'lib, to'plam, tarmoq ma'nosini anglatadi.
LOGOPEDIYA	– yunon tilida “logos»” (so'z, nutq), “peydeo” (tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, “to'g'ri nutqni tarbiyalash” ma'nosini bildiradi.
OLIGOFRENOPEDEGOGIKA	– aqli zaif bolalarni o'qitish,

	tarbiyalash, korreksiyalash (tuzatish), ijtimoiy xayotga jalb etish masalalarini o'rganuvchi maxsus pedagogikaning bir tarmog'i
--	--

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:			
1	TA'LIM TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasining, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son qonuni	
2	NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQLARI TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasining 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son qonuni	
3	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 yildagi 391-son qarori	
4	ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM- TARBIYA BERISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son qarori	
5	ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM BERISHGA OID NORMATIV- HUQUQIY HUJJATLARNI	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi 638-son qarori	

	TASDIQLASH TO'G'RIDA		
6	KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATLARDA TA'LIM BERISH SIFATINI OSHIRISH HAMDA ULAR FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2022 yildagi PQ-209-son qarori	
7	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI TIZIMINI 2030- YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF- 5712-son Farmoni	
8	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RIDA	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.05.2019 yildagi 391-son qarori	
9	ZAIF ESHITUVCHILARNI SAVODGA TAYYORLASH VA SAVOD O'RGATISH	L.R.Mo'minova, U.Y.Fayziyeva TDPI. 1994 yil-18 b	

10	OLIGOFRENOPEDAGOGIKA ASOSLARI	K.Mamedov, M.Sagatov, P.Pulatova Toshkent "O'qituvchi" 1995	
11	RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR HAQIDA.	K.K.Mamedov, G.B.Shoumarov, V.P.Podobed Toshkent 1999 yil	
12	MAXSUS PEDAGOGIKA: OLIGOFRENOPEDAGOGIKA	P.M.Po'latova G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2005	
13	LOGOPEDIYA	M.Y. Ayupova "O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti" Toshkent-2007	
14	IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMDA O'QITISH USHLBLARI	R.R.Shomaxmudova, A.Berdieva RTM Toshkent-2008	
15	MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM O'quv va metodik qo'llanma	R.R.Shomahmudova Fan va ta'lim 2011	

16	MAXSUS PEDAGOGIKA	L.Mo'minova, M. Ayupova, D.Nurkeldieva, X.Kalbaeva "Noshir" nashriyoti, 2012, 2016.	
17	"MAXSUS TA'LIM ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI"	L.Mo'minova, D.Nazarova RTM, Toshkent 2012 yil.	
18	MAXSUS PEDAGOGIKA	P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova "Fan va texnologiya" nashriyoti 2014.	
19	DEFEKTLOGIYA ASOSLARI (KORREKSION PEDAGOGIKA)	V.S.Raxmanova Toshkent "NISO POLIGRAF" 2017	
20	BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARNING KLINIK ASOSLARI	D.R. Madazizova "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoli Toshkent - 2018	

21	„MAXSUS PEDAGOGIKA“	M.U. Xamidova „Fan va texnologiya“, Toshkent - 2018 yil	
22	KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH monografiya	S.A.Toshtemirova 2022	
23	“ПСИХОЛОГО- ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЕМ ЗРЕНИЯ” УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ	Л.И.Плаклина Москва РАОИКП 1999 г	
24	“ОСНОВЫ ТИФЛОПЕДАГОГИКИ” (РАЗВИТИЕ, ОБУЧЕНИЕ И ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ). УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ ДЛЯ ВУЗОВ	В.П.Ермаков Владос -2000	
25	ГЛУХИЕ И СЛАБОСЛИШАЮЩИЕ ДЕТИ	Р.М. Боскис Москва Владос 2001-316 с.	
26	МЕТОДИКА ПРЕДМЕТНО- ПРАКТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛАХ ДЛЯ ГЛУХИХ ДЕТЕЙ	Т.С.Зикова, М.А.Зикова Москва "Академия" 2002-169 с.	

--	--	--	--

-14100/15-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

F.U.Qodirova, M.A.Umaraliyeva, Sh.Z.Matupayeva, M.D.Omonova

MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir:
Tehnik muharrir:
Musahhih:
Sahifalovchi:

X. Taxiroy
S. Melikuziva
M. Yunusova
A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆ "Times new roman" garniturası, kegli 14.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 14,3. Adadi 100 dona.
Buyurtma № 1638848

Yangi chirchiq book MCHJda chop etildi.



9 789910 995118

*Inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyatga sari yo'l
ilm va amaliyot uyg'unligida porloqdi!*